

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**O'ZBEKİSTONDA DEMOKRATİK
JAMİYAT QURİSH NAZARIYASI
VA AMALİYOTI**

**fanini o'rGANİSHDA Prezident Islom Karimov asarlaridan
foydalanish masalalari**

O'quv-uslubiy qo'llanma

TOSHKENT-2016

«O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti» fanini o‘rganishda Prezident Islom Karimov asarlaridan foydalanish masalalari. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. Siddiqov B., Farfieva K., Muxtorova T., Boymurodova Z., Maksumkulova G. –Toshkent, ToshDTU, 2016- 103 6.

Mazkur o‘quv-uslubiy qo‘llanma «O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti» fanini o‘rganishda Prezident Islom Karimov asarlaridan foydalanish masalalarining tahliliga baqishlangan bo‘lib, unda Prezident Islom Karimov asarlarida jamiyat qurilishiga oid bildirilgan konseptual g‘oyalarni keng o‘rganilgan. Qo‘llanmada mamlakatimizda jamiyat hayotini boshqarish, uning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarida demokratik islohotlarni amalga oshirish, milliy taraqqiyotimizni ta’minlashga qaratilgan dolzarb masalalarni bosqichma-bosqich, izchillik bilan hal etib kelinganligini tasavvur etishga imkon beradigan Prezident asarlarining axamiyatini yoritishga harakat qilingan.

Qo‘llanma ijtimoiy-gumanitar fanlar professor-o‘qituvchilari va bakalavriat yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan.

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Toshkent davlat texnika universitetining
ilmiy-uslubiy kengashi qaroriga asosan chop etilgan.*

Taqrizchilar: ToshDTU dotsenti, tarix fanlari nomzodi A.Mirzayev
O‘zMU dotsenti, siyosiy fanlar nomzodi O.Musayev

©Toshkent davlat texnika universiteti, 2016

Kirish

Mamlakatimiz tarixida buyuk burilish davrini boshlab bergen voqeа sodir bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari 6-sessiyasi (1991 yil 31 avgust) o‘zbek xalqining xohish irodasi bilan tarixiy hujjatni qabul qildi. Ozod va suveren davlat – O‘zbekiston Respublikasi tashkil etilganligi e’lon qilindi. Boshimiz uzra istiqlol, mustaqillik bayrog‘i hilpiray boshladi. Uning insonga xuzur-halovat baxsh etuvchi mayin, muloyim shabadasi esa boshladi.

Prezidentimiz asarlarida mamlakatimizning tarixan qisqa davr ichida erishgan va asrlarga qiyos qilgulik yutuqlari ilmiy-nazariy jihatdan obyektiv tarzda asoslab berilgan, bosib o‘tilgan ijtimoiy taraqqiyot yo‘li chuqur tahlil qilingan. Ayni chog‘da o‘zbek jamiyatini kelajakda buyuk davlatga aylantirishning ustuvor yo‘nalishlari va istiqbol yo‘llari belgilab berilgan.

Yurtboshimiz asarlarini teran o‘rganishning zaruriyati va ahamiyati shundaki, u yoshlarimiz qalbi va ongida O‘zbekistonning buyuk istiqboliga chuqur ishonch va umid uyg‘otadi. Yoshlarimizning yurtimiz rivoji baxt-saodati yo‘lida fidokorona mehnat qilish, ilm-fan yutuqlarini chuqur o‘rganishga, fidoyi va ma’naviy jihatdan har tamonlama barkamol, etuk insonlar bo‘lib kamol topishiga xizmat qiladi.

Islom Karimov asarlarida mamlakatimizda huquqiy – demokratik davlat erkin fuqarolik jamiyati qurishning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy yo‘l-yo‘riqlari ilmiy-nazariy va metodologik jihatdan to‘la asoslab berilgan. Prezidentimiz Islom Karimov asarlari to‘la ma’noda jamiyatning konseptual masalalari echimiga bag‘ishlangan qomusiy tadqiqotlardir. Ularda inson hayotiga bevosita taalluqli, keljakni oldindan ko‘rish, idrok etishga yordam beradigan, kishilarda Vatanimiz istiqboli haqida katta ishonch, umid, mehr-muhabbat tuyg‘ularini uyg‘otadigan ulug‘vor g‘oyalar, nazariy fikrlar, dasturulamal yo‘l-yo‘riqlar asoslab berilgan.

O‘zbekiston mustaqilligining xalqimiz hayotidagi buyuk tarixiy ahamiyati, taraqqiyot yo‘limizning o‘ziga xos xususiyatlari, shart-sharoitlari va zamonlari, demokratiyaga asoslangan adolatli fuqarolik jamiyati barpo etish tomon borayotgan milliy davlatchiligidimizning ichki va tashqi siyosatiga oid asosiy yo‘nalishlar o‘zining har tamonlama ilmiy nazariy va falsafiy ifodasini topgan. O‘zbekistonning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma’naviy jihatdan rivojlanishining asosiy negizlari teran tahlil qilingan. Prezident asarlarini o‘qitish bugungi kunda yosh

avlodga vatanimizda demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatি qurish asoslarini o'rgatishda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli «O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti» fanini Oliy o'quv yurtlarida o'qitilishda Prezident asarlaridan keng foydalanilmoqda.

Darhaqiqat, «O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti» fanining Oliy o'quv yurtlarida o'qitilishi eng avvalo mamlakatimizning mustaqillikka erishishining samarasi bilan bevosita bog'liq bo'lsa, ikkinchidan, biz tanlagen taraqqiyot yo'lining demokratik jamiyat qurish bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Bu fan mamlakatimizda barpo etilayotgan demokratik jamiyat to'g'risida talabalarda muayyan bilim va ko'nikmalar hosil qilishni ularning dunyoqarashini kengaytirishni, nazariy bilimlarini yanada chuqurlashtirishni nazarda tutadi.

«O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti» fanini ilmiy-uslubiy jihatdan chuqur va puxta o'zlashtirishda Prezidentimiz Islom Karimovning asarlari, nutqlari, ma'ruzalarida demokratik davlat, fuqarolik jamiyat qurishga oid bildirilgan konseptual g'oyalari huquqiy, ilmiy-nazariy va metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Talabalarga mazkur fanni amaliy ahamiyatini tushuntirib berish, pedagogik nuqtai nazardan asoslash uchun jamiyat hayotini boshqarish, uning ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy va siyosiy sohalarida o'tkazilayotgan islohotlarni amalga oshirishni ta'minlashda Prezident farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, farmoyishlari va turli me'yoriy hujjatlari katta amaliy ahamiyatga ega. Mualliflar "Ta'lif to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ko'rsatib o'tilgan ta'lifning maqsad va vazifalari, kadrlarni tayyorlashga qo'yilayotgan talablar, amalga oshirilishi nazarda tutilgan vazifalar majmuidan kelib chiqqan holda mazkur uslubiy qo'llanmada mamlakatimizda demokratik jamiyat qurish, milliy taraqqiyotimizni ta'minlashga qaratilgan dolzarb masalalar bosqichma-bosqich, izchillik bilan hal etib kelinganligini aniq tasavvur etishga imkon beradigan Prezident asarlari bilan o'quvchilarni yaqindan tanishtirishga harakat qilganlar.

O'quv-uslubiy qo'llanmada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlarida jamiyat rivojlanishi, ijtimoiy va siyosiy institutlar faoliyatini takomillashtirish hamda milliy ta'lif-tarbiya masalalari bo'yicha ilgari surilgan ilmiy-nazariy konsepsiylar keltirilgan. Undan ijtimoiy-

gumanitar fanlar professor-o‘qituvchilari va bakalavriat yo‘nalishi talabalari foydalanishi nazarda tutilgan.

Muxtasar qilib aytganda, «O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti» fanini Prezident asarlari asosida o‘qish-o‘rganish mazkur fanni o‘zlashtirishning eng samarali metodologik asosi deb o‘ylaymiz.

1-mavzu: Mustaqillik va O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li

Reja:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlarida mustaqillik va jamiyat rivojlanishining yangi nazariy konseptual qarashlarining asoslanishi.
2. Jamiyat taraqqiyoti va ijtimoiy hayot sohalaridagi tub o‘zgarishlar.
3. O‘tish davri va taraqqiyot bosqichlari.

Asrlar osha orzu qilib kelingan buyuk ne’mat ro‘yobga chiqdi, mustaqillikka erishdik. Uning insonga huzur-halovat baxsh etuvchi mayin, muloyim, iliq shabadasi esa boshladi. Shunday qilib dunyo siyosiy xaritasida O‘zbekiston deb atalmish mustaqil davlat paydo bo’ldi.

Xo’sh, Istiqlol! U bizga nima berdi? Istiqlol, mustaqillik biz uchun nima? degan edi, Islom Abdug‘anievich Karimov – eng avvalo, o‘z taqdirimizni qo‘limizga olish, o‘zligimizni anglash, milliy qadriyatlarni, urf-odatlarimizni tiklash, hammamiz uchun mo‘tabar shu zaminda, har bir xonadonda tinchlik-osoyishtalikni, barqarorlikni saqlashdir. Aziz Vatanimizda adolat, insof, dinu-diyonat, mehru-oqibatni qaror toptirishdir” (12-218).

“Biz uchun mustaqillik, - deb davom etadi u, - Allohning o‘zi el-yurtimizga in’om etgan tabiiy boyliklarga egalik qilish, xalqimiz qudrati, salohiyati, aqlu-zakovatiga tayanib, O‘zbekistonda yashayotgan har bir inson, har bir oila uchun munosib hayot qurish, kelajak avlodlar uchun ozod va obod Vatan qoldirishdir” (12-218). Haqiqatdan ham mustaqillik o‘zbek davlatining tarixiy yutug’idir.

Prezident uchun istiqlol-millatimiz, mamlakatimizning jahonda obro‘-e’tibori, shon-shavkatini ko‘taradigan sog‘lom avlodni, barkamol va fidoyi o‘g‘il-qizlarni tarbiyalash, ularni voyaga etkazish va baxtini ko‘rishdir. Har bir fuqaromiz uchun – millati, irqi va diniy e’tiqodidan qat’iy nazar – erkinlik, tenglik, birodarlik, munosib sharoit yaratib berishdir.

Mamlakatimiz rivojlanishi to‘g‘risidagi yangicha ilmiy nazariy qarashlar va g‘oyalar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti to‘la asarlar jildida (1-22 jildlar), shuningdek uning “O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida”, “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarlarida ilmiy asoslab bergenligini ko‘ramiz. Jamiyat rivojlanishi to‘g‘risidagi

yangi nazariy g‘oyalar jamiyat rivojlanishi bo‘yicha mavjud bo‘lgan an’anaviy qarashlardan tubdan farq qiladi. Jamiyat rivojlanishi to‘g‘risidagi qarashlarning yangicha ilmiy asoslarga qo‘yishni taqozo etgan shart-sharoit va omillarni mustaqillik va mustaqil taraqqiyot yo‘lini tanlash, davr va zamon o‘zgarishlari va yangicha talablaridan kelib chiqqan holda to‘g‘ri tushunish va talqin etish mumkin.

Mustaqillik va jamiyat taraqqiyoti to‘g‘risidagi qarashlarni o‘zgartirish zarurligi O‘zbekistonning mustaqil taraqqiyot yo‘lidan rivojlanishi o‘ziga xos va mos taraqqiyot modelini ishlab chiqish bilan bog‘liq. Mustaqil taraqqiyot mamlakatni o‘z negizida rivojlanishini ta‘minlash uchun tegishli shart-sharoit va omillarni yaratib beradi.

Prezidentimizning asarlarida jamiyat rivojlanishi to‘g‘risida yangi nazariy va konseptual yondoshuvning ilmiy asoslari ishlab chiqilgan bo‘lib , uni ijtimoiy gumanitar fanlarni o‘qitishda hisobga olish muhim ahamiyatga ega.

Davlatimiz rahbarining asarlarida jamiyat rivojlanishi qonuniyatları, shart-sharoitlari va omillariga amal qilib kelingan turli xil qarash va yondoshuvlarga nisbatan yangicha konseptual g‘oyalar asoslab berildi va ishlab chiqilganligini quyidagi g‘oyalar orqali ko‘rish mumkin:

“Biz bundan buyon eskicha yasholmaymiz va bunday yashashga zamonning o‘zi yo‘l qo‘ymaydi” (20-4) – deb ta’kidlaydi, Islom Karimov. Demak, jamiyat rivojlanishi to‘g‘risidagi qarashlarni o‘zgartirish, jamiyat rivojlanishi bilan bog‘liq kommunistik g‘oya va aqidalardan voz kechish, zamon o‘zgarishlarini hisobga olishga alohida e’tibor qaratiladi va mavjud an’anaviy qarashlarni o‘zgaritirish bilan bog‘liq g‘oyalar va qarashlar ilgari suriladi.

Demak, mustaqillik va jamiyat taraqqiyoti to‘g‘risidagi qarashlarni o‘zgartirish zarurligi O‘zbekistonning mustaqil taraqqiyot yo‘lidan rivojlanishi o‘ziga xos va mos taraqqiyot modelini ishlab chiqish bilan bog‘liq. Mustaqil taraqqiyot mamlakatni o‘z negizida rivojlanishini ta‘minlash uchun tegishli shart-sharoit va omillarni yaratib beradi.

Shuni ta’kidlash kerakki, I.Karimov asarlarida jamiyat rivojlanishi bosqichlari quyidagicha asoslab berilgan:

1. 1989-1991 yillar - Mustaqillik ostonasi;
2. 1991-2000 yillar - O‘tish davri bosqichi;
3. 2000-2007 yillar – Modernizatsiyalash;
4. 2007 yildan hozirgacha mamlakatda demokrtaik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bosqichi.

Hech shubhasiz bu bosqichlar jamiyat rivojlanishida o‘ziga xos ma’no-mazmunga ega bo’lib mustaqil taraqqiyot yo‘lida amalga oshirilgan muhim o‘zgarishlar bilan xarakterlanadi. Masalan, 1989-1991 yillarda, ya’ni O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasidagi o‘zgarishlarni quyidagilarda ko‘rish mumkin:

- 1989 yil 21 oktyabr o‘zbek tiliga “Davlat tili” maqomi berildi;
- 1990 yil 24 mart Prezidentlik lavozimi joriy etildi;
- Mustaqillik deklaratsiyasi qabul qilindi;
- 1991 yil 31 avgust O‘zbekistonning davlat mustaqilligi ozod suveren davlat deb e’lon qilindi;
- Navro‘z – umumxalq bayrami sifatida e’lon qilindi va boshqalar.

Jamiyat taraqqiyotidagi tub o‘zgarishlarni amalga oshirish, rivojlanish qonuniyati nuqtai nazaridan yondoshganda muayyan o‘tish davrini zarurligini taqozo etadi. Bunda 1989-1991 va 1991-2000 yillarni hisobga olish zarur.

“O‘tish davri va milliy davlatchilik asoslarini shakllantirish bilan bog‘liq birinchi galdag‘i islohot va o‘zgarishlarni o‘z ichiga olgan dastlabki bosqich – 1991-2000 yillar mamlakatimiz hayotida ulkan iz qoldirgan o‘tish davri, tom ma’noda tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan davr bo‘ldi” (22-5).

O‘tish davrida avvalambor,

► O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ishlab chiqildi va qabul qilindi;

- Ijro hokimiyatining samarali tizimi va tuzilmalari yaratildi;
- Sud hokimiyati tizimi shakllantirildi;
- Milliy xavfsizlik organlari shakllantirildi;
- Qishloq xo‘jaligi tubdan isloh qilindi, g‘alla mustaqilligiga erishildi;

► Bozor iqtisodiyotining asoslari yaratildi;

► Bozor iqtisodiyoti talablariga javob beradigan moliya va bank tizimi shakllantirilganligi va boshqalar bilan asoslanadi. O‘zbekiston jamiyatni o‘tish davri vazifalarini amalga oshirib, jamiyat ijtimoiy hayoti sohalarida o‘z negizida rivojlnana boshladi.

Prezident asarlarida jamiyat rivojlanishi qonuniyatlari, shart-sharoitlari va omillariga amal qilib kelingan turli xil qarash va yondoshuvlarga nisbatan yangicha konseptual g‘oyalar asoslab berildi va ishlab chiqilganligini quyidagi g‘oyalar orqali ko‘rish mumkin:

“Biz bundan buyon eskicha yasholmaymiz va bunday yashashga zamonning o‘zi yo‘l qo‘ymaydi” (20-14), - deb ta’kidlaydi I.Karimov.

Demak jamiyat rivojlanishi to‘g‘risidagi qarashlarni o‘zgartirish jamiyat rivojlanishi bilan bog‘liq kommunistik g‘oya aqidalardan voz kechish zamon o‘zgarishlarini, hamda jamiyat rivojining ob‘ektiv yondoshuvini hisobga olishga alohida e’tibor qaratiladi. Va mavjud an’anaviy qarashlarni o‘zgaritirish bilan bog‘liq bo‘lgan g‘oyalar va qarashlar o‘rtaga tashlanadi.

Natijada jamiyat rivojlanishi to‘g‘risida mavjud bo‘lgan an’anaviy qarash o‘zgardi. Uni quyidagi yo‘nalishlarda ko‘rish mumkin:

- jamiyat, jamiyat rivojlanishi tushunchalariga yangicha qarash amalga oshirila boshlandi. U materialistik dialektika qolipidan, prinsiplaridan xalos etildi;

- jamiyat taraqqiyoti faqat moddiy ishlab chiqarishga bog‘liq degan g‘oyaga nisbatan yangicha qarashga asoslanildi. Formatsion qarashlardan voz kechildi. Jamiyat taraqqiyotiga sivilizatsion yondoshuv amal qila boshladi;

- jamiyat taraqqiyotiga sinfiy qarashdan voz kechildi. Jamiyat rivojlanishida inson omiliga – oliv qadriyat sifatida qarala boshlandi;

- jamiyat rivojlanishini inson va uning ongi tafakkuriga hamda bog‘liq ekanligiga alohida e’tibor berila boshlandi. “Ong va tafakkur o‘zgarmasa ijtimoiy hayot o‘zgarmaydi” (I.Karimov) degan g‘oya ilgari surildi va ilmiy asoslab berildi;

- jamiyatning iqtisodiy negizi o‘zgartirildi. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan mulkning xilma-xilligiga o‘tildi.

- Jamiyat rivojlanishi “ma’naviy va moddiy hayot uyg‘unligi” (19-173) bilan bog‘liq qonuniyatga amal qila boshladi.

Bu yangicha g‘oya va qarashlardagi o‘zgarishlarni oldingi qarashlardan tubdan farq qilishini alohida ta’kidlash zarur. Chunki jamiyat rivojlanishiga formatsion qarash jamiyat rivodlanishi qonunlarini ilmiy asosda xolisona o‘rganish imkoniyatini bermaydi. Ya’ni jamiyat rivojlanishi faqat moddiy ishlab chiqarishga bog‘lab tahlil etiladi. Bu ohir oqibatda jamiyat taraqqiyotini “materialistik” yoki “moddiylik” nuqtai nazaridan tushunishga olib keldi. Ma’naviy omilning roli esa hisobga olinmadni. Jamiyat rivojlanishiga formatsion qarash g‘oyasi uni bir chiziqli tushunishga asoslanmaydi. Taraqqiyot modellining hilma-xilligiga asoslanadi. I.Karimov asarlarida jamiyat rivojlanishini formatsion qarashning cheklanganligi “bundan keyin kapitalizm ham yo‘q sotsializm ham yo‘q” degan fikrlari orqali uning mohiyatini aniq tasavvur etish mumkin. Shuningdek jamiyat rivojlanishini inson omiliga ham bog‘liqligi bu asosan inson ongi va

tafakkuridagi, bilim, ma’naviy salohiyati, ilm-fandagi o‘zgarishlar orqali ilmiy asoslab berilganki, jamiyat rivojlanishi qonunlarini to‘g‘ri tushunishga ilmiy-nazariy jihatdan yordam beradi.

Ha, mustaqillik biz uchun nihoyatda qimmatli, bebafo, oliv ne’mat, saodatdir. “Mustaqillik degani shuki, bizlar, asrlar osha birovlarining og‘ziga qarab yashagan xalq, nihoyat, o‘z taqdirimizni, hayotimizni, kelajagimizni o‘z qo‘limizga oldik. Eng muqaddas vazifa – shu buyuk ne’matni qo‘ldan bermaslik.

O‘zbekistonni ardoqlagan har bir inson Mustaqillik tushunchasiga ana shunday muqaddas muddao nuqtai nazaridan yondashishi lozim” (4-5).

Mustaqillikning bebafo, tengi yo‘q qadr-qimmatini yaxshi anglash uchun yana bir bor o‘tmishga nazar tashlamoq foydalidir. Shunda erishgan va erishayotgan yutuqlarimiz salmog‘i ko‘zga yaqqol tashlanadi. Xo‘s, biz kim edigu, kim bo‘ldik va qanday shart-sharoitda yashadik?

Shu yerda I.A.Karimovning XII chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi 16 sessiyasida (1994 yil 22 sentyabr) so‘zlagan nutqida boshimizdan kechgan 1989-1990 yillarga hayolan qaytib, bosib o‘tilgan yo‘lni to‘g‘ri anglashga da’vat etib aytgan quyidagi so‘zlari beixtiyor hayolga keladi:

- “O‘ylab ko‘ringlar, aziz do‘sstar, o‘sanda biz kim edik?
- O‘sha yillar umuman qanday davr edi?
- Taqdirimiz, erkimiz kimlarning qo‘lida edi?
- Ka’ba deb qayerga sig‘inar edik. Har tong “Assalom” degan madhiya ohanglari ostida kimlarga qulluq qilib uyg‘onardik?
- Tilimiz, dinimiz qay ahvolda edi? Imom Buxoriy, at-Termizi, Xoja Bahovuddin Naqshbandlarning muqaddas hoklariga e’tibor bormidi? Amir Temur, Bobur va boshqa ulug‘ bobokalonlarimizning buyuk nomlari qaysi tuproqlarga qorishib yotgan edi?
- Milliy g‘ururimiz, insonlik sha’nimiz, urf-odatlarimiz qanday tushunchalarga almashtirilgan edi?
- Xo‘s, o‘zimizchi? O‘zimiz kimligimizni bilarmidik? Qanday mo‘tabar zamin, ajdodlarimizning o‘lmas meroslari bilan oziqlangan yer o‘g‘lonlari ekanimizni anglarmidik?
- Aytinlar, o‘sha kezлari O‘zbekistonni dunyoda birov bilarmidi? Birov bizlar bilan hisoblasharmidi? Jahon miyisosida biror kishi bizni nazariga ilarmidi?
- Yurtimiz qanday va qancha beqiyos boyliklar xazinasi ekanidan qay birimiz xabardor edik?

- Go‘yo milliy iftixor bo‘lmish paxta, haqiqatda milliy g‘urur o‘rniga bo‘yunturuq bo‘lib, xalqimizni yalangoyoq qilishdan, boshimizga azob-uqubat, ta’na-malomatdan boshqa nima keltirdi?

- Yana bir bor eslab ko‘ringlar, aziz yurtdoshlarim, kuni kecha emasmidi boshimizni ko‘tarmasdan yashaganimiz? Kremlning har bir imosiga mahtal bo‘lib, yarim qullik holatida kun kechirganimiz?

- Shukurki, Alloh barchamizga shunday qiyin fursatlarda aql-idrok berdi, sabr-matonat ado etdi, bir-birimizga bo‘lgan mehr-oqibatdan ayirmadi” (12-18).

Prezidentimiz ta’kidlaganidek, 74 yil mobaynida O‘zbekiston taqdiri va ta’mnoti Sobiq Ittifoq qo‘lida edi. Sobiq ittifoq bu yerdan mahsulot va xomashyoni olib ketib, bizga suv va havodek zarur narsalarni o‘z ko‘rsatmasi bilan keltirib berar edi.

“Sodda qilib aytganda –degan edi Islom Karimov, XII chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining X sessiyasida 1992 yil 2 va 3 iyulda so‘zlagan nutqida, – paxta va boshqa boyliklarimiz olib ketilardi, don, shakar, yoqilg‘i va boshqa xalq iste’moli mollari, umuman, hayotimizga, iqtisodiyotga va xalq xo‘jaligiga zarur bo‘lgan mahsulotlar olib kelinardi. Mana birgina misol. Sobiq ittifoqi Kanada va Amerikadan har yili 40-50 million tonna g‘alla sotib olardi. Shuning hisobidan O‘zbekistonga ulush berardi. Ittifoq parchalanib ketganidan keyin biz yillik ehtiyojimizga etarli 6 million tonna g‘allani qayoqdan olib kelishni, valyuta topishni o‘ylab rosa sarson-sargardon bo‘ldik.

Bugun ochiq aytaversak bo‘ladi: 1991 yilning oxiri va 1992 yilning boshida ko‘p narsalarda uzilish bo‘lib, juda og‘ir ahvolga tushib, naq ocharchilik ostonasida turar edik” (21-3).

Nimasini aytasiz, boshqa sohalarda ham ahvol og‘ir edi.

Ko‘pgina katta korxonalarimizda ish to‘xtab qolishi mumkin edi. Chunki boshqa mintaqalar va chet davlatlar bilan munosabatlar uzilib qolayotgan edi.

Tashqi siyosatda, tashqi savdoda hech qanaqa tajribaga ega emas edik. Iqtisodiyotimizni mustaqil rivojlantirish uchun qayerdan, kimdan sarmoya olishimiz kerak edi. Qaysi davlat bizga qancha va qanday shart bilan sarmoya va qarz beradi, hali noma’lum edi. Shu bilan birga qarz bergen davlatlar bizning oldimizga siyosiy shartlar qo‘ymaydimi? Birovlardan qarz olib, ularning izmiga tushib qolmaymizmi?

Biz iqtisodiy sohaning ko‘p tarmoqlarida Rossiyaga har tomonlama bog‘liq edik. Yonilg‘i resurslari masalasida, masalan, faqat kerosin,

benzin bo‘yichagina emas. Yana mamlakatimizga olib kelinadigan narsalarning 60-65 foizi Rossiya bilan bog‘liq edi.

Yana bir muhim masala. Bu valyuta masalasi. Bu jihatdan ham biz Rossiyaga bog‘liq edik. Bizda pul zarb qiladigan dastgoh yo‘q. U – Moskvada. Rossiya bizga pulni qanday yetkazib beradi, yetkazib beradimi – yo‘qmi, qancha yetkazib beradi? Qachon, qanday shartlar asosida, qanday talablar qo‘yadi?

Biz nafaqat iqtisodiyot, moliya sohasida, hatto ma’naviy-ma’rifiy sohalarda ham ancha-muncha kamchiliklarni boshimizdan kechirayotgan edik.

Biz ma’naviy qadriyatlarimiz, diniy qadriyatlar, an’analardan judo bo‘lar holatga kelib qolgan edik.

Kishilar ongiga ijtimoiy tenglik tushunchasi kirib qolgan edi. Ya’ni, yaxshi ishlasam ham, yomon ishlasam ham davlat meni boqaveradi, degan mafkura tarqalgan edi.

Prezidentimiz o‘sha davrlarni eslab, bunday deb yozgan edi: “Sir emas, bir vaqtlar Markazning buyrug‘ini kutib-bajarib, tepadan ko‘rsatilgan chiziqdan chiqmaslik odatimizga aylangan edi”.

Goh oshkora, goh zimdan: “Sizlar o‘z-o‘zlarining mustaqil boshqarishga, mustaqil davlat qurishga qodir emassizlar”, “Sizlar mute, qaram millatsizlar”, “Sizlar uchun biz fikrlaymiz, nazariya yaratamiz, amru-farmon beramiz, sizlar esa bajarasiz”, deb miyamizga quyib kelishmaganmi?” (12-274).

Afsuski, Sobiq sovet davrida tariximizni buzib, soxtalashtirib yoritdilar. Ayrim tarixchilarimizning xalqimiz, millatimiz o‘tmishi haqida biron nima yozadigan bo‘lsalar, rus olimlarining nuqtai nazari, qarichi bilan baholab, rus olimlari bir vaqtlar yozib qoldirgan tadqiqotlarga tayanib ish yuritishni ma’qul ko‘rib keldilar.

Sobiq sho‘rolar davrida o‘zbek millati tarixini buzib ko‘rsatish, uni chalkashtirib yoritish, ba’zi sahifalarini umuman ko‘rsatmaslik hollariga yo‘l qo‘yib kelindi.

General Skobelev o‘z imperatoriga murojaat qilib, nima deb yozganini bir eslab ko‘raylik.

“Mahalliy xalq, -deb aytgan edi u, - biz o‘ylagandan ko‘ra madaniyatli ekan. Ularni bo‘ysundira olmayapmiz... bu xalqning o‘tmishda yaratilgan barcha osori-atiqalarini, masjidu-madrasalarini, diniy kitoblarini yer bilan yakson qilibgina, ularning ma’naviyatini so‘ndiribgina o‘z qanotimiz ostiga olishimiz mumkin”.

O‘zligini, tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat olib yurgan xalq aslo yengilmaydi.

Tarix shohid: xalqimiz, elatimiz ne-ne qiyinchiliklarni boshigan kechirmadi. Uzoqqa bormasdan, yaqin o‘tmishni eslab ko‘raylik: sho‘rolar hukmronligi yillarida xalqimiz boshqa dunyodan butunlay uzib qo‘yildi. Etmish yildan ortiq davrda ne-ne ma’naviy, madaniy tazyiq, xo‘rliklarga bardosh berishga to‘g‘ri keldi.

Shu o‘rinda Prezidentimizning quyidagi so‘zlarini eslab ko‘rish kifoya.

“Men aytmoqchi bo‘lgan fikr shundan iboratki, -degan edi u, - ana shunday har tomonlama mudhish, chetdan qaraganda xalqimiz, uning madaniyati, milliy tafakkuri, urf-odatlari, turmush tarzi, hech bir mubolag‘asiz aytish mumkinki, nasl-nasabi yo‘q bo‘lib, ketishi kerak bo‘lgan sharoitda, baribir qator yo‘qotishlar bilan bo‘lsa ham, millatimiz o‘zligini saqlab qololdimi yoki yo‘qmi?” (13-3).

Ming yillar davomida bu ko‘xna yurtimizga ne-ne bosqinchilar bostirib kelmadni, ne-ne azob-uqubatlarni boshimizga solmadni. Ammo xalq o‘zligini saqlab qololdi, o‘zligini yo‘qotmadni.

Mustaqillikka erishgunimizga qadar mamlakatimizda vaziyat og‘ir va murakkab edi. Mustaqillikni qo‘lga kiritgandan so‘ng uni ushlab qolish, mustahkamlash, istiqlolni eplash zarur edi.

Ana shuni hisobga olib, mustaqillikning dastlabki yilidanoq bu dolzarb masalani bosqichma-bosqich, qoqilmasdan puxta o‘ylab turib hal etish talab etilar edi.

Oldimizda turgan muammolarni hal etish, buning uchun nihoyatda puxta, shoshilinch choralar ko‘rish kun tartibida turar edi. Shuni nimadan boshlab, birinchi jabhada nimalarga e’tibor berish, qanday tadbirlarni amalga oshirish zarurligini aniq-ravshan belgilab olish, boshqacha aytganda, zarur rejalarни tuzib olish va shundan keyin ularni izchillik bilan amalga oshira borish yo‘llarini o‘ylab topish lozim edi.

Davlatimiz rahbari bu haqda mustaqillikning dastlabki yilida, avgust-sentyabr oylaridayoq O‘zbekistonning kelajak taraqqiyoti yo‘llarini aniqlab olamiz, deb aytgan edi.

Barcha tarmoqlar va umuman ishlab chiqarish va taqsimlash sohalarida, davlatni va xalqimizni himoya qiladigan jabhalarda, xullas, hamma pog‘onalarni tubdan o‘zgartirish zarur edi. Ularni mustaqillik zaminida qaytadan tuzish talab etilar edi.

Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, Mustaqil O‘zbekiston tug‘ilgan kuniyoq oyoqqa turishga, o‘zi yurishga majbur edi.

Minglab turli savollarga javob izlash va topishga to‘g‘ri kelayotgan edi. Eng avvalo, O‘zbekistonda dastlabki kunlardanoq mustaqil ravishda tashqi siyosat yuritila boshlandi. Tinchlik va hamjihatlik prinsiplari olg‘a surildi. O‘zbekiston iqtisodiy va ma’naviy salohiyatli buyuk davlat ekani anglatib turildi va haqiqat amalda namoyon etila boshlandi.

Tashqi siyosat bilan ichki siyosat uzviy bog‘lab olib borildi. Mamlakat ichkarisida osoyishtalik saqlandi.

Eng muhimi O‘zbekiston mustaqilligining dastlabki kuni dayoq o‘z qadr-qimmatini yuqori tutdi. Ayrim davlatlarga o‘xshab birovlardan qarz so‘rab, sadaqaga qo‘l cho‘zib turmadi.

Qaysi davlatlar bilan aloqa bog‘lamasin, o‘zini teng tutdi va barchadan biz bilan teng turib gaplashishni talab qildi. Siyosatchilar va ishbilarmonlar bilan uchrashganda bor haqiqatni ro‘y-rost aytib qo‘yaqoldi.

“O‘zbekistonning kelajagi porloq, O‘zbekistonning boyliklari behisob, O‘zbekistonning odamlari mehnatsevar, O‘zbekiston bilan halol hamkorlik qilgan insonlar aslo dog‘da qolmaydilar!” (21-6).

Prezidentimizning oqilona siyosati tufayli chet ellik siyosatchilar va iqtisodchilar bu haqiqatga ishondilar. O‘zbekistonga chet el investitsiyalari kela boshladi. Bitimlar tuzildi. Ana shu bitimlarga muvofiq yurtimizga zarur iste’mol mollari va oziq-ovqat yetkazib turildi.

Ayni vaqtda mustaqillikni mustahkamlash uchun muhim boshqa dolzarb masalalar ham birma-bir izchillik bilan hal etila bordi.

Yurtboshimiz aytganidek, har qanday jamiyat va tuzum o‘zini o‘zi himoya qilolmasa, ichki siyosatda ham, tashqi siyosatda ham ko‘ngildagidek natijalarga erisha olmaydi. Shuni hisobga olib, galdagi eng muhim masalalardan biri sifatida milliy xavfsizlik masalasiga alohida e’tibor qaratildi.

Davlatimiz rahbari o‘zining yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan nutqida bejizga bu haqda to‘xtalib o‘tgani yo‘q.

Ozodlikka erishgan kuniimizdanoq milliy xavfsizlikni o‘ylab, bu maxsus tashkilot qaytadan tuzildi. Milliy xavfsizlik xizmati tashkil etildi, mustaqillikni mustahkamlash yo‘lida, taraqqiyotni ta’minlashda uning asosiy vazifalari belgilab olindi.

Prezidentimiz, ularga bu vazifani yuklashdan maqsad nimalardan iborat ekanligini ochiq-oydin ta’kidladi: “betayin chet el kompaniyalari bilan tilni biriktirish, ulardan pora olish va xalqning peshana teri bilan

topilgan boyliklarini chet elga arzon garovga sotish, degan gaplar endi ketmaydi” (21-6).

Islom Karimov o‘zining bu nutqida yaqinda bo‘lib o‘tgan chet el madaniy uchrashuvlari, suhbatlar va ziyofatlar xususida ham qisqacha so‘zlab berdi.

“...Uch mamlakatni – Koreya, Malayziya va Indoneziyani – 27 ming kilometrlik yo‘lni bosib o‘tdik. Jamlab hisoblasa, rosa 26 soat havoda uchibmiz. Borgan uch davlatimizda ham beqiyos hurmatlashga loyiq ko‘rdilar. Bu hurmat – Prizedent Karimovga emas, balki O‘zbekistoniga, o‘zbek xalqiga hurmat, qadimiylar, bugungi ozodligimizga hurmat.

Ochig‘ini aytsam, ana shunday uchrashuvlar chog‘ida kishini qalbi hayajonda titrab turadi. Birovning susti bosmaydi, yo‘q, aksincha, toleimizni, iqbolimizni o‘ylab, beixtiyor ko‘zlarimizga yosh kelib, “Eh yorug‘ dunyoda shunday kunlar ham bor ekan-ku. Mana shunday zamonlar ham kelar ekan-ku!” deb hayolga tushasiz. Vatanimiz O‘zbekistoni Indoneziyaga o‘xshagan salkam ikki yuz million odami bor davlatlar ham tan olarkan-ku, deb, g‘ururlanamiz. Bilasiz Indoneziya – yirik muslimon mamlakati, aholisining 170 millioni muslimlar. Indoneziya rahbari janob Suxarto – Sharqda mashhur siyosatchi. 18 yildan beri oliy mansabda muqim turibdi. Shunga o‘xhash yirik davlat arboblarining O‘zbekistoniga nibatan ehtiromini ko‘rsangiz, o‘ylaymanki, sizlar ham hayojonga to‘lgan bo‘lar edingiz.

Aziz birodarlar, bir eslab ko‘raylik; bundan ikki yil avval, yo‘q boryo‘g‘i bir yil oldin kim bugungi kunni tasavvur etardi? Kim ham bir yil burun O‘zbekiston bayrog‘ini butun dunyo tan olishini o‘ylar edi!

Bu ne buyuk baxtki, bugungi kunda dunyo xaritasida O‘zbekiston davlati paydo bo‘ldi! 21-8,9).

Janubiy Koreyaga bo‘lgan safar ham barakali bo‘ldi. Safar chog‘i O‘zbekistoniga qiziqish katta ekanligi yana bir bor ko‘zga yaqqol tashlandi.

Shu safar tufayli O‘zbekiston keyinchalik o‘z avtomobil zavodiga ega bo‘ldi, avtomobil chiqaradigan 28 davlatga qo‘sildi.

Janubiy Koreyaning eng kuchli, milliard-milliard sarmoyaga ega DEU degan kompaniyasi Andijon viloyatining Asaka shahrida avtomobil zavodi qurib beradigan bo‘ldi.

Tez orada dastlabki vakillari kelib ketdi. 4 iyul kuni kompaniya rahbari janob Kim mamlakatimizga tashrif buyurdi. U kishini Prizedentimiz o‘zi Asakaga olib borib ko‘rsatdi.

Bu zavod yurtimizga taraqqiyotimiz uchun juda katta imkoniyatlar ochib berishi kerak edi. Asakada zavod qurilsa, u yerda yengil mashina, kichik avtobuslar, 2 tonnali yuk ko‘taradigan, bizning fermerlarimizga juda zarur yuk mashinalari chiqaradi. Koreyalik avtomobilsozlar 1,5 - 2 yil ichida ana shunday zavod qurib beramiz, deb va’da berishdi.

Istanbul shahrida Jahon iqtisodiy anjumanining navbatdagi uchrashuvida qatnashgan O‘zbekiston delegatsiyasi uchrashuvdan keyingi brifinlar va muxbirlar bilan bo‘lgan suhbatlarda qator davlat arboblari, siyosatchilar, iqtisodchilar ish bilarmonlar bilan uchrashdi. Bu suhbatlar davomida ular “O‘zbekiston vakillarini o‘rab olib, “Biz O‘zbekistonga qanday borishimiz mumkin? Qanday qilib sizlardagi ishbilarmonlar bilan, iqtisodchilar bilan uchrashishimiz mumkin?, - degan savollarni berishdi” (21-9).

Istanbuldagи uchrashuvda “RENO”, “SITROEN”, “MERSEDES” kompaniyalarining vakillari ham hamkorlik qilish istagini bildirdilar. “Mersedes” kompaniyasi yirik avtobuslar chiqaradigan katta zavod qurib berish istagini bildirdi.

Chet el safarlarida kredit masalalari ham hal qilindi. Chunonchi, Indoneziyadan taxminan 100 million dollar kredit olindi. Shu bilan birga ulardan dunyodagi eng oliy navli choy, guruch olish mo‘ljallandi. Malayziyadan palma yog‘i va boshqa mahsulotlar keltirildi.

Xullas, bu safarlardan keyin dunyo xalqlari bizning mustaqil O‘zbekistonimizni tanidi va tan bera boshladi.

Erishilgan bu ulkan yutuqlar mustaqillikning dastlabki yillaridayoq olib borilayotgan tashqi va ichki siyosatning uzviy bog‘lab olib borishimizning eng muhim samarasi, hammamizning baxtimiz, yutug‘imiz edi.

Albatta, hali qiyinchiliklar va kamchiliklar ko‘p. Buni respublika rahbariyati juda yaxshi bilar edi. Shu bois u iqtisodiy tanglik davrida nizo chiqmaslikni o‘ylab, juda puxta ish olib bordi.

Mustaqillikning dastlabki bir-ikki yilida mustaqillikni ushlab qolish, mustahkamlash yo‘lidagi eng muhim, eng zarur tadbir-choralar ko‘rildi. Sobiq tuzilmalar tubdan o‘zgartirila boshlandi. Ilk samaralar qo‘lga kiritildi. Endilikda taraqqiyot va yangilanish yo‘lidan dadil qadam tashlash zarur edi.

Bu sohada O‘zbekiston o‘ziga xos va mos yo‘lni tanladi. Prezidentimiz tashabbusi bilan ishlab chiqilgan va amalga oshirilayotgan yo‘ldan bordi.

Xo'sh, bu qanday yo'1 edi? Uning mazmuni va mohiyati nimadan iborat?

Bu haqda Islom Karimov o'zining XII chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining X sessiyasida 1992 yil 2 va 3 iyulda so'zlagan nutqida bat afsil to'xtalib o'tdi.

Ular bilan mukammal tanishib, o'z yo'limizni to'g'ri tushunib olish uchun talabalar Prezidentimizning bu nutqini sinchkovlik, o'ta diqqat bilan puxta o'qib va uqib olishlari kerak.

Xo'sh, yurtboshimiz bu masala xususida o'z nutqida nimalarga e'tibor qaratdi?

Birinchidan, bozor iqtisodiyotiga o'tish uchun nimalarni hisobga olishimiz zarurligini ta'kidladi.

"Bozor iqtisodiyotiga o'tar ekanmiz, - dedi u bu nutqida, - milliy-tarixiy turmush tarzimizni, xalqimiz urf-odatlarini, an'analarimizni, kishilarimizning fikrlash tarzini hisobga olamiz"(21-11).

Nima sababdan birinchi galda shunga e'tibor qilishimiz zarurligini ro'y-rost tushuntirib ham berdi.

Avvalo, o'zbek xalqi azal-azaldan jamoa-jamoa bo'lib, bir-biriga yelkadosh, madadkor, suyanchiq-tayanchiq bo'lib yashab kelgan. Bir-birining holidan xabar olib, o'zaro ahillikda, yaqinlikda bo'lgan. To'yda ham, azada ham yonma-yon turgan, xursandchilagini ham, g'amtashvishlarini ham birgalikda, bahamjihatlikda baham ko'rgan. Bir-biriga hurmat, izzatni kanda qilmay, beva-bechoralar, yetim-yesirlarning boshini silab kelishgan.

Bepisandlik, beparvolik, o'zgalarni mensimaslik illatlari ularga mutlaqo yot bo'lgan. Bizgacha, millati, dini va e'tiqodidan qat'iy nazar, hammaga bir xilda muomala qilib kelgan.

Xalqimiz ilm va ma'rifatga intilib yashagan. Ustozlarga ehtirom, izzat-hurmat nihoyatda baland bo'lgan. Har qanday mehnatdan qochmagan, mehnatsevar bo'lgan, suyagi mehnat bilan qotgan.

Ikkinchidan, mustaqil davlat siyosatini belgilashda islom dinimiz albatta nazarda tutildi.

"Negaki, din turmush tarzimizga, ma'naviy qadriyatlarimizga, kishilar ongiga o'zining o'chmas muhrini bosgan. Xudoga qarshi kurashganlarning ahvoli nima kechganini ko'rdik. Endi bu xil besamar va quruq inkor yo'li yaramaydi. Dinga nisbatan ijobjiy munosabat tashqi siyosatimizda, ayniqsa, musulmon davlatlari o'zaro aloqalarimizni kengaytirishda katta ahamiyatga ega"(21-12).

Uchinchidan, bozor iqtisodiyotiga o‘tishda mamlakatimizdag‘i demokratik vaziyatni hisobga olmay ish qilib bo‘lmaydi.

Bu yerda xalqimizning 60 va hatto undan ortiq foizi qishloq joylarda istiqomat qilishi va ularning asosiy qismi dehqonchilik sohasida ishlashini hisobga olish zarur.

Shu bilan birga aholining salkam yarmini o‘smirlar va bolalar tashkil etadi. O‘sish sur’ati juda katta. Mehnat resurslarining o‘sish darajasi ham shunga yarasha.

Yana bir jihat, o‘zbeklarning joydan – joyga ko‘chib yurishga hushi yo‘q. Hech qaysisi o‘tirgan joyinisovutgisi kelmaydi. Demak, mehnat resurslari va ishlab chiqarish korxonalarini joylashtirishda aynan shu holni e’tibordan chiqarmaslik kerak.

Binobarin, qishloq joylarda, rayon markazlarida yangi, ixcham, zamonaviy korxonlarni qurish zarur. “Odamlarni ishxonaga emas, ishxonani odamlarga yaqinlashtirish zarur” (21-12,13).

To‘rtinchidan, O‘zbekiston – ko‘p millatli mamlakat. Ona yurtimizda 130 dan ortiq turli millat, elat vakillari o‘zaro ahillikda istiqomat qiladi. Albatta, ularning asosiy ko‘philagini o‘zbeklar va boshqa tub xalq vakillari tashkil etadi. Shunday ekan, biz ana shu millat va elat vakillari, ularning madaniyatları va an'analarini rivojlantirish haqida ham g‘amho‘rlik qilishimiz zarur.

Beshinchidan, O‘zbekistonning geosiyosiy mavqeい juda qulay. “Qadim karvon yo‘llari bizning yerimizdan o‘tgan. Bizning ko‘hna shaharlarimizda va bozorlarimizda yuzlab lahjalar jaranglagan. Dunyo mamlakatlarining o‘zaro savdo va madaniy aloqalarida o‘zbek tuprog‘i ko‘prik vositasini o‘tagan. Bugungi kunda ham O‘zbekiston O‘rta Osiyoda yetakchi o‘rin tutadi. Uning avtonom energetika va suv sistemalari bor. Ko‘p jihatlardan mintaqalari respublikalari o‘rtasida bog‘lovchi rolini o‘ynaydi va xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikni rivojlantirishda faollashib bormoqda”(21-13).

Oltinchidan, O‘zbekistonning o‘ziga xos tabiiy iqlim shart-sharoitlari mavjud. Suv resurslari hisobli. Holbuki, O‘zbekistonda suvni ko‘p talab qiladigan ekinlar yetishtiriladi.

Respublikada nafaqat o‘zimizda, butun O‘rta Osiyoda, balki butun dunyoda muhim strategik mahsulot hisoblangan paxta yetishtiriladi. O‘zbekiston undan ishlanadigan mahsulotlarni eksport qilishda yetakchi o‘rin tutadi.

Faqatgina paxtani emas, balki meva-cheva, sabzavot, pilla va boshqa mahsulotlarni ham chet ellarga eksport qilyapmiz.

Ettinchidan, O‘zbekiston o‘zining siyosiy va iqtisodiy mustaqilligini ta’minlash uchun yetarli salohiyatga ega.

“Yer usti va ostidagi qimmatbaho boyliklarimiz yurtimizning dunyo bozoriga chiqishini ta’minlovchi sohalarni tubdan o‘zgartirish va rivojlantirish imkonini beradi.

Boshqacha aytganda, biz tillaning ustida o‘tiribmiz. Afsuski, Sobiq Markaz olib borgan siyosat oqibatida O‘zbekiston faqat xomashyo berishdan nariga o‘tmadi. O‘zida bor narsani o‘zi ishlata olmadi”(21-13).

Sakkizinchidan, hozircha biz rubl tazyiqida yashayapmiz. Endilikda iqtisodiy munosabatlar o‘zaro tenglik va manfaat asosida amalgam shiriladi. Bu sohada ikki tamonlama manfaatni ko‘zlab ish yuritishga to‘g‘ri keladi. Muhim strategik ashyolarni ilgarigidek suvtekinga berib yubormaslik zarur. Mamlakatlar bilan oldi-berdi jarayonida endilikda yangidan ishlab chiqilgan mezonlar asosida ish yuritilishi lozim. Hisoblar xalqaro narxda tashkil etilgan, biz yutqazmaymiz.

Sobiq Sovet respublikalari bilan xo‘jalik aloqalarini birdaniga uzib tashlay olmaymiz. Shunday qilish shart ham emas.

To‘qqizinchidan, ijtimoiy ong, ijtimoiy psixologiya masalasini hal eta borish zarur.

“Bozor munosabatlariga o‘tishda kishilarimizning kayfiyatini hisobga olish nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Bu borada dastlabki vaqlarda o‘tgan davrdan qolgan muayyan ijobiy tajribalardan samarali foydalanish zarurligini zinhor unutmasligimiz kerak.

O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li dasturi ilk bor sobiq sovet ittifoqi degan davlat mavjud bo‘lgan bir paytda tuzilgan edi. Nimaiki ish bo‘lsa, sobiq ittifoqning borligi, o‘sha paytda mavjud bo‘lgan o‘zaro iqtisodiy aloqalar hisobga olingan holda rejalashtirilgan edi” (21-18,19).

Sobiq ittifoq parchalanib, yo‘q bo‘lib ketdi. Uning o‘rniga yosh mustaqil milliy davlatlar tashkil topdi.

Ayrim birodarlar Karimovning aniq dasturi yo‘q, deb jar solishdan uyalishmadidi. Aslida, aniq dastur bor! Bo‘lganda ham ilmiy-nazariy jihatdan tola asoslangan dastur mavjud edi.

Yangi dastur bilan eskisining orasida qanday farq bor?

Farqi, birinchidan, unda davlat mustaqilligi to‘liq aks etganligi, ikkinchidan, bu dastur xomhayol gaplardan iborat bo‘lmay, jamiyat taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlarini belgilab bergen.

Xo‘sh, ustuvor yo‘nalishlar nimalardan iborat?

1. Iqtisodiy siyosatimizda dehkqonchilikka va umuman qishloq hayotiga yetakchi tarmoq sifatida qaraladi.

2. Rubl amal qiladigan sharoitda iste'mol bozorini himoya etish zarur.

3. Bozor infrastrukturasini shakllantirish lozim. Avvalo maishiy va boshqa turdag'i xizmat ko'rsatish hamda savdo sohasidan boshlab, keyinchalik asta-sekin banklarni, birjalarni auditorlik firmalari, sug'urta kompaniyalari qamrab oladi.

Mulkchilikning barcha shakllariga keng imkoniyatlar beriladi. Shaxsda tashabbus va ishbilarmonlik har tamonlama qo'llab-quvvatlanib, ularga keng yo'l ochib beriladi.

4. Iqtisodni shakllantirish uchun korxonalarни xususiylashtirish ishiga jiddiy kirishiladi.

5. Ishlab chiqaruvchining iste'molchiga nisbatan zo'ravonligi tugatiladi. Monopoliyaga qarshi choralar ko'rildi. Erkin raqobat shart-sharoitlari yaratib beriladi.

Odamlarga, xo'jaliklarga iqtisodiy erkinlik beriladi.

Bozor munosabatlari – bu iqtisodni o'nglash, jamiyatni yangilash yo'li.

“Demokratik davlat qurmoqchi ekanmiz, eng avval, ijtimoiy adolat prinsiplariga sodiq bo'lib qolishimiz kerak. Agar bozor yetim-yesirlarning, qariyalar va kambag'al - nochor odamlarning ko'z yoshi evaziga quriladigan bo'lsa, bunaqa bozorning uyi kuysin.

... Bozor iqtisodiyoti deb inson ma'naviyatini unutish gunoh bo'ladi. Nuqlul pul va foyda ketidan quvsakda, ammo odamlarimiz ruhan qashshoq bo'lib qolishsa, bunday jamiyatning hech kimga keragi yo'q” (21-26).

O'zbekiston jamiyatining rivojlanishida erishilayotgan yutuqlarni “O'zbek modeli”da belgilab berilgan tamoyillarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Mustaqillik tufayli jamiyat iqtisodiy negizi yagona kommunistik g'oyaning ta'siridan xalos etilganligi iqtisodiyotni siyosatdan ustuvorligini amalda ta'minlanayotganligi iqtisodiy hayotdagi o'zgarishlarni muhim omili bo'lib xizmat qilmoqda. Mustaqillik tufayli davlatga qarash tubdan o'zgardi. I.Karimov asarlarida davlat bosh islohotchi ekanligi alohida ta'kidlanadi. Natijada sobiq sovet davrida amal qilgan “davlat-jamiyat-inson” tizimi o'rnida “inson-jamiyat-davlat” tizimiga o'tilganligi bilan ahamiyatlidir. Bu orqali inson manfaatlarining davlat manfaatlaridan ustuvorligi aniq belgilab qo'yildi. Davlatning hukmronligiga barham berildi. Davlat bosh

islohotchi sifatida jamiyat rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan uning qonuniy asoslarini yaratishda hamda qabul qilingan qonunlarning ijrosini nazorat etishda bosh islohotchi rolini o‘ynamoqda. “O‘zbek modeli”da qonun ustuvorligining muhim tamoyili hisoblanadi, unga ko‘ra qonun oldida barchaning barobar ekanligi o‘zining aniq ifodasini topgan. O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarini hisobga olgan holda “kuchli ijtimoiy siyosat” tamoyiliga amal qilib kelinmoqda. Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan qatlamlari davlat tomonidan himoya qilinmoqda va ijtioiy qo‘llab-quvvatlanmoqda. “O‘zbek modeli”da islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish tamoyili jamiyatning tadrijiy rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi. U turli inqilobiy o‘zgarishlarni amalga oshirishni e’tirof etmaydi. Mustaqillik yillarida erishilgan yutuqlarda uning natijalarini ko‘rish mumkin.

Shunday qilib, birinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlarida jamiyat rivojlanishi to‘g‘risidagi g‘oyalar va qarashlar yangicha mazmun-mohiyatga ega bo‘lgan konseptual g‘oyalar asoslاب berildi. U an’anaviy qarash va yondashuvlardan mohiyati jihatidan farq qiladi;

Ikkinchidan, jamiyat rivojlanishi obyektiv qonuniyatlarga ega. Uni ifodalovchi omillarni aniqlash jamiyat rivojlanishini to‘g‘ri belgilashga xizmat qiladi. Rivojlanish jarayonlarida biron-bir omilni mutlaqlashtirmaslikka, uni ayrim siyosiy va yagona mafkura, maqsadlardan xolis bo‘lishga yordam beradi;

Uchinchidan, jamiyat rivojlanishi muayyan taraqqiyot bosqichlarini o‘z ichiga oladi. O‘zbekiston jamiyati rivojlanishida bu tarqqiyot bosqichlari ijtimoiy hayot sohalarida turgan turli vazifalarni amalga oshirish bilan bir-biridan farq qiladi;

To‘rtinchidan, jamiyat rivojlanishi turli xil rivojlanish modellariga ega bo‘ladi, bu demokratik prinsiplarga to‘la mos keladi.

2-mavzu: Yangilanish va taraqqiyot sari

Reja:

1. “O‘zbek modeli”.
2. Demokratiya va iqtisodiyotni rivojlantirish.
3. Asosiy e’tibor – qishloqqa. Yer – egasiga.

Yurtboshimiz tashabbusi bilan ishlab chiqilgan va mamlakatimizda izchillik bilan, bosqichma-bosqich asosida amalga oshirib borilayotgan dastur O‘zbekiston uchun to‘g‘ri tanlangan va unga mos va xos dastur ekanligi taraqqiyotning dastlabki yillardanoq yaqqol ko‘zga tashlana boshladi.

O‘zbekiston rahbari, hukumat shu dastur asosida juda ko‘p eng o‘ta muhim, Islom Karimov ta’biri bilan ayganda, “eng o‘tkir masalalarni tezroq hal etishga astoydil kirishdi. Zero, bu davrda mavjud bo‘lgan mushkul ahvoldan qutilishning birdan-bir iloji edi” (8-15).

O‘zbekistonning o‘z yo‘li juda ko‘p mamlakatlar, mutaxassislar, jurnalistlarni qiziqtira boshladi. Prezidentning “O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li” kitobining nashr etilishi O‘zbekiston tanlagan yo‘lni bilish, tushunishga bo‘lgan qiziqishni oshirib yubordi. Ko‘pchilik bu yo‘l haqida so‘zlab berish iltimosi bilan Prezidentimiz Islom Karimovga murojaat qila boshladi.

Chunonchi, uning “Komsomolskaya pravda” savollariga javoblari diqqatga sazovordir. Suhbatdosh V.Froninning “Islom Abdug‘aniyevich, O‘zbekistonga nisbatan siz “o‘z yo‘limiz” degan so‘zni tez-tez takrorlaysiz, “O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li” kitobini nashr ettirdingiz. Uning mazmunini takrorlamasdan, asosiy qoidalari haqida qisqa gapirib bera olasizmi, degan savoliga qanday javob bergenligini bir eslab ko‘raylik.

“Avvalo, - dedi u, - iqtisodiyotning siyosatdan ustuvorligi va bunda iqtisodiyot mafkuradan holi bo‘lishi lozim. Ikkinchisi: Hatto eng dono va iste’dodli akademiklar va amaliyotchilardan iborat biror guruh emas, balki, davlat bosh islohotchi bo‘ladi, deb hisoblayman. Bir jamiyat ketib, uning o‘rnida boshqa jamiyat quriladigan o‘tish davrida ayni davlatning o‘zi boshqaruv vositalarini aslo qo‘ldan chiqarmasligi lozim.

Yangi uy qurmay turib, eskisini buzma, deyishadi bizda. Har qanday holda ham biz o‘zimizni boqib, to‘ydirib kelgan narsalarni vayron qilishga berilib ketishga haqqimiz yo‘q. Biz birdaniga eski qora kunlarni tan olmay qo‘ydik, yangilari esa hali yo‘k. Paydo bo‘lganlari ham

mutlaqo amal qilmayapti. Mana endi men o‘z dasturimning uchinchi bandiga yaqinlashdim, – bu band qonun, aniqrog‘i qonunga itoatkorlikdir. Qonun hamma narsadan ustun turishi kerak. Bizni uzoq vaqt davomida boru, lekin ularga rioya qilish shart emas, degan ruhan tarbiyalab kelishdi. Bizda qonunni hurmat qilishdek oddiy tuyg‘uning o‘zi yo‘q. Shunday ekan, biz yangi jamiyatga qanday qilib o‘tmoqchimiz? Zo‘ravonlik, jinoyatchilik po‘rtanasini qanday qilib bostirishga umid qilamiz? Insonning huquqlarini va uning qadr-qimmatini qanday himoya qilamiz? Xususiy mulkni qonun himoya qilmasa, fermerlarning uylariga o‘t qo‘yish boshlanadi. Demokratik davlat doimiy millatlararo va ijtimoiy mojarolar maydoniga aylanib ketadi. Xullas, men uchun eng muhimi – qonuniylikni hurmat qilishdir”.

Islom Karimov suhbatini davom ettirib, O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li qoidalari haqida gapirib berdi. Uning fikricha, to‘rtinchisi, kuchli ijtimoiy siyosat. Bu qoidaning asl mohiyatini tushuntirib berish uchun qanday fikrlarni aytdi:

“... O‘zbekistonda bir kishi o‘zining ish haqi bilan olti-yetti kishilik oilasini boqadi. Rossiyada bunday emas. Aytmoqchi, o‘tgan yili Rossiya aholisi 70 ming kishiga kamaydi. Bizda esa 550 ming kishiga ko‘paydi. Shunday ekan, aytinchchi, Boltiqbo‘yida, Ukrainada va O‘rta Osiyoda bir xil ijtimoiy siyosat o‘tkazsa bo‘ladimi?”

Mening nazarimda, har bir mintaqaning uziga xos xususiyatlarini: nufuzi , aniq sharoiti va voqeliklarini hisobga olmay turib, bozor munosabatlariaga o‘tishning biror modeli to‘g‘risida gapirib bo‘lmaydi.

Basharti biz o‘zimizning sharoitimizda, aytaylik, ko‘p bolali oilalarga, qariyalarga, bechorahollarga madad bermasak, - hamma narsa portlab ketadi, hech qanday bozor yoki ishbilarmonlik bo‘lmaydi”.

Prezident beshinchi qoida xususida to‘xtalib, bozor munosabatlariaga bosqichma-bosqich o‘tish lozimligiga ishonchim komil, deydi. Uning ta’kidlashicha, soxta va inqilobiy sakrashlarsiz, maqsad sari qadambaqadam harakat qilish kerak. Taraqqiyotning evolyutsion yo‘li biz uchun to‘gri va sifatli y o‘l. O‘zbekistonning o‘z istiqlol yo‘li Prezidentning yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan kitobida keng va mufassal tushuntirib berilgan. Talabalar O‘zbekistonning o‘z yo‘li xususida aniq tasavvurga ega bo‘lishlari uchun mazkur asar bilan yaqindan va mukammal tanishib, o‘rganib borishlari zarur. Ushbu kitob keyinchalik “O‘zbek modeli” deb tan olingan o‘zimizga xos, o‘zimizga mos taraqqiyot yo‘limizni yaxshi o‘rganib o‘qib olishimiz uchun eng muhim va qimmatli dasturil amaldir.

O‘z istiqlol yo‘limizni o‘rganishda Prezidentning 1993 yil avgustida chop etilgan “O‘zbekiston – bozor munosabatlariga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li” kitobi juda katta ahamiyatga ega. Bu kitobda o‘tish davrida hal etilishi lozim bo‘lgan qator g‘oyat murakkab ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni hal etish zaruriyati va imkoniyatlari, bu sohada amalgalashiriladigan dolzarb masalalar yechimi aniq-ravshan ko‘rsatib berilgan.

Unda ko‘rsatilishicha, avvalo, yakkahokimlik tizimining illatlarini zudlik bilan tugatish, boshqaruvning ma’muriy-bo‘yruqbozlik uslublarining va deduktiv rejlashtirishning salbiy oqibatlarini tugatish, iqtisodiy va moliyaviy vaziyatning barqaror bo‘lishini ta’minlash zarur. Shuningdek, respublika iqtisodiyotining tarmoq va hududiy tuzilmasini tubdan qayta qurish kerak. Bundan tashqari ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantirish va joylashtirishda yo‘l qo‘yilgan nomutanosibliklarni tugatish talab etiladi. Ayni vaqtda xalq xo‘jaligining xomashyoga yo‘naltirilganligidan mutlaqo voz kechish, yangi mustaqillikdan iborat iqtisodiy qaramlik zanjirlarini parchalab tashlash lozim bo‘ladi (21-278).

“Eng muhimi - ijtimoiy larzalarsiz, qat’iyat va izchillik bilan bozor munosabatlariga o‘tish, jamiki kuch – qudrat va boyliklardan samarali foydalanishni, xalq xo‘jaligining barqaror rivojlanishini, respublikaning turmush darajasi yuksak bo‘lgan, iqtisodiy taraqqiy etgan millatlar qatoriga chiqib olishini ta’minlaydigan qudratli iqtisodiy negizni vujudga keltirayotgan davlatchilikning mustahkam poydevorini barpo etish kerak” (21-278,279).

O‘zbekistonda yangi jamiyat qurishning eng muhim sharti – iqtisodiy negizni barpo etish va iqtisodiy islohotlarni amalgalashirishdir. Buning uchun iqtisod mafkuradan butunlay holi etilishi, ya’ni siyosiy maqsadlarga erishish vositasi bo‘lmasligi shart. Iqtisodiyot mafkuraviy tazyiqlarsiz, o‘ziga xos ichki qonunlarga muvofiq rivojlanishi lozim.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish – obyektiv zaruratdir. Tartibli asosga qurilgan bozor xalqning ijodiy va mehnat imkoniyatlarini ro‘yobga chiqaradi, tekinxo‘rlik yo‘qoladi, tashabbuskorlik va ishbilarmonlik kuchayadi, manfaatdorlik va xo‘jayinlik, egalik tuyg‘usini qayta tiklashga imkon beradi, mahsulot ishlab chiqaruvchining zo‘ravonlik qilishiga yo‘l qo‘ymaydi, ishlab chiqarishni iste’molchi manfaatlariga bo‘ysundira oladi.

Bozor munosabatlari joriy qilingan yurtda odamlar yangilikka intiladigan bo‘lib qoladilar, ilm-fan va texnikaning eng ilg‘or yutuqlarini dadil va tez joriy etishga harakat qiladilar, millatning madaniy an’analari uyg‘unlashadi.

Bozor tabiatan ijtimoiy yo‘naltirilgan bo‘ladi. Ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotida:

- yuridik va jismoniy shaxslarning ishbilarmonlik faoliyatini rivojlantirish uchun konstitutsiyaviy, qonuniy va huquqiy kafolatlar beradi, erkin bozor **kon'yukturasi** rag‘batlantiriladi;
- mulkning barcha turlari hamda xo‘jalik yuritishning barcha shakllari yuridik teng huquqli bo‘ladi;
- iqtisodiy munosabatlар sub'ektlari faoliyati keng darajada erkinlashadi;
- umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi hamda iqtisodiy munosabatlarda milliy an'analar, urf-odatlar, xalq turmush tarzi to‘la hisobga olinadi;
- insonning hayot faoliyati va uni rivojlantirish uchun zarur munosib shart-sharoitlar, ishonchli ijtimoiy kafolatlar, aholi turmush darjasiga og‘ishmay oshib boradi;

O‘zbekiston jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallaydi, xalqaro mehnat taqsimotida teng huquqlilik hamda o‘zaro manfaatdorlik asosida faol ishtirok eta oladi.

Bozor mexanizmlarini ishga solish uchun quyidagi ishlar amalga oshirilishi zarur:

- mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish siyosatini o‘tkazish, ko‘p ukladli iqtisodiyotni shakllantirish;
- bahoni bosqichma-bosqich erkin qo‘yish, monopoliyachilikka qarshi qattiq siyosat yuritish, davlat korxonalari faoliyatini tijorat zaminida tashkil etish;
- bozorlar (tovar, moliya, sarmoya, ishchi kuchi, texnologiyalar va boshqalar) hamda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshira oladigan idoralarni barpo qilish, bozor infrastrukturasi ni shakllantirish, bozor sharoitlarida ishlay oladigan kadrlarni tayyorlash;
- aholini ijtimoiy himoya etishning kuchli mexanizmini joriy etish, huquqiy ijtimoiy kafolatlarni ta’minlash (21-306).

Bozor iqtisodiyotiga o‘tishda davlat bosh islohotchi bo‘lishi shart. U iqtisodiyot va ijtimoiy turmushning hamma sohalarini o‘zgartirish rejalarini tuzishi va uni izchillik bilan amalga oshirishi zarur.

O‘zini o‘zi tartibga solib turadigan bozor bo‘lmaydi. Ammo ijtimoiy jihatdan yo‘naltirilgan bozor – davlat tomonidan tartibga solib turadigan bozor hisoblanadi. Davlat iqtisodiy faoliyatning huquqiy asoslarini o‘ziga xos “bozor shart-sharoitlari”ni yaratadi va tasdiqlaydi.

-bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida iqtisodiy erkinliklarning kafolati bo‘ladi.

-asosiy maqsad yo‘nalishlarini ishlab chiqish, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning strategik yo‘lini belgilash va bu yo‘lni o‘tkazish yuzasidan taktik qarorlar qabul qiladi.

-ijtimoiy muammolarni hal etishda, aholini ijtimoiy himoyalashning samarali va aniq - ravshan tizimini vujudga keltirishda davlat katta o‘rin tutadi.

-ishbilarmonlik tuzilmalarining vujudga kelishi va rivojlanishiga yordam beradi.

-bozor iqtisodiyotiga o‘tish – tamoman yangicha xo‘jalik yuritish tizimini joriy etish demakdir. Bu tizim bir qancha bosqichlardan iborat uzoq davrni talab etadi.

Bir tizimdan ikkinchisiga asta-sekin, evolyutsion ravishda o‘tish zarur. Buning uchun avvaliga tegishli qonunlarni qabul qilish, barcha shakldagi mulkchilikning teng huquqlilagini e’lon qilish, qonunlarning amalga oshishini ta’minlaydigan chinakam vositalarni yaratish muhim.

Bir so‘z bilan aytganda, bozor iqtisodiyotiga izchillik bilan bosqichma-bosqich borish zarur. O‘zbekistonning bozor munosabatlariga o‘tish yo‘lining o‘ziga xosligi ham ana shunda.

Kishilar tafakkuri o‘zgarishi zarur. Ularni katta o‘zgarishlarga ruhan tayyorlash lozim.

Ijtimoiy yo‘naltirilgan madaniy-ma’rifiy bozor xo‘jaligini tegishli ravishda huquqiy jihatdan ta’minalash shart. Uning qonunchilik asosini yaratish talab qilinadi. Ammo huquqiy asosni shakllantirish bu uzoq davom etadigan, murakkab jarayon. Bozor munosabatlari qonunga bo‘ysundirilishi kerak. Qonun – ustuvor bo‘lishi zarur. Qonun oldida hamma teng.

Aholini ijtimoiy himoyalash hech kechiktirib bo‘lmaydigan, eng ustuvor vazifalardan biridir.

Prezidentimiz o‘zining mazkur asarida bu masalani juda mukammal, aniq-ravshan yoritib bergen. Bu sohadagi barqaror muhim omillar xususida alohida to‘xtalib o‘tadi.

Yurtboshimiz bozor munosabatlarini shakllantirishning yangi bosqichida ijtimoiy siyosatning asosiy yo‘nalishlarini yaqqol ko‘rsatib berdi.

Pirovard maqsad yurtimizda yashayotgan millionlab oilalar uchun munosib turmush darajasini yaratib berishdan iboratdir.

Ikkinchি masala. Mustaqillikka erishilgandan keyin o‘tgan davrda iqtisodiy islohotlarni hayotga tatbiq etish uchun nazariy va amaliy dasturlarni ishlab chiqish bilan shug‘ullanildi.

Bu vaqt ichida Sobiq Ittifoq o‘rnida tarkib topgan mustaqil davlatlardan farqli o‘laroq, iqtisodiyotimizda katta o‘pirilishlarga va qulashlarga yo‘l qo‘yilmadi.

Iqtisodiyotimizda ahvol barqaror bo‘lib turibdi. Ishlab chiqarish sohasida dastlabki yutuqlar qo‘lga kiritilmoqda. Sanoat mahsuloti 1994 yilning yanvar oyiga nisbatan 20 foiz, fevralga nisbatan 19 foiz ko‘paydi. Byudjetdagi kamomad yalpi ichki mahsulotning 4,8 foizini tashkil etdi, aniqroq aytganda, chamalangan darajadan ham ozroq bo‘ldi. Sanoatning ayrim tarmoqlarida ham muayyan muvaffaqiyatlarga erishildi. Yengil va oziq-ovqat sanoat mahsulotlari, jumladan, un, yorma va omuxta em ko‘proq ishlab chiqarila boshlandi. Shu bilan birga un, non, o‘simplik yog‘i, margarin va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ham ko‘paydi. Ilgari boshqa davlatlardan sotib olinayotgan bir qator mahsulotlar endi o‘zimizda ishlab chiqarilmoqda. Yana shuni mammuniyat bilan aytish mumkinki, elektr energiyasi, neft va gaz qazib olish, neftni qayta ishlash, ko‘mir konchiligida ham mahsulot hajmi ancha ortdi.

Bir qator viloyatlarda yangi, katta qurilishlar amalga oshirilmoqda. Samarqandda toza spirt zavodi, Xorazmda qand zavodi, Buxoroda neft mahsulotlarini qayta ishlash zavodi qurilmoqda.

Ayni vaqtda temir yo‘l, avtomobil yo‘llari, turli kommunikatsiya inshootlarini qurish sohasida ham o‘zgarish ro‘y bermoqda.

Agrar sohada ham ahvol ancha yaxshi. G‘allazorlar ikki baravar ko‘paydi. Yangi yerlarni o‘zlashtirish, obodonchilik ishlari keng ko‘lamda davom etmoqda.

Ijobiy o‘zgarishlar nafaqat moddiy hayotimizda, ayni bir vaqtda ma’naviy hayotimizda ko‘zga yaqqol tashlanmoqda. Quvonchlisi shuki, odamlarning ruhiyati, dunyoqarashi, mulkka va mehnatga munosabati o‘zgarmoqda. Ishbilarmonlik va tadbirkorlikka intilish boshlandi.

Bundan tashqari uy-joylarni xususiy lashtirish, savdo, mahalliy sanoat va xizmat ko‘rsatish sohalaridagi xususiy lashtirish jarayoni qizg‘in davom etmoqda. Ayrim yirik korxonalar birma-bir hissadorlik korxonalariga aylantirilmoqda. Moliya va bank tizimi qayta tuzilmoqda.

Eng katta, eng salmoqli yutug‘imiz – bu o‘zbek xalqining ajralmas huquqi – o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqi ro‘yobga chiqarildi. Muqaddas orzu ushaldi. O‘zbekiston tinch, parlament yo‘li bilan

o‘zining haqiqiy davlatchiligiga erishdi. Xalqimiz yurtimizdagи beqiyos boylikning abadul-abad haqiqiy egasi bo‘lib qoldi.

Respublikada demokratik huquqiy jamiyat asoslari ongli ravishda vujudga keltirilmoqda.

Demokratik jamiyat qurish vazifalarini amalga oshirish bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish vazifalarini o‘z ichiga oladi hamda uning muhim sharti hisoblanadi. Ya’ni biz demokratik jamiyatni huquqiy davlatsiz va fuqarolik jamiyati institutlarisiz tasavvur eta olmaymiz. Shuning uchun ham I.A.Karimov huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini demokratik jamiyatning ikki qanoti yoki uning muhim sharti ekanligini alohida ta’kidlaydi.

Huquqiy davlatning asosiy belgilari quyidagilardan iborat:

- Inson hayoti, huquq va erkinliklarining davlat tomonidan ta’milanishi va kafolatlanishi;
- Konstitusiya va qonunning ustuvorligi;
- Tenglik prinsipi;
- Ko’ppartiyaviylik;
- Mafkuralar xilma-xilligi;
- Davlat hokimiyatining bo‘linish prinsipi;
- Demokratik saylov asosida hokimiyatni shakllantirilishi.

Shu bilan huquqiy bo‘lmagan davlatdan tubdan farq qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti o‘zining “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” asarining “Demokratik institutlarni va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish” nomli bobida uning mohiyati va maqsad va vazifalarini aniq ko‘rsatib berdi.

Fuqarolik jamiyati – fuqarolarning o‘z huquq va erkinliklarini anglashi hamda fuqarolik jamiyati institutlari orqali davlat va jamiyat boshqaruvida faol ishtirok etishiga asoslangan jamiyatdir.

Fuqarolik jamiyatiga Prezident I.Karimov quyidagicha ta’rif beradi: “Fuqarolik jamiyati - ijtimoiy makon. Bu makonda qonun ustuvor bo‘lib, u insonning o‘z-o‘zini kamol toptirishiga monelik qilmaydi, aksincha, yordam beradi. Shaxs manfaatlari, uning huquq va erkinliklari to‘la darajada ro‘yogda chiqishiga ko‘maklashadi. Ayni vaqtida boshqa odamlarning huquq va erkinliklari kamsitilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Ya’ni erkinlik va qonunga bo‘ysunish bir vaqtning o‘zida amal qiladi, bir-birini to‘ldiradi va bir-birini taqozo etadi. Boshqacha aytganda, davlatning qonunlari inson va fuqaro huquqlarini kamsitmasligi lozim.

Shuning barobarida barcha odamlar qonunlarga so‘zsiz rioya qilishlari shart” (10-151).

Demokratiyaning sifati partiyalarning paydo bo‘lishi, ularning soni, dasturiy yo‘l-yo‘riqlarining o‘ziga xosligi va hokazolar esa ijtimoiy manfaatlar yig‘indisi va jamlanishi orqali tabiiy yo‘l bilan belgilanmasligi lozimligiga e’tibor qaratiladi. Unga ko‘ra siyosiy partiyalar mavjud bo‘lishining asosiy va birdan-bir prinsipi davlatning konstitutsiyaviy me’yorlarini hurmat qilish va ularga rioya etishdan iborat bo‘lmog‘i lozim.

Mamlakatning ijtimoiy-siyosiy barqarorligi yo‘lida jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi ommaviy axborot vositalarining o‘rni muhim ahamiyatga ega. Respublikadagi yangi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy shart-sharoitlar ommaviy axborot vositalari oldiga mutlaqo yangi, shu paytgacha notanish bo‘lgan vazifalarni qo‘ymoqda.

Hozirgi paytda jamiyat hayoti va faoliyatida ommaviy axborot vositalarining rolini oshirish quyidagilarda o‘z aksini topadi:

Birinchidan, ommaviy axborot vositalari imkoniyatini oshirish uchun kerakli sharoitlar yaratish, ularga jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy hayotida munosib o‘rin berish, jurnalistlar faoliyatini ijtimoiy va huquqiy kafolatlash zarur.

Ommaviy axborot vositalari mamlakatda yuz berayotgan jarayonlarga turlicha qarashlarni erkin va xolis ifodalashi, hokimiyat bilan jamiyat o‘rtasida xolis vositachi bo‘lish va, muhimi, inson hamda jamiyat manfaatlarining faol va izchil himoyachisi bo‘lish uchun professional jurnalistlar va ommaviy axborot vositalari xodimlarini tayyorlash jarayonini qayta ko‘rib chiqish, axborot olish, tahlil qilish, ishslash va yetkazishning zamonaviy usullari va vositalarini o‘zlashtirishda ularga yordam berish zarur.

Ikkinchidan, ommaviy axborot vositalarining faoliyatiga va ularning samarali ishlashiga yordam beradigan mexanizmlarni tartibga soluvchi qonunchilik bazasini takomillashtirish muammosi ham dolzarb bo‘lib bormoqda (10-151).

Eng asosiy ijtimoiy institut bo‘lgan mulkka (asosan, xususiy mulkka) munosabatning o‘zgarishi butun jamiyatni va, xususan, iqtisodiy hayotni demokratiyalashning bosh bo‘g‘ini bo‘ldi. Jamiyatni siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy yangilash asosan yangi mulkchilik munosabatlari orqali o‘tadi.

I.Karimov insoniyat ming yillar mobaynida ishlab chiqqan demokratik qadriyatlarni to‘la-to‘kis o‘zlashtirib olish jamiyatda

islohotlarni chuqurlashtirishning muhim sharti ekanligini ta'kidlab, "demokratiya" tushunchasini quyidagicha yoritadi. Umumiylar tarzda demokratiya deganda hammaning manfaatlari yo'lida ko'pchilikning hokimiyati va ozchilikning irodasini hurmat qilish tushuniladi. Batafsil tahlil qilinganda esa demokratiya - xalqning o'z erkinligi va mustaqilligiga qarashlari ham, har bir shaxsning manfaatlari va huquqlarini o'zboshimchalik bilan cheklashlar va shu yo'sindagi harakatlardan himoya qilish ham, fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish shakli ham ekanligi ayon bo'ladi.

Jamiyatda demokratiya qay darajada ekanligini belgilovchi kamida uchta mezon bor. Ular quyidagilardan iborat:

- 1) Xalq qarorlar qabul qilish jarayonlaridan qanchalik xabardorligi;
- 2) Hukumat qarorlari xalq tomonidan qanchalik nazorat qilinishi;
- 3) Oddiy fuqarolar davlatni boshqarishda qanchalik ishtirok etishidir.

"Ana shu uch sohada haqiqiy siljishlar bo'lmas ekan, - deb ta'kidlanadi mazkur asarda, - demokratiya haqidagi hamma gap-so'zlar yo xalqqa hushomad qilish, yoki oddiy siyosiy o'yin bo'lib qolaveradi. Bunday siljishlar esa bir kunda bo'ladigan ish emas" (10-151).

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Ikkinchchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining to'qqizinchi sessiyasida so'zlagan ma'rzasida O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatni asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlarini ko'rsatib beradi. Ular quyidagilardan iborat:

1. Mustaqillikni asrab-avaylash, himoya qilish va mustahkamlash;
2. Mamlakatimizda xavfsizlik va barqarorlikni, davlatimizning hududiy yaxlitligini, sarhadlarimiz daxlsizligini, fuqarolirimizning tinchligi va osoyishtaligini ta'minlash;
3. Erkin iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish;
4. Inson huquqlari va erkinliklarini, so'z va matbuot erkinligini, shuningdek, oshkoraliyini, jamiyatda o'tkazilayotgan islohotlarning ochiqligini ta'minlaydigan demokratik tamoyillarni amaliy hayotga joriy qilish;
5. Jamiyat hayotida nodavlat va jamoat tashkilotlarining o'rni va ahamiyatini keskin kuchaytirish;
6. Sud-huquq sohasini isloh qilishni izchil davom ettirish;
7. Demografik va boshqa milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosat olib borish (31-214).

Eng muhim, dolzarb vazifalar mamlakatni demokratlashtirish, iqtisodiyotni rivojlantirishdan iborat. Bu vazifalarni ado etish uchun

qanday masalalarga e'tibor berish, qaysi yo'ldan borish kerakligi Prezidentimizning yuqorida zikr etilgan fundamental asarida o'zining to'la ifodasini topgan.

Asarning "O'zbekiston – demokratiya va ijtimoiyadolat jamiyat" deb nomlangan qismida yozilishicha, O'zbekiston mustaqil, demokratik huquqiy davlatdir. Bu insonparvarlik qoidalariga asoslangan, millati, dini, ijtimoiy ahvoli, siyosiy e'tiqodlaridan qat'i nazar fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlab beradigan davlatdir (21-44).

Prezidentning ta'kidlashicha, yangilangan jamiyatning siyosiy va davlat tuzilishi insonga uning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy turmush tarzini erkin tanlab olishini kafolatlashi kerak.

Buning uchun siyosiy sohada, iqtisodiy sohada, ijtimoiy va ma'naviy sohalarda nimalar qilish kerakligi ko'rsatib o'tilgan.

Siyosiy sohada bu quyidagilarni bildiradi:

- xalq turmush tajribasi, Respublika aholisining milliy va madaniy an'analariga, barcha ijtimoiy guruhlari va qatlamlarining manfaatlariga mos keladigan haqiqiy demokratiya prinsiplarini qaror toptirish;

- qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati vakolatlarini ajratish asosida milliy davlatchilikni barpo etish;

- barcha fuqarolarning qonun oldida huquqiy tengligini va qonunning ustunligini, jamiyat manfaatlari himoya qilinishi va aholining xavfsizligini kafolatlaydigan huquqiy davlatni barpo etish;

- O'zbekistonda tug'ilgan, uning zaminida yashayotgan va mehnat qilayotgan har bir kishi, milliy mansubligi va e'tiqodidan qat'iy nazar, Respublikamizning teng huquqli fuqarosi bo'lishga munosibdir, degan insonparvarlik, vatanparvarlik qoidasini ro'yobga chiqarish,

- ozchilikdan iborat millatlarning manfaatlari va huquqlarini himoya qilish, ularning madaniyati, tili, urf-odatlari va an'analarini saqlanishi hamda rivojlanishini kafolatli ta'minlash, davlat tuzilmalarining faoliyatida va jamoat turmushida faol qatnashish;

- bir mafkuraning, bir dunyoqarashning yakka hokimligidan qat'iyan voz kechish siyosiy tashkilotlar, mafkuralar va fikrlar xilma-xilligini tan olish;

- chinakam demokratiyaning zarur va qonuniy tarkibi sifatida ko'p partiyaviylikni amalda shakllantirish;

Islom Karimov siyosiy sohadagi bu vazifalarni ado etishning yo'liyo'riqlari, ularni muvaffaqiyatli hal etishning ahamiyati haqida qisqacha izohlab ham bergan. Bu vazifalarning ijobiy echimi insonga siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy turmush tarzini erkin tanlab olishni kafolatlaydi.

Asarda iqtisodiy sohadagi muhim vazifalar ham birma-bir ko'rsatib o'tilgan. Iqtisodiy sohadagi dolzARB masalalarga avvalo, respublikaning mustaqilligini, odamlarning munosib turmush va ish sharoitlarini ta'minlash g'oyat muhim masaladir. Buning uchun ana shunday imkoniyatlarni yaratib beradigan qudratli, barqaror va jo'shqin rivojlanib boruvchi iqtisodiyotni barpo etish zarur.

Ikkinchidan, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti bosqichma-bosqich shakllantirib borilishi kerak. Odamlarning tashabbuskorligi va ishbilarmonligini butun choralar bilan rivojlantirib borish talab etiladi. Tadbirkorlikka erkinlik berilishi zarur. Bu yo'lida barcha tajribalar va iqtisodiy yangiliklar rag'batlantirib turilishi, iqtisodiy omillar vositasi ishga solinishi muhim ahamiyatga ega. Har qanday tayyorga ayyorlik hollariga butunlay barham berish zarur.

Uchinchidan, mulk egalari huquqlari davlat tomonidan himoya qilinadi. Shirkat, davlat, xususiy hamda boshqa mulkchilik shakllarining huquqiy tengligi qaror topmog'i lozim.

To'rtinchidan, iqtisodiyotni o'ta markazlashtirishga chek qo'yish lozim. Yakkahokimlik tugatilsin. Korxonalar va tashkilotlarga keng mustaqillik berish zarur. Davlat xo'jalik faoliyatiga bevosita aralashmaslik.

Beshinchidan, odamlar mehnat qilish, dam olish, har yilgi haqi to'lanadigan ta'tilga chiqish imkoniga ega bo'lishi shart.

Oltinchidan, tabiiy resurslardan ayovsiz foydalanishga, atrof-muhitga ziyon yetkazilishiga va respublikadagi ekologik vaziyatning yomonlashuviga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Orolni qutqarish zarur.

Islom Karimov ijtimoiy va ma'naviy sohalarda ham yaqin yillar ichida tinmay va izchillik bilan amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar haqida o'z qimmatli fikr-mulohazalarini aytib o'tgan. Uning ta'kidlashicha, eng avvalo odamlar insonparvarlik g'oyalariga doim sodiq bo'lsin. Bu yo'lida ma'naviy va ahloqiylikni qayta tiklash, xalqlarning madaniy merofiga ehtiyyotkorlik bilan munosabatda bo'lish zarur. Qadimgi va zamonaviy madaniy boyliklarni, adabiyot va san'atni o'rganish hamda rivojlantirish lozim. Hurfikrlilik, vijdon va din erkinligi qaror topishi lozim.

Ijtimoiyadolat qoidalari ro'yobga chiqadigan bo'lsin. Aholining eng nochor qatlamlari davlat tomonidan ijtimoiy muhofaza qilinishi zarur.

Hamma sifatli tibbiy xizmatdan bahramand bo'lsin. Onalik va bolalik muhofaza qilinishiga erishish lozim.

Barcha ta’lim olishda erkin bo‘lishi kerak. Buning uchun yangi demokratik ta’lim konsepsiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish lozim.

Ijodning barcha turlarini rivojlantirish, odamlarning iste’dod va qobiliyatlarini namoyon etish uchun shart-sharoitlar yaratish, ma’naviy mulkni himoya qilish nihoyatda muhim ahamiyatga ega.

Islom Karimovning “O’zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li” asarida siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hamda ma’naviy sohalarda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan bu vazifalar davlatimiz, jamiyatimizni yangi, nisbatan yuqori bosqichga ko‘tarilishiga olib keladigan juda muhim nazariy va amaliy dastur bo‘ldi. Yurtboshimiz maqsadimiz ravshan ekan, ularga qaysi yo‘l va qanday siyosat bilan erishamiz degan savolga javob berib, diqqat-e’tiborni quyidagi masalalarga qaratdi.

“Iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy tanglikdan chiqish uchun, - deb ta’kidladi u o‘zining 1994 - yilning 18 - martida xalq deputatlari Buxoro viloyati Kengashi sessiyasida so‘zlagan nutqida. – Bozor iqtisodiyotini tanladik. Buning sababi – o‘zimizning 74 yillik achchiq tajribamiz. Dunyodagi mutaraqqiy davlatlarning tajribasi ma’muriy-bo‘yruqbozlik yo‘li bilan iqtisodiyotni rivojlantirib bo‘lmasligini isbotladi.

Bizlar voz kechgan eski tizimning eng katta qusuri shu ediki, unda xususiy mulk man qilingan edi. Hayotiy tajribamiz shuni ko‘rsatdiki, mulkdan judo bo‘lgan odamda izlanish, intilish va tashabbus yo‘qolar ekan. Bu ob’ektiv haqiqat va buni aslo inkor etib bo‘lmaydi.

Biz yuritayotgan iqtisodiy siyosatning negizi shuki, mulk albatta egasini topishi kerak” (4-5).

Ana shuni nazarda tutib, xususiylashtirish ishlari keng ko‘lamda olib borildi. Uy-joylarni xususiylashtirish, savdo, mahalliy sanoat va xizmat ko‘rsatish sohalaridagi xususiylashtirish jarayoni amalda 1994 - yilning birinchi yarmiga kelib, tugash arafasiga yetdi. Sanoatda, qurilishda, transportda, dehqonchilik sanoat majmuining go‘sht-sut, oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash tarmoqlarida yirik korxonalarini hissadorlik korxonalariga aytantirish ishlari faol davom ettirildi. Moliya va bank tizimi qayta tuzilmoqda.

Bu davrga kelib iqtisodiy islohotlarning birinchi davri tugadi.

Bu bosqich, Islom Karimov ta’biri bilan aytganda, eski tuzumning ongimizda hukmron bo‘lgan aqidalarini yakson qilib, yangi tuzum uchun puxta poydevor qo‘yish vazifasini bajarishga qaratilgan edi. Eski zamonda hamma joyda, hamma sohada nazorat ustun edi. Bitta ishlovchiga o‘nta nazoratchi to‘g‘ri kelardi, desak aslo mubolag‘a

bo'lmaydi (4-12). Shu bois nazoratni kamaytirishga jiddiy e'tibor berildi. Iqtisodiy erkinlikka yo'l ochildi.

“Birinchi bosqichda, - degan edi I.Karimov, - xalq deputatlari Buxoro viloyati kengashi sessiyasida (1994, 18 mart) so'zlagan nutqida, - biz nazorat organlari sonini keskin kamaytirdik, daromad cheklanmaganidan keyin mingta nazoratchining nima keragi bor? Ishini qilib, foydasini ko'rib, davlatga solig'ini to'lasa, bas emasmi?

Eski zamondan qolgan yana bir sarqit shu ediki, xususiy mulk haqida bir bir so'z eshitsak, osmon barobar sapchib tushardik. Xususiy mulk egasi bo'lishni istagan odamlarning yuragi xavotirga to'la edi. Istalgan paytda oddiy bir millioner kelib, peshona teri bilan topilgan mol-mulkini musodara etishi mumkin edi” (4-12).

Islom Karimov birinchi bosqichning mohiyati xususida to'xtalib, aytadiki, o'tgan davrda odamlarning psixologiyasi, dunyoqarashi o'zgardi, mehnatga munosabati o'zgardi. Xususiy mulk va shaxsiy manfaatning, sotsializm maddohlari aytganiday, «gunohi azim» emasligi ayon bo'ldi.

Uchinchi masala. Iqtisodiy islohotning birinchi bosqichida qishloqqa e'tibor kuchaydi. Asosiy e'tibor shu sohaga qaratildi. Qishloqda fermerlik harakati vujudga keltirildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yig'ilishi (1994 yil 18 fevral) da so'zlagan nutqida, Islom Abdug'aniyevich, qishloqqa e'tiborning kuchayishining asosiy sababi haqida to'xtalib, bu jahada amalga oshirilishi lozim bo'lgan dolzarb vazifalar xususida to'xtalib o'tdi.

“Bugun jamiyatimiz shuni anglab oldiki, - degan edi u, - hayotimizni yaxshilash, aholi turmush darajasini ko'tarish, iqtisodiyotimizning samaradorligini oshirish, xalqimizni boqish, istiqbolimizni rejallashtirish-xullas, qanday muammo, qanday masalani ko'rmaylik, ularning aksariyati birinchi navbatda qishloq xo'jaligiga borib taqaladi. Hammamizni boqadigan, ozuqa beradigan soha – qishloq xo'jaligi tarmoqlaridir.

Mana shuning uchun ham, madomiki, farovon hayot qurmoqchi ekanmiz, oldimizga xalq turmushini yaxshilash maqsadini qo'ygan ekanmiz, iqtisodiy islohotni avvalo qishloq xo'jaligi, qishloq hayoti sohasidan boshlashimiz zarur” (5-3).

Ma'lumki, bizda aholining aksariyati qishloqda yashaydi. Qishloq – milliy daromadning juda muhim manbai, valyuta asosan qishloq xo'jaligi hisobiga olinadi.

“Eng muhimi – qishloq iqtisodiyotda va ijtimoiy turmushda, binobarin siyosatda ham shunday bir bo‘g‘inki, bu bo‘g‘in orqali butun respublika farovonlik va to‘kin-sochinlikka erishadi. Dehqon badavlat bo‘lsa, butun respublika badavlat bo‘ladi. Hozir biz hammamiz qishloq hisobidan yashayotganimizni tan olishimiz kerak” (21-340, 341).

Ana shuning uchun ham so‘nggi yillarda qishloq xo‘jaligiga e’tibor kuchaydi, tubdan o‘zgartirish va tez sur’atlar bilan har tamonlama rivojlantirish uchun barcha mavjud imkoniyatlar ishga solinmoqda. Qishloq xo‘jalik xodimlarini moddiy rag‘batlantirishni yaxshilashga harakat qilinmoqda. Dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari barcha turlarining xarid narxlari muntazam oshib bormoqda. Paxta va g‘alladan boshqa qishloq xo‘jalik mahsulotlari erkin narxlarda sotilmoqda. Davlatga sotish majburiy bo‘lgan qishloq xo‘jalik xomashyosi va mahsulotlari hajmi ancha qisqardi. Paxta, g‘alla va boshqa don ekinlariga davlat buyurtmasi 80 foizgacha kamaydi, davlatga sotilishi shart bo‘lgan meva-sabzavot mahsulotlari va kartoshka 50 foiz darajasida saqlab qolindi. SHaxsiy yordamchi xo‘jaliklar va dehqon (fermer) xo‘jaliklarini yanada rivojlantirishga kirishildi. Buning uchun paxta maydonlari ancha kamaytirildi. Shu maqsadda 720 ming gektarga yaqin unumdar erlar dehqonlarga muddatsiz shaxsiy foydalanish uchun topshirildi. Ishbilarmonlarga, fermer xo‘jaliklari va kichik korxonalar ishini jonlantirish uchun ularga amaliy-moliyaviy yordam berib turadigan “Tadbirkor” degan maxsus aksionerlik tijorat banki tashkil etildi.

Islom Karimov o‘zining bu asarida xarid narxlariga erkin tus berib, uni jahon bozorlaridagi narx-navolar darajasiga yetkazishni tawsiya etadi. Qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishiga imtiyozli soliq solinishi kerak. Qarz berishni yana davom ettirish zarur. Xo‘jaliklar ko‘proq iqtisodiy erkinlikka ega bo‘lsinlar. Qishloq bozor iqtisodiyoti tuzilmalarini har tamonlama qo‘llab-quvvatlab turish muhim ahamiyatga ega. Fermer xo‘jaliklari tashkil etilib, shaxsiy tamorqalar kengaytirilsa, qishloqdagi bir qator o‘tkir muammolar hal bo‘laveradi. Qishloq xo‘jalik mahsulotlari, eng avvalo oziq-ovqat mahsulotlari etishtirish hajmi ko‘payadi. Natijada qishloq aholisining daromadlari ko‘paya boradi. Yakka tartibda uy qurish keng tus oladi va shu tariqa uy-joy muammozi ham hal bo‘laveradi. Erga mulkchilik masalasi dehqonchilikka oid siyosatdagi hal qiluvchi masaladir.

Xalqimizda “Yerni boqsang, yer seni boqadi”, - deb behuda aytilmagan. Yer – egasini topishi kerak. Yer, uni chin dildan sevadigan, ta’bir joiz bo‘lsa, yer butun jonini tikadigan, uni ardoqlaydigan, ehtiyyot

qiladigan chinakam mehnatsevar dehqon ixtiyoriga topshirilsa, erdan har qancha hosil olsa bo‘ladi. Ammo O‘rta Osiyo sharoitida suv bo‘lmasa, arning qadri qolmaydi. Demak, yer xususiy mulk qilib berilsa, suvni ham, shu bilan birga butun irrigatsiya tarmoqlarini ham xususiy mulk qilib berishga to‘g‘ri keladi.

Biroq zamonaviy texnika bilan qurollangan irrigatsiya inshootlarini bo‘lib yuborib bo‘lmaydi. Yana bir masalani aytib o‘tish zarur. Yurtimizda aholi zinch joylashgan. Qishloqlarimizda esa aholi bundan ham zichroq. Ish bilan band bo‘lgan har bir kishiga o‘rtacha bir-bir yarim hektar sug‘oriladigan yer to‘g‘ri keladi. Oila a’zolarini ham qo‘sib hisoblaganda, jon boshiga o‘rtacha 0,33 hektar er tegishi mumkin. Bunday sharoitda yerni xususiy lashtirish ijtimoiy vaziyatni keskinlashuviga sababchi bo‘lishi mumkin. Shunday ekan, yer davlat mulki sifatida saqlab qolinishi kerak.

Lekin yerni dehqonlarga foydalanish uchun meros qilib qoldirish huquqini berish orqali qishloqda bozor munosabatlarini rivojlantirish, dehqonlarda egalik hissini qaytadan tiklasa bo‘ladi. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, dehqon erdan olingan mahsulot o‘z mulki ekanini, etishtirilgan mahsulotning xo‘jayini ekanini his etsa, shundagina u o‘zini arning haqiqiy egasi deb hisoblaydi (21-344). Buning uchun qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishini yoppasiga davlat tasarrufiga olishdan voz kechiladi. Aynan shu eng muhim yo‘l hisoblanadi.

Davlat xo‘jaliklari, birinchi galda zarar keltirayotgan davlat xo‘jaliklari jamoa xo‘jaliklariga aylantiriladi. Bu – ustuvor yo‘nalishdir. Bu sohada ish quyidagicha tashkil etilmog‘i lozim. Davlat xo‘jaliklari kooperativ va davlatga taalluqli bo‘limgan o‘zgacha ishlab chiqarish tuzilmalariga aylantiriladi. Keyinchalik jamoa xo‘jaliklarining o‘zi yirik kooperativ xo‘jaliklarga aylantiriladi. Bu xo‘jaliklarning asosini fermer xo‘jaliklar keyin korxonalar, kooperativlar, pudratchi va ijarachi oilaviy jamoalar tashkil etadi. Dehqon yetishtirgan mahsulotining hammasini o‘zi olib qoladi. Jamoa xo‘jaligi asosan dehqon xo‘jaliklariga xizmat ko‘rsatish bilan shug‘ullanadi, ya’ni ularni zarur texnika, mineral o‘g‘itlar, urug‘lik bilan ta’minlab turadi, yer unumдорligini oshirish choralarini ko‘radi, irrigatsiya ishlarini yo‘lga qo‘yadi. Ishni shu taxlitda tashkil etish natijasida, qishloqda istiqomat qilayotgan aholining talaygina qismi ishsiz qoladi. Hisob-kitoblarning ko‘rsatishicha, 1994 yilga kelib qishloqlarimizda 6,5 million mehnatga layoqatli odam bo‘lgan. Tabiiyki, qishloq xo‘jaligining o‘zi bu miqdordagi ishchi kuchini ish bilan ta’minlay olmaydi. Qishloqdagi yashirin bu ishsizlikni

tugatish uchun barqaror muhim chora-tadbirlarni ko‘rish talab etiladi. Qishloqqa ishlab chiqarishning sanoat usullarini olib kelish zarur. Ixcham, zamonaviy texnologiyaga asoslangan kichik korxonalar tashkil etilishi lozim. Qishloq xo‘jalik xomashyosini qayta ishlab, yangi mahsulotlar etkazib beradigan korxonalarni ko‘paytirish zarur. Shu bilan birga kasanachilik mehnatiga keng yo‘l ochib berish lozim. Qishloqlarda xalq xunarmandchiligin rivojlantirishga harakat qilish zarur. Qishloqlarda zamonaviy maishiy va xizmat ko‘rsatish korxonalari juda kam, yaxshi rivojlanmagan. Bu sohaga joylarda jiddiy e’tibor berilsa, kichik korxonalar, maishiy xizmat ko‘rsatish korxonalari, kasanachilik, hunarmandchilik rivojlansa, ishsiz qolgan odamlar ish bilan ta’milanadi, ishsizlik tugatiladi. Qishloqlarda ishlab chiqarishning sanoat usullari joriy etilsa, qishloqlarning qiyofasi ham tubdan o‘zgaradi, qishloq turmushi madaniyati keskin oshadi. Prezidentimiz tashabbusi bilan ishlab chiqilgan bu reja qishloqlarda tub o‘zgarishlarni amalga oshirishga zamin hozirlab berdi. Eng muhimi, islohotlarning birinchi bosqichi davomida qishloqlarda fermerlik harakati vujudga keldi. Hukumatning qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga qaratilgan qarorlari, ayni vaqtda, dehqon (fermer) xo‘jaliklari yo‘lida g‘ov bo‘lib turgan eski to‘rachilik kayfiyati, sun‘iy to‘silalar bartaraf etildi. Fermerlarning huquqiy maqomini mustahkamlash choralari ko‘rildi. Ularning boshqa tashkilot va mahkamalar bilan bo‘lgan munosabatlariga oydinlik kiritildi.

Bu qarorlar qishloq xo‘jaligi sohasida zarar ko‘rib ishlaydigan davlat xo‘jaliklarini bartaraf etishni ko‘zda tutadi. O‘zini oqlamagan xo‘jaliklar mulkchilikning boshqa, iqtisodiy samarasi yuksak shakllariga o‘tkazila borildi. Oila, jamoa xo‘jaliklari rivojiga shart-sharoit yaratildi. Muhimi – qishloq xo‘jaligida mulk shaklini o‘zgartirish, fermerlik harakatini oyoqqa turg‘azishdir.

1994 yilga kelib mamlakatimizda taxminan 15 ming dehqon (fermer) xo‘jaligi ishlab turdi. Bu avvalgi yilda qaraganda 5 mingta ko‘p. Ularga berilgan yer maydoni ham ikki barobar ko‘payib, 105 ming getkardan oshdi. Chorvachilik fermerlari xususiyashtirilmoqda, davlat xo‘jaliklarining shakli o‘zgartirilmoqda. Prezidentimiz nutqida ko‘rsatilishicha 1000 ga yaqin chorvachilik fermalari jamoa mulki qilib berildi. Fermer xo‘jaliklariga va kichik korxonalarga solinadigan soliq ikki hissa kamaydi. Aholiga urug‘, ko‘chat sotuvchi, fermerlarga xizmat ko‘rsatadigan 100 ta do‘kon ochildi. SHu bilan birga qishloqlarda kichik va ixcham korxonalar soni yildan yilga ko‘paymoqda. Ilg‘or

texnologiyalarni joriy etish uchun va chet ellik sheriklar bilan hamkorlik qilish uchun huquqiy asos kengaymoqda. Lekin, afsuski, zarur oziq-ovqat mahsulotlarining ancha qismini hozircha xorijdan olib kelishga majbur bo‘lyapmiz. Birgina shu yil ya’ni 1994 yilning o‘zida bir milliarddan ortiq Amerika dollari ajratishga to‘g‘ri keladi. Bu misol jamiyatni yaxshilashni birinchi navbatda qishloq xo‘jaligidan boshlash to‘g‘ri ekanini ko‘rsatib turibdi. Demak, agar bu maqsadimizga – farovonlikka erishmoqchi bo‘lsak, faqat ishlab chiqarishni rivojlantirish orqali xalqimizni to‘liq ta’minlamoqchi bo‘lsak, Prezidentimiz Islom Karimov ta’kidlaganidek, iqtisodiy islohotni eng avvalo, qishloqdan boshlashimiz darkor (6-11).

3-mavzu: Islohotlarning yangi bosqichi

Reja:

1. Iqtisodiy erkinlikni ta'minlash chora – tadbirlari.
2. Milliy valyutaning joriy qilinishi.
3. Milliy manfaatlar ustuvorligi va teng huquqli hamkorlikka asoslangan tashqi siyosat.

Birinchi masala. Istiqlolning ilk kunitanoq uni mustahkamlash va yanada rivojlantirish, mamlakatda pirovard maqsad, demokratik davlat barpo etishda olis maqsadlarni ko'zlab olib borilgan dastlabki chora-tadbirlar, shuningdek, 1993-1994 yillar davomida islohotlarni yanada chuqurlashtirish yuzasidan amalga oshirilgan dolzarb ishlari oxir-oqibat 1994 - yilning oxiri 1995 - yilning boshiga kelib yurtimizda islohotlarni yanada chuqurlashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirish uchun puxta zamin yaratib berdi. Mamlakatda demokratiyani yanada rivojlantirish, iqtisodiyotni yangi bosqichga ko'tarish, xususiy lashtirishni poyoniga yetkazish, qishloqlarda tub o'zgarishlar yasash, fermer xo'jaliklarini taraqqiy ettirish, shu bilan birga ko'plab boshqa dolzarb muammolarni hal etish borasida ko'pgina ishlari qiyomiga etkazila borildi.

Mamlakatimiz ishlab chisarish tarmoqlarida sekin-asta o'sish va barqarorlik hukm sura boshladi. Odamlarda erga, mulkka egalik hissi uyg'ondi, yer, mulk egasini topa boshladi. Mehnatga munosabat o'zgardi. Xususiy mulkka intilish kurtak ota boshladi. Shaxsiy manfaat «gunohi azim» emasligi ayon bo'ldi. Avval iqtisod keyin siyosat, degan ishlari ko'p narsalarni jadal hal etib berdi. "Xalqimizda "avval taom, keyin kalom" degan, – hikmat bor deb, ta'kidlaydi yurtboshimiz. – Ya'ni, avval odamlarning qornini to'ydir, bola-chaqasini ta'min etib ber, ana undan keyin siyosatingni gapir! ... havoyi gap bilan odamlarni aldab bo'lmaydi" (4-7).

Kishilarimizning Vatanga, ona-zaminga mehrli munosabati kuchayib bormoqda. Istiqlol ma'naviyati shakllantirilmoqda. Ma'naviy hayotimizda uyg'onish yuz berdi. Aniqroq qilib aytganda, o'zligimizga qaytdik. Xalqimiz milliy g'urur uchun belni mahkam bog'lab, yurt ravnaqi yo'lida xizmat qilishiga zamin yaratildi. Endilikda iqtisodiyotimizni yanada rivojlantirish va erkinlashtirish, mulkni davlat tasarruvidan chiqarish va xususiy lashtirish ishlariiga yanada jiddiy e'tibor berish shu kunning eng muhim va dolzarb masalasi bo'lmos'i

lozim. Butun kuch va imkoniyatlarimiz asosan anna shu masalalarga sarflanmog'i lozim.

Prezident o'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n birinchi sessiyasida (1994 - yil 5 - may) aytganidek, bugun iqtisodiy islohotning yangi bosqichi boshlandi (4-7). Bu borada shu yil 21 yanvarda chiqarilgan Farmon alohida ahamiyatga ega.

Xo'sh, 21- yanvar farmoni bizga nimalar berdi? Prezidentimiz bu savolga javob berib, quyidagicha fikr-mulohazalarni aytib o'tdi.

"Birinchidan, u mamlakatimizda o'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlarni yanada yuksak bosqichga ko'tardi, ularga yangicha sifat yo'nalishlarini va kafolatlarini berdi.

Ikkinchidan, xususiy mulkka keng yo'l ochib berish va uni himoyalash, mulkning barcha shakllarida har bir korxona va ishbilarmonlarning tadbirkorlik faoliyatini kuchaytirish uchun yangi imkoniyatlar ochdi.

Uchinchidan, bizning jahon bozoriga chiqish imkoniyatlarimizni kengaytiradi, chet el sarmoyalari uchun yurtimizga yo'l ochadi, ularga huquqiy va iqtisodiy imtiyozlar beradi, pirovardida O'zbekistonning eksport salohiyati va imkoniyatlarini keskin ko'paytiradi.

Shu bilan birga, bu Farmon milliy valyuta obro'sini kuchaytiradi. Bir so'z bilan aytganda esa, davlatimizning iqtisodiy qudratini oshiradi.

To'rtinchidan, u yaqin kelajakda ma'muriy-buyruqbozlik zamonidan qolgan barcha to'siqlarni bartaraf etadi, shu barobar, iqtisodiy hayotimizga erkinlik baxsh etadi" (4-12).

Bu Farmonning mazmunini lo'nda qilib, iqtisodiy erkinlikning kuchayishi, deb ifodalash mumkin. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, bu yerda gap O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulk manfaatlarini himoya qilish va tadbirkorlikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 1994 yil 21 yanvarda chiqargan farmoni haqida borayotir (5-31,40). Bu farmon asosida hukumatning qishloq xo'jalik sohasiga oid ikki qarori qabul qilindi. Bu qarorlardan biri "Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" bo'lib, u asosida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi "Chorvachilikda islohotlarni takomillashtirish hamda dehqon (fermer) xo'jaliklari va xususiy lashtirilgan fermalar manfaatlarini himoya qilish to'g'risida"gi ikkinchi qarorini chiqargan. Bu qarorlar asosan agrar sohadagi iqtisodiy islohotlarni keskin rivojlantirishni ko'zda tutadi. Ular avval aytib o'tganimizdek, dehqon

(fermer) xo‘jaliklari yo‘lida g‘ov bo‘lib turgan eski to‘rachilik kayfiyatini, sun’iy to‘sqliarni bartaraf etishga imkon beradi. Fermerlarning huquqiy maqomini mustahkamlaydi. Ularning boshqa tashkilot va mahkamalar bilan munosabatiga oydinlik kiritadi. Yer va suvdan foydalanish imkoniyatlari doirasini kengaytiradi.

I.A.Karimov ta’kidlashicha, yangi qarorlar qishloq xo‘jaligi sohasida zarar ko‘rib ishlaydigan davlat xo‘jaliklarini bartaraf etishni ko‘zda tutadi. Iqtisodiy jihatdan o‘zini oqlamagan xo‘jaliklar mulkchilikning boshqa, iqtisodiy samarasi yuksak shakllariga o‘tkaziladi. Oila, jamoa xo‘jaliklari rivojiga shart-sharoit yaratiladi. Bu qarorlarning yana bir muhim jihat shuki, turli mulkchilik shaklidagi xo‘jaliklar nazorat etuvchi tuman tashkilotlarining iskanjasidan qutiladi, ularning o‘rniga keladigan servis, ya’ni xizmat ko‘rsatish korxonalari bilan shartnomalar asosida ishlay boshlaydi (4-13).

Ammo bu bilan qanoatlanmasdan, hukumatimiz yana yangi farmon va qarorlar qabul qilishda davom etmoqda.

“Biz katta bir Farmon va ikkita hukumat qarorini chiqarib, ana endi ishlarimiz o‘z-o‘zidan yurishib ketadi, deb qo‘l qovushtirib o‘tirganimiz yo‘q. Yana izlanayapmiz, yangi tadbirlarni belgilab olayapmiz.

Mana, uch-to‘rt kun oldin imzolangan Farmonni olib ko‘raylik. Uni barchangiz o‘qigansiz, shu sababli faqatgina bir jihatiga e’tiboringizni qaratmoqchiman.

Bu Farmon mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini aniq belgilab beradi. Avvalgi Farmonda ko‘zda tutilgan maqsad va muddaolarni amalga oshirish yo‘llarini ko‘rsatadi. Ya’ni oldingi hujjatda yopiq aksionerlik jamiyatlarini ochiq aksionerlik jamiyatlariga aylantirgan bo‘lsak, bu hujjatda aksiyalarning qaysi qismlardan bo‘lishiga aniqlik kiritdik” (4-14,15).

Maqsadimiz qishloq xo‘jaligi sohasida ishlab chiqarish samaradorligini keskin sur’atda oshirish, qishloq aholisining turmush darajasini yukori kutarish, ular uchun munosib shart-sharoitlarni yaratishdan iborat ekan, xo‘sh, buning uchun nima qilish kerak?

Birinchi navbatda qishloq aholisini ish bilan ta’minlash zarur. Ishsiz yurganlarni va doimiy unumli ish bilan band bo‘lmaganlarni boshqa ishlab chiqarish sohalariga jalb qilish lozim. Hisob-kitoblarga ko‘ra, bunday kishilar 1994 yilga kelib ikki millionga yaqinlashgan. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, shu yil respublikaning ishlab chiqarish sohasida 6 million 300 ming kishi band bo‘lsa, shulardan 3 million 700 ming kishi

qishloq xo‘jaligida ishlaydi. Bularning hammasiga ish topib berish oson emas. Bu masala nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy masalaga aylanmoqda. Bu muammoni hal qilsa bo‘ladimi? Bo‘ladi. Prezidentimiz fikricha, bu muammoni hal qilishning yo‘li bitta: qishloq xo‘jaligida unumli ishlaydigan kishilar qolishi kerak, qolganlari boshqa sohalarga – sanoat, xizmat ko‘rsatish sohalariga jalb etilishi lozim. Xizmat ko‘rsatish sohasini olaylik. Chet ellarda aholining 60-70 foizi shu sohada xizmat qiladi. Bizda esa bu raqam atigi 9 foizni tashkil etadi. Bir paykalga yuz kishini qo‘yib unumsiz mehnat qilishdan na foyda?!. Qishloq xo‘jaligida atigi 10 foiz odam ishlasa ham kifoya qiladi. Shunday ekan, qishloqlarimizda sanoatni, xizmat ko‘rsatish sohalarini rivojlantirish zarur. Prezidentimiz bu haqda juda ko‘p nutqlari, asarlarida takror-takror uqdirib kelayotgani bejiz emas. Bu sohalarda qanchalik ko‘p odam ishlasa, fermerlarga shunchalik ko‘p joy bo‘shatib beriladi. Biz endi avvalgi ish uslublarimizdan tezroq qutilmog‘imiz zarur. Sanoatni asosan shaharda rivojlantirishga katta e’tibor berib, bu yerda qurilgan va qurilayotgan katta-katta korxonalarga ishchi kuchini qishloqlardan olib kelmasdan, qishloqlarimizning o‘zida sanoat korxonalari barpo etsak bo‘lmaydimi?!

Buning uchun nima kerak?

Buning uchun lozim bo‘lgan suv, yo‘l, kommunikatsiya, elektr energiya va boshqalarni davlat yo‘li bilan bunyod etib berib, so‘ngra ish talab qilishimiz kerak. Odamlarga mana endi qishloqlaringizda hamma sharoit muhayyo, qani endi xususiy kichik korxonalar ochinglar, xizmat ko‘rsatish sohalarini rivojlantiring, kasanachilik va hunarmandchilikni yo‘lga qo‘yinglar, deyishimiz zarur. Biz chet ellik ishbilarmon va tadbirkorlarga ona zaminimizda yiliga uch marta hosil olsa bo‘ladi, deb g‘urur bilan ta’kidlayotgan ekanmiz, qani o‘sha uch karra hosil?!

Afsuski, yo‘q. Orzu orzuligicha qolib ketyapti.

Mamlakatimizda ishlab chiqarish unumdarligini o‘stirish, ish jarayoni samarasini oshirish va pirovard natijalarga erishishni o‘zlashtirish uchun ko‘p muammo hamda masalalarga katta ahamiyat berishimiz kerak bo‘ladi.

Prezidentimiz o‘z nutqida ana shu xususda to‘xtalib, shunday deb ta’kidladi:

“Birinchidan, bizni boqadigan mana shu yer mana shu tuproq. Uning unumdarligini oshirishimiz kerak. Buning uchun esa, eng avvalo, sug‘oriladigan erlarning meliorativ holatini yaxshilashimiz, irrigatsiya ishlarini rivojlantirishda ustuvor maqsad, deb qarashimiz shart.

Ikkinchidan, qishloq xo‘jaligini zamonaviy texnologiya, texnika va uskunalar bilan ta’minlash hamda ularning ishlab chiqarish imkoniyati va sifati dehqonlarni qoniqtiradigan darajada bo‘lishiga erishish zarur. Agar lozim bo‘lsa, ularni texnika, o‘g‘it va boshqa kerakli jihozlar bilan arzonroq, imtiyozli tarzda ta’minlashimiz zarur”(5-82).

Muhimi, mulkchilik shakllarini o‘zgartirish, mulkni o‘z egasini topib, unga berishdir. Dehqon o‘zi ishlab chiqargan mahsulotga o‘zi to‘liq egalik qilishi darkor. Ana shundagina ishlab chiqarishning shakli, mazmuni, tub ma’no-mazmuni o‘zgaradi, uning samarasi va natijalari ko‘zlangan maqsadlarga javob beradi. Dehqon badavlat bo‘lsa, yurtimiz obod, xalqimiz farovon bo‘ladi.

Ikkinci masala. Bu xususda, ya’ni milliy valyuta masalasi xususida, milliy valyutalarning joriy qilinishi haqida, bu yo‘lda uchragan juda murakkab va o‘ta og‘ir g‘ov-to‘siqlarni ko‘rish va joriy qilish bilan bog‘liq juda ko‘p dolzarb yechimlar borasida Islom Abdug‘aniyevich Karimov o‘zining bir qator asarlari, nutqlarida juda qimmatli fikr-mulohazalarni aytib o‘tganini alohida ta’kidlab o‘tish o‘rinlidir.

Birinchi navbatda, u o‘zining “yangi valyutaga o‘tish inqilob bilan barobar” nomi bilan boshlab chiqqan nutqida milliy valyutaga o‘tish yo‘li xususida batafsil to‘xtalib o‘tganligi mazkur muammoga oydinlik kiritdi. Prezident bu nutqini O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 12 - sessiyasi (1993 - yil 7 - may)da so‘zlagan edi. Mazkur nutq sessiya kun tartibidagi masalalar orasida “O‘zbekiston Respublikasining pul tizimi to‘g‘risida”gi qonun loyihasi muhokamasi vaqtida mazkur masalaga munosabatini bildirish istagi tufayli so‘zlangan. Prezidentning aytishicha, O‘zbekiston garchand mustaqillikka erishgan bo‘lsa-da, bu hali biz hamma sohada to‘la mustaqillik darajasiga yetdik degani emas. Hozircha asosan siyosiy mustaqillikka erishildi.

Navbatdagi vazifa iqtisodiy mustaqillika erishish. Buning uchun avvalambor, xomashyo bazalarimizni, sanoatimizni qazilma boyliklarimizni, mavjud salohiyatimizni ishga solishimiz kerak. Boshqacha aytganda, xalq xo‘jaligini mustaqil tarzda ishlay boshlashiga erishish lozim.

Ilgari, Sobiq Ittifoq tarkibida bo‘lgan vaqtimizda – biz yaxlit xalq xo‘jaligining bir bo‘lagi edik. Milliy daromad borasida hissamiz taxminan 6 foizni tashkil qilar edi. Xalq xo‘jaligi shu darajada chambarchas bog‘lanib ketgan edi-ki, hozirgi kunda ularni bir kunda uzib qo‘yish yoki har birining mustaqil, alohida-alohida ishlaydigan

bo‘lishiga erishish mumkin emas. Ro‘y-rost aytish kerakki, iqtisodiyotimizning ko‘p tarmoqlarida biz hozir har tamonlama Rossiyaga bog‘liqmiz. Yurtimizga olib kelinayotgan mollarning 60-65 foizi Rossiyadan tashib keltiriladi. Masalan, yonilg‘i-energetika sohasida. Gap faqat benzin yoki kerosin ustida emas. Agar Rossiya bilan aloqalarimizni uzib qo‘ysak, qator sohalarda uzilishlar ro‘y beradi: traktor zavodimizda ishlab chiqarish to‘xtaydi, aviatsiya zavodida yaratilayotgan yangi samolyotlarimiz ucholmay qoladi. Bundan tashqari mustaqil davlat boshqa davlatlardan ayri holda iqtisodiy hur bo‘lishi uchun o‘z puliga, o‘zining milliy valyutasiga ega bo‘lishi shart. Bu iqtisodiy mustaqillikning asosiy shartlaridan biridir.

O‘zbekistonni ta’minot masalasida ipsiz bog‘lab qo‘yishga urinishlar davom etayotgan ayni damlarda, har bir mustaqilman degan davlat albatta o‘z milliy valyutasiga ega bo‘lishi zarur. Ammo, milliy valyuta moddiy tayyorgarliksiz, har jihatdan puxta o‘ylab ko‘rib joriy qilinmasa, oqibati ko‘ngildagidek bo‘lmaydi. Bu sohada shoshmashosharlikka yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Shu tufayli bu ishni amalga oshirish uchun ko‘p tayyorgarlik ko‘rish, eng yirik nufuzli banklar, yetuk mutaxassislar bilan obdon maslahatlashib, puxta hozirlik ko‘rildi. Hozir barcha viloyatlarimizning banklarida, bu sir emas, chet elda tayyorlatib kelingan milliy valyuta saqlanmoqda. Ammo “so‘m” deb ataladigan pulimizni muomalaga chiqarsak, uning taqdiri nima bo‘ladi? O‘zaro hisob-kitoblarimiz qanday amalga oshiriladi. Gap shunda. Bu kishini tashvishga soladigan og‘ir savoldir.

Yana bir masala. Biz respublikadan tashqariga chiqaradigan va respublikaga tashqaridan tashib keltiriladigan mollarning muvozanati, nisbati qanday bo‘ladi? Qaysi biri ko‘p bo‘ladi – Biz tashqariga chiqaradigan mol hajmimi? Yo tashqaridan olib kiriladiganimi? Bizning so‘mimizga tashqaridan kim mol sotadi?

Biz qo‘shti davlatlarga qanchalik ko‘p mol sotsak, bizda chet ellarning valyutasi shunchalik ko‘p bo‘ladi. Aniqroq aytganda, xazinamizda chet el valyutasi doimo tayyor turishi kerak. Shunda biz istagan davlat mollarini o‘z pullariga sotib oladigan bo‘lamiz. Shundagiga o‘z pulimizga o‘tishimiz mumkin. Shu bilan birga chet el valyuta jamg‘armamiz baquvvat bo‘lishi kerak. Shunday jamg‘armaga ega bo‘lishimiz kerakki, xohlagan paytda – markagami, dollargami, funt-sterlinggami istagan narsamizni sotib olishimiz uchun qurbimiz yetadigan bo‘lsin. Shunday ekan, O‘zbekistonning eksport imkoniyatini yanada kengaytirish, chet elga xomashyo emas, tayyor mahsulotni

ko‘proq sotsak, bizga chet el valyutasi shunchalik ko‘p kirib keladi. Faqat paxta sotish, oltin sotish bilan tirikchilik qilib bo‘lmaydi. Paxtadan tayyor mahsulot ishlab chiqarishni jadal rivojlantirib, uni imkon boricha qimmatroqqa sotsak, iqtisodimiz yildan-yilga kuchayib boradi. Biz avval ham ko‘rsatib o‘tganimizdek neft mahsulotlarini, shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlarini chet eldan, birinchi galda Rossiyadan tashib keltiryapmiz. Ammo bu mahsulotlarni o‘zimizda ishlab chiqarish uchun barcha imkoniyatlarga egamiz. Shunday ekan, ularni o‘zimizda ishlab chiqarsak bo‘lmaydimi?! Bo‘ladi! Buning uchun kamida bir-ikki yil kerak bo‘ladi.

Yuqorida aytib o‘tilgan masalaga yana qaytaylik. Biz bu yerda milliy valyutamizni joriy etish uchun uzoq vaqt puxta tayyorgarlik ko‘rganimizni yana bir bor ta’kidlab o‘tishni lozim topdik. Biz milliy valyutamiz “so‘m”ni darrov joriy etmadik. Avvaliga so‘m kuponimizni muomalaga chiqardik. Ayrim shoshqaloq kishilar muvaqqat valyuta shartmi, birdaniga doimiy valyutaga o‘tgan ma’qul edi, deyishdi. Holbuki, bu masalada ham o‘tish davri bo‘lgani ma’qul. Prezidentimiz fikricha, so‘m-kupon orqali biz milliy pul birligimizni joriy etish strategiyasi va mexanizmini o‘rgandik. So‘m-kupon orqali inflyatsiyaga qarshi choralar ishlab chiqildi va sinab ko‘rildi. So‘m-kupon orqali hisob-kitoblar mexanizmi tayyorlandi va jahon valyutalari bilan muomalada pulimizning kuchi, qadri va xarid quvvati aniqlandi (6-14,15). Milliy valyutani muomalaga joriy etish bilan bog‘liq muhim muammolardan biri uni muomalaga kiritish, tartibidir.

“Hammamizga ma’lum: milliy valyuta – mustaqil, erkin davlatning asosiy belgilaridan biri. Mustaqil davlatning valyutasi ham, Markaziy banki ham, moliya ishlari ham mustaqil bo‘lishi shart. Moliya-kredit siyosati, ichki bozorni naqd pul bilan ta’minalash, pul chiqarish miqdori, uning xarid kuchi, kelajak istiqbolimiz uchun sarmoya ajratish, kimga qarz berish va kimdan qarz olish, qarzni to‘lash va undirib olish muddatlari, foiz stavkalari va shunga daxli bor masalalar – bularning barchasi ham tashqi, ham ichki iqtisodiyotning asosiy omilidir. Lo‘nda qilib aytganda, ana shu huquqlardan va imkoniyatlardan judo bo‘lgan davlat hech qachon o‘zini mustaqil deb hisoblashi mumkin emas va uni hech kim mustaqil deb tan olmaydi” (6-16).

Nima uchun bu masalalarga alohida e’tibor berilayotgani xususida gapirib, Prezidentimiz masalani shunday izohlaydi: “Barchamizga ayon bo‘lishi kerak: qaysi davlatki o‘z milliy valyutasiga ega bo‘lolmasa, o‘z manfaatini ko‘zlab mustaqil ravishda moliya-kredit, bank siyosatini aniq

yurgizolmasa, u davlat hech qachon o‘z taqdirini, tashkilotlar, xo‘jaliklar va insonlar taqdirini belgilay olmaydi va pirovardida boshqa kuchli davlatlar ko‘rsatmalariga mute bo‘lib qoladi, oqibatda mustaqilligidan muqarrar tarzda judo bo‘ladi.

Shu xulosani inobatga olsak, bu fikrni yaxshi anglashimiz kerak: modomiki biz mustaqil davlat qurmoqchi ekanmiz, buning asl poydevori – milliy valyutadir. Shuni yana bir karra takrorlab aytish va ongimizga singdirish zarurki, milliy valyuta – biz uchun oliy maqsaddir va shu valyuta o‘zini mustahkam tutgan, boshqa valyutalar, avvalambor, kuchli valyutalar orasida obro‘li va qadri baland valyuta bo‘lmog‘i darkor. Shu bilan birga, aniq bilmoq kerakki, bu oliy maqsadga erishish – bir kunlik vazifa emas, albatta. Dunyo tajribasini ko‘z oldimizga keltirsak, bunga erishmoq uchun davlatlar juda uzoq va mashaqqatlari yo‘llarni bosib o‘tgan hamda bor qudratini safarbar etgan” (6-16,17). Prezident o‘z nutqida yangi valyutani joriy qilish muhlati va muddati bu borada amalga oshiriladigan tadbirlar haqida ham to‘xtalib o‘tdi. U milliy valyutani amalga kiritish to‘g‘risida gapirib, qog‘oz pul bilan bir qatorda metall tangalar ham zarb etilayotganini, tayyorgarlik ishlari shu (ya’ni 1994) yilning birinchi yarmida tugallanishini ma’lum qiladi.

Muvaqqat valyutani yangi, milliylik aks etib turgan chiroyli valyutaga almashtirishda katta muammolar bo‘lmasligi, so‘m-kuponlar tegishli kurs va nisbat bilan yangi milliy valyutaga bemalol almashtirib berilishi, almashtirish avvaldagidek yana jamg‘arma banklari orqali amalga oshirilishini aytdi. Prezident mazkur nutqida nima uchun Rossiya rubliga ehtiyoj katta-yu, o‘zimizning so‘m-kuponga e’tibor past degan savolga ham batafsil javob berib o‘tdi. “Sabab shuki, – dedi u, – bizning mintaqamiz, jumladan, O‘zbekiston ham, asosan xomashyo hududi sifatida har tamonlama markazga bog‘lab qo‘yilgan edi. Bu juda puxta o‘ylab va har tomonlama hisob-kitob qilib yuritilgan, juda ko‘p yillar davomida uyushtirilgan siyosatdir.

Tayyor mahsulotlarga, shu jumladan, oziq-ovqat mollariga bo‘lgan ehtiyojimizni qondirishda ham, ishlab turgan va yangi qurilayotgan zavodu fabrikalarni jihozlashda ham sobiq markazga qaram edik. Biz shunday kun kechirishga majbur edik. Negaki, respublikamizga mol olib kelish va olib chiqish yo‘llari ham, kommunikatsiyalar qurish siyosati ham xuddi shu maqsadga moslashtirib qo‘yilgan edi. Buni ko‘pchilik bugun anglab yetdi”(6-18).

Bu mashum “meros”dan qutilish uchun avvalambor, istiqlol yo‘lida chinakam iqtisodiy mustaqillikka erishish zarur. Jahondagi eng yirk va

nufuzli davlatlar bilan munosabatlarimizni mustahkamlab bormog‘imiz lozim.

Shu bilan birga barcha kuch va imkoniyatlarimizni ichki bozorini, xalq iste’moli mollari bilan to‘ldirish zarur. Buning uchun ana shunday mollarni ishlab chiqaruvchi korxonalar imkoniyatini tobora oshira borish darkor. Yana bir narsa muhim, ishlab chiqarilayotgan xalq iste’moli mollari sifatli va raqobatbardosh bo‘lishi lozim. Shunday qilish kerakki, ishlab chiqarilayotgan mollarimiz tashqi bozorda borgan sari ko‘plab sotilsin, chet ellarda bizning mollarimizga ehtiyoj ortaversin. Shunda mamlakatimizga chet el valyutasi ko‘proq kirib keladi, ayni mahalda milliy valyutamizning kuchi, qadri orta boradi. Hozircha odamlarimizda Rossiya rubliga ehtiyoj katta. Chunki, chetdan kerakli mol, uskuna va jihozlar olib kelish uchun rubl kerak. Binobarin, Rossiyadan mol olib kelish ehtiyoji kamaysa, ahvol boshqacha tus oladi. Rossiyadan keltirilayotgan mollarni o‘zimiz ishlab chiqarsak, ichki bozorimizni to‘ldiribgina qolmay, chet ellarga, shu jumladan Rossiyaning o‘ziga ham sota boshlasak, masala o‘z-o‘zidan yechimini topa boshlaydi.

Milliy valyutani, uni joriy qilish sohasidagi qiyinchiliklar va muammolar haqida gap ketganda, Prezidentimizning O‘zbekiston Milliy axborot agentligi muxbiri savollariga javoblari xususida ham to‘xtalib o‘tish o‘rinli bo‘ladi. Muxbirning “go‘yo pul islohoti bo‘lishi va o‘zbek so‘mini qat’iy valyutaga almashtirish muammolari to‘g‘risida tarqatilgan mish-mishlardan maqsad nima deb o‘ylaysiz, degan savoliga, Islom Abdug‘aniyevich shunday deb javob qaytardi: «Ular ham men yuqorida aytgan maqsadlarni ko‘zda tutishmoqda. O‘zbekiston hukumati o‘tkazayotgan siyosatni badnom qilishga, aholi orasida ishonchsizlik va shubha urug‘ini sochishga va shu yo‘l bilan respublikadagi vaziyatni beqarorlashtirishga harakat qilishmoqda. Bu savolga javoban yana nimalar deyish mumkin? ... Biz muomalaga chiqargan milliy valyuta – so‘m hozirgi vaqtida barqaror mustahkamlanish tamoyiliga ega. Bunga avvalo, islohotlarni amalga oshirish natijasida umumiyligi iqtisodiy barqarorlashish, 1996 - yilning boshlarida ko‘zga tashlangan ishlab chiqarishning barqaror o‘sish sur’atlari va ichki iste’mol bozorining raqobatbardosh tovarlar bilan to‘ldirilgani yordam bermoqda. Moliyaviy barqarorlik, davlat qarzining yo‘qligi va eng muhimi – bizda ish haqi, stipendiya va nafaqalarni to‘lashda qarzning yo‘qligi ham milliy valyutaning barqarorligi tufaylidir.

Shu bilan birga milliy valyuta-so‘m qiymatining xorijiy valyutaga nisbatan barqarorligini ham e’tiborga olish kerak. Deyarli barcha

viloyat, shahar va tumanlarda sarflanayotgan sarmoya hajmining tobora ortib borayotgani, respublika iqtisodiyoti uchun hayotiy muhim ishlab chiqarish inshootlari qurilayotgani va ishga tushirilayotgani ham milliy valyuta barqarorligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda” (9-17).

Sodda qilib aytganda, har qaysi kishining cho’ntagida bo‘lgan puliga bozorlarimizda yetarli darajada kerakli mol va ehtiyojimizni qoplaydigan har xil xizmat turlarini sotib olish mumkin bo‘lgan.

“Milliy pulga ega bo‘lish ham bir saodat, - deydi Islom Abdug‘aniyevich, - hamma gap ana shu saodatning qadriga yetishda....

... biz o‘z pulimizni mustaqilligimiz belgilaridan biri sifatida asrab-avaylashimiz, uning kuch-qadri baland bo‘lishi yo‘lida fidokorona mehnat qilishimiz lozimligidir. Zero, milliy pulimiz milliy g‘ururimiz demakdir” (7-5).

Uchinchi masala. O‘zbekistonni bugun butun dunyo tanidi. Jahonning eng yirik, taraqqiy etgan davlatlar bilan diplomatik aloqalar o‘rnatalgan. O‘zbekiston ko‘pgina mamlakatlar bilan iqtisodiy, siyosiy, madaniy hamda huquqiy hamkorlik to‘g‘risida bir qator juda muhim hujjatlarni imzoladi.

Sobiq ittifoqdosh respublikalar bilan jamiyat hayotining turli sohalari bo‘yicha do‘ston, o‘zaro teng huquqli munosabatlar tobora mustahkamlanib bormoqda.

Dunyoning nufuzli davlatlari bilan strategik hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. Ha, mustaqillik bizga chet ellarga keng eshik ohib berdi. Yakkahokimlik tizimi sharoitida O‘zbekiston xalqaro maydonga to‘g‘ridan-to‘g‘ri va ochiq chiqish imkoniyatidan mahrum edi. Bizda tashqi siyosiy davlat idoralari yo‘q edi. Diplomatlar tashqi siyosiy, iqtisodiy, madaniy faoliyat sohasida mutaxassislarga ega emas edi. Ana shunday kadrlar tayyorlaydigan institut ham tashkil qilinmagan edi.

Tashqi savdo masalasida, hamma valyuta hisob-kitoblarini faqat ittifoq idoralari amalga oshirar edi. Tabiiy, xomashyo resurslari, yetishtirilgan turli qimmatbaho mahsulotlar qayoqqa ketayotgani, ularni chet ellarga sotishdan tushayotgan mablag‘ nimalarga va qanday sarflanayotganidan butunlay bexabar edi. Chet ellardan zarur texnika va texnologiyalarni, shuningdek, xalq iste’mol mollarini qancha va qachon olib kelish masalasida ham tamomila markazga qaram edi. Biz chet davlatlar bilan qanday munosabatda bo‘lish, tashqi savdoni o‘z milliy manfaatlarimiz ustuvorligini ta’minlagan holda tashkil etish sohasida zarur tajribaga ega emas edik.

Xullas, xalqaro miqyosda obro‘-e’tibor qozonish , xalqaro huquqning teng huquqli subyekti sifatida tan olinishga erishish uchun juda ko‘p ishlarni amalga oshirish zarur edi. Ba’zida esa umuman boshidan boshlashga ham to‘g‘ri kelgan edi. Tashqi siyosatni amalga oshirish yo‘nalishlarini belgilashda qanday tamoyillarga asoslanish kerak?

Bu savolga javob berar ekan, Islom Abdug‘aniyevich, quyidagi asosiy prinsiplarni ko‘rsatib o‘tdi:

-o‘z milliy davlat manfaatlari ustuvorligini ta’milagan holda, o‘zaro manfaatlarni har tomonlama hisobga olish;

- O‘zbekiston odamlar va davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarda umumbashariy qadriyatlarni ustun qo‘yib, xalqaro maydonda tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash uchun, mojarolarni tinch yo‘l bilan hal etish uchun kurashadi;

- respublikaning tashqi siyosati teng huquqlilik va o‘zaro manfaatdorlik, boshqa mamlakatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalari asosida quriladi; -mafkuraviy qarashlardan qat’iy nazar tashqi siyosatda ochiq-oydinlik prinsipini ro‘yobga chiqarishga va barcha tinchliksevar davlatlar bilan keng tashqi aloqalarni o‘rnatishga intiladi;

- O‘zbekiston ichki milliy qonunlardan xalqaro huquq me’yorlarining ustuvorligini tan oladi.

- Respublika to‘la ishonch prinsiplari asosida ham ikki tomonlama, ham ko‘p tomonlama tashqi aloqalarni o‘rnatish va rivojlantirish uchun xalqaro tashkilotlar doirasida hamkorlikni chuqurlashtirish uchun harakat qiladi (21-51,52).

O‘zbekiston tashqi siyosatining diqqat markazida Mustaqil Davlatlar Hamdo‘sligi tarkibidagi mamlakatlar bilan o‘zaro teng va manfaatli aloqalarni mustahkamlash vazifasi turibdi.

“Chunki, deb izohlaydi Prezidentimiz o‘z nutqida, keyingi oltmis yil davomida hukm surgan markazlashtirilgan buyruqbozlik siyosati, mustabidlik siyosati barchamizni uzluksiz tarzda, birinchi navbatda, iqtisodiy jihatdan o‘zaro ipsiz bog‘lab qo‘ygan edi. Buning ta’sirini bugungi hayotimizda har qadamda sezib turibmiz. Oxirgi ikki-uch yilda bir narsani yaxshi anglab oldik: Agar sobiq Sovet Ittifoqi tarkibidan chiqqan mustaqil davlatlar bugungi qiyinchiliklarni yengish, iqtisodiy inqirozdan qutilish maqsadida bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilsalar, bu narsa barcha xalqlarga ma’qul siyosat bo‘lur edi” (6-29).

O‘zbekiston hamdo‘slik doirasida boshqa mustaqil mamlakatlar bilan faol hamkorlik qilsa, ko‘p samarali natijalarga erishadi.

Birinchi navbatda Birlashgan Qurolli Kuchlar yordamida milliy mudofaa muvofiqlashadi, milliy hudud yaxlitligi va davlat chegarasi himoya qilinadi.

Hamdo'stlikdagi boshqa davlatlarning fan-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan, texnologiyalar, telekommunikatsiyalar, kosmik aloqa vositalaridan bahramand bo'ladi. Zarur xomashyo va tayyor mahsulotni, shu jumladan, xalq iste'moli mollarini jahon narxlaridan past narxlarda sotib olish, shuningdek o'z mahsulotini sotish uchun keng ko'lamli bozorga chiqish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Transport tarmoqlaridan foydalanish, dengiz portlariga chiqish imkonи tug'iladi. Xorijiy mamlakatlarga o'z mollarini tranzit yo'li bilan yetkazib berishga yo'l ochiladi. Shuningdek, hamdo'stlik davlatlari bilan keskin ekologik muammolarni birgalikda hal etishiga sharoit tug'iladi.

Tashqi davlatlar bilan o'zaro munosabatlar haqida gap ketganda birinchi navbatda qudratli va buyuk qo'shnimiz Rossiya bilan aloqalarimizni har tomonlama chuqurlashtirib va mustahkamlab borishimiz nihoyatda zarurligini ta'kidlash o'rnlidir. Rossiya O'zbekistonning mintaqada tutgan o'miga odilona baho berib, bizni teng huquqli ittifoqchi sifatida tan oldi, u bizning eng qudratli strategik hamkorimiz o'isoblanadi. Iqtisodiyotimiz ko'p jihatdan Rossiya bilan bog'liq.

Buning boisi nima?

Prezidentimiz bu savolga o'zining "Iqtisodiy islohot: mas'uliyatli bosqich" asarida aniq-ravshan javob berdi:

"Birinchi sabab shuki, – deb yozgan edi u, – bizning mamlakatimizning xavfsizligini, ichki vaziyatning barqarorligini ta'minlash uchun ulkan qo'shnimiz Rossiya davlati bilan barcha sohalarda samarali hamkorlik qilishimiz zarur. Rossiya salohiyatiga, kerak bo'lsa, Rossiyaning harbiy imkoniyatlariga suyanishimiz lozim" (4-18,19).

Davlatimiz rahbari O'zbekiston uchun, umuman Markaziy Osiyo uchun barqarorlikning garovi, deb takror-takror uqtirib keladi. Uning aytishicha, agar biz shu barqarorlikning garovini topmasak, mamlakatimizga yomon niyat bilan qarovchi kuchlarning jilovini tortib turishga ko'maklashadigan ishonchli hamkorga ega bo'lmasak, yurtimizda tinchlik va osoyishtalikni saqlash qiyin bo'ladi.

Bu dunyoda mutlaqo erkin, hech kimga, hech qanday davlatga bog'liq bo'lмаган davlat yo'q. Prezidentning fikricha, oldin ikkita buyuk davlat bor edi. Sovet ittifoqi bilan Amerika. Endi esa bitta qoldi,

ya’ni dunyo «bir qutbli» bo‘lib qoldi. Aslida jahonda ikki-uchta qutb, aytaylik, ikki-uchta markaz bo‘lsa, qandaydir siyosiy muvozanatni ushlab turish mumkin. Nisbiyadolat o‘rnatish mumkin. Bordi-yu dunyoda yagona siyosiy kuch hukmronlik qiladigan bo‘lsa, uning tazyiqini kim to‘xtata oladi? Kim uning gapini o‘z vaqtida qaytaradi yoki dunyo miqyosidaadolatni himoya qilib chiqadi? Prezidentning bu gaplarida juda chuqur ma’no bor. Ularni to‘g‘ri tushunib, yaxshilab uqib olish kerak.

Xo‘sh, O‘zbekistonning Rossiya bilan yaqinlashuvining ikkinchi sababi nimada? Bunga javoban shuni aytish kerakki, bizda biror korxona yo‘qki, Rossiya bilan bog‘lanmagan bo‘lsa. Hammaga yaxshi ma’lum xo‘jaligimizning turli tarmoqlari uchun zarur turli uskunalar va jihozlarning, sanoat mollarining ko‘pchilik qismi asosan Rossiyadan sotib olinadi. Shunday ekan, biz Rossiya bilan yaqindan aloqa qilmay, kimga murojaat qilishimiz mumkin??!

Uchinchi sabab xususida gapirsak, xalqimiz Rossiya bilan yuz yillar davomida qo‘ni-qo‘shnichilik qilib, juda ko‘p sohalarda hamkorlik qilib kelayotganini hamma yaxshi biladi. Bu yerda Rossiya bilan do‘stlik va madaniyat sohalaridagi aloqalarimiz xususida so‘z bormoqda. Bunday aloqalarni bundan buyon ham yanada kuchaytira borish har ikki tomonning manfaatlariga mos keladi. Har doim o‘zaro hurmat va teng huquqlilik sharoitida aloqa qilib kelganmiz. Endi “katta og‘a” degan gaplarning bizga keragi yo‘q. Ular ham bizga hurmat bilan qaraydi, biz ham ularga ana shunday hurmat bilan qaraymiz. Prezident shu yerda so‘nggi vaqtarda o‘sha “katta og‘a”ning o‘rnini egallahga urinayotgan ayrim kuchlar ham paydo bo‘layotganiga e’tiborni qaratdi. Uning aytishicha, ba’zi qo‘shni davlatlar ana shunday da’volarga zo‘r bermoqda. Hatto bizning soddaligimizdan, nisbatan tajribasizligimizdan foydalananib, halol hamkorlik o‘rniga g‘irromlik yo‘liga o‘tish hollari ham sezilib qolmoqda. Ba’zan bizga eskirgan texnologiya va uskunalarni olib kelib, xo‘jalik rahbarlari va ish bilarmonlarimizni chuv tushirishga urinish hollari ko‘zga tashlanmoqda. Biz albatta bunday hollarga yo‘l qo‘ymaymiz. Biz bilan nayrangsiz, beg‘araz munosabatda bo‘lishlari shart. Biz “katta og‘a” ga ham, “kichik og‘a”ga ham muhtoj emasmiz. Kimda – kim biz bilan hamkorlik qilmoqni istasa, biz bilan o‘zaro teng va manfaatli tarzda gaplashsin.

Nafaqat Rossiya, ayni vaqtda boshqa davlatlar, jumladan, Markaziy Osiyo Respublikalari va Qozog‘iston bilan ham do‘stona, qardoshlik munosabatlari o‘rnatilgan. Bundan keyin ham bu munosabatlarni har

tomonlama rivojlantirib boraveramiz. Ular bilan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni yanada rivojlantirib, ilmiy va madaniy hamkorlikni kengaytirish bundan buyon ham O‘zbekiston tashqi siyosatining g‘oyat muhim ustuvor yo‘nalishi bo‘lib qolaveradi.

Ma’lumki, O‘rta Osiyo Respublikalari va Qozog‘iston iqtisodiyoti o‘zaro chambarchas bog‘langan va ularning bir-biriga ta’siri katta. Shu bois ular bilan bo‘lgan xo‘jalik aloqalarini hozirgi murakkab va og‘ir sharoitlarda ham to‘la-to‘kis saqlab qolish va mustahkamlash nihoyatda zarurdir. Jahon xo‘jalik aloqalari tizimiga kirish uchun birinchi navbatda Osiyo va Tinch okeani mintaqasidagi mamlakatlar bilan ham tashqi aloqalarni o‘rnatishga intilish davr talabidir.

O‘zbekiston musulmon davlatlari bilan ham o‘zaro munosabatlarini ko‘p tomonlama asosda chuqurlashtirishga harakat qilmoqda. Mamnuniyat bilan aytish joizki, arab mamlakatlari bilan, avvalo Saudiya Arabistoni bilan qalin aloqalar o‘rnatish yo‘lida dastlabki qadamlar qo‘yildi.

O‘zbekistonning Osiyodagi Xitoy va Hindiston singari buyuk davlatlar bilan ham munosabatlari samarali rivojlanib bormoqda.

Janubiy – sharqiy Osiyodagi yangi industrial mamlakatlar bilan teng huquqli munosabatlarni yo‘lga qo‘yish O‘zbekiston tashqi siyosatini kuchaytirishning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Keyingi paytlarda Evroosiyo ittifoqini tuzish haqidagi shov-shuvlar ko‘pchilikning diqqatini tortdi. Aytishlaricha, bunday ittifoqda yagona parlament, yagona davlat tili, yagona fuqarolik, markaziy boshqaruva organlari bo‘lar emish. Bu sobiq sovet ittifoqidan nimasi bilan farq qiladi?!

Eski tuzumni qo‘msaganlar bugungi qiyinchiliklarni ro‘kach qilib, ulardan foydalanib, o‘zlarining qabih niyatlariga erishmoqchi bo‘lmoqdalar. O‘zbekiston esa hech qachon ortga qaytmaydi. “Oldinda bitta yo‘l bor: istiqlol yo‘li, mustaqil davlatchilik va taraqqiyot yo‘li. Eski tuzumga qaytish, bo‘ynimizni yana o‘scha eski bo‘yinturuqqa tiqib berish, yana takrorlab aytaman, ming yillik tariximizga, xalqimizga, bugun bizga umid bilan boqib turgan farzandlarimizga xiyonat, kelajak avlodlarimiz aslo kechirmaydigan gunoh bo‘ladi” (6-33).

4 - mavzu: Biz o‘z kuch va imkoniyatlarimizga tayanamiz

Reja:

1. O‘zbekiston ulkan imkoniyatlar mamlakati.
2. Biz ona yurtimiz bilan faxrlanamiz va pirovard maqsadimizga erishishimizga ishonamiz.
3. Hamma gap ahilllikda, yakdillik va birdamlikda.

Birinchi masala. Mustaqillik qo‘lga kiritilgandan keyingi dastlabki yillardayloq Prezidentimiz bashorat qilib “O‘zbekiston kelajagi buyuk davlat” deb g‘urur bilan aytgan edi. Ana shu bashorat ilk bor yangragan o‘sha sessiyadan buyon mana salkam 23 yil o‘tdi. O‘zbekiston Respublikasining Oliy kengashining XI sessiyasi (1992 yil 8-10 dekabr) da aytilgan bu so‘zlar allaqachon o‘z isbotini topib tarixdan joy o‘ldi.

Islom Karimovning yuksak minbardan turib faxr va komil ishonch bilan shunday deyishiga barcha asoslar mavjud edi.

Chindan ham O‘zbekistonning kelajagi buyuk, u benihoya boy davlat. Alloh nazari tushgan go‘zal va ko‘rkam diyor. O‘zbekiston ulkan imkoniyatlar mamlakati, uning boyliklarini hisoblab hisobiga yeta olmaysan. Alloh bu dunyoda bandalariga nimalarni lozim ko‘rib, ato etgan bo‘lsa, bari bizning yurtimizda mavjud.

O‘zbekistonning eng birinchi, betakror boyligi – bu uning mehnatsevar xalqi. Juda qadim zamonlardan buyon, azal-azaldan suyagi mehnatda qotgan, qadoq qo‘llari mehnatda toblangan, chiniqqan xalq. Mehnatsiz turolmaydigan, bekorchilikni yoqtirmaydigan, tinib-tinchimas xalq. Alloh qalbida, qo‘li mehnatda bo‘lib kelgan xalq. Prezidentimiz “O‘zbekiston kelajagi buyuk” deb aytgan bo‘lsa, eng avvalo, ana shu xalqqa ishonib shunday degan.

Islom Abdug‘aniyevich iqtisodiy hamkorlik tashkiloti davlatlari rahbarlarining oliy darajadagi ikkinchi uchrashuvi (1993 - yil, iyul)da so‘zlagan nutqida O‘zbekiston boyliklari haqida to‘xtalib, bu borada batafsil so‘zlab berdi. U “Xo‘sh, bizning tasarrufimizda nimalar bor?” degan savolni qo‘yib, batafsil javob qaytardi. U barcha savdo-sanoat doiralariga, ishbilarmonlarga, barchaga maqbul xalqaro me’yorlar doirasida biz bilan hamkorlik qilishni xohlovchilarga quyidagi ma’lumotlarni taklif etdi. “O‘zbekiston oltin ishlab chiqarishning umumiylajmi bo‘yicha dunyoda sakkizinch o‘rinda, –dedi u o‘z nutqida, – va aholi jon boshiga oltin ishlab chiqarish jihatidan beshinch o‘rinda turibdi.

Mamlakatda topilgan 30 ta oltin konining jami zaxirasi 4000 tonnadan oshadi. Ammo ularning atigi 10 tasidan foydalanilmoqda. O‘zbek oltinining sifati dunyodagi oliy andozalarga mos keladi, keyingi yigirma yil mobaynida uning sifati haqida shikoyat tushgani yo‘q. So‘nggi ikki yilda esa uch marta xalqaro sifat sovrini bilan taqdirlandi.

O‘zbekistonda katta zaxiraga ega bo‘lgan o‘ttizta uran koni bor. Har yili 80 ming tonna mis qazib olyapmiz. O‘zbekistonndagi mis zaxiralari behisob, qo‘rg‘oshin, rux, volfram va boshqa strategik muhim nodir metallarning yirik konlari ham bor” (21-250-251).

Prezident shundan keyin energetika bazasi haqida to‘xtaldi. Uning aytishicha, aniqlangan gaz zaxiralari salkam ikki trillion kub metrni tashkil etadi, ko‘mir zaxiralari ikki milliard tonnadan oshadi, 140 tadan ko‘proq neft koni bor. Keyingi ikki yil ichida ochilgan neft va gaz zaxiralari energiya vositalari bilan o‘zimizni ta’minlash haqidagina emas, ularni chet ellarga sotish haqida ham gapirish imkonini beradi.

Yurtboshimiz o‘z so‘zida paxta, meva va sabzavotchilik haqida qisqacha gapirib o‘tdi.

Asosiy boyligimiz - paxta. Butun Markaziy Osiyoda ikki million tonnaga yaqin paxta tolasi yetishtirilayotgan bo‘lsa, shuning 1,5 million tonnasini O‘zbekiston yetkazib bermoqda.

Shuni aytib o‘tish o‘rinliki, O‘zbekiston paxta yetishtirish jihatidan dunyoda to‘rtinchı o‘rinni egallab turibdi. Bizning paxtamiz dunyoning juda ko‘p mamlakatlari MDH, Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlarida bajonidil xarid qilinadi.

Sobiq Sovet Ittifoqidagi barcha meva-sabzavotlarning 60 foizini O‘zbekiston yetishtirib bergan. Ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston sobiq Ittifoqda sabzavot va meva yetkazib beruvchi asosiy manba bo‘lgan. Hozirda ham mamlakatimizda 5 million tonnagacha meva hosili olinyapti. Biz bu sohada istagan chet davlatlar bilan hamkorlik qilishga tayyormiz. Prezident bizda yetishtirilayotgan sabzavot va mevalarning ko‘pi o‘zining ta’mi jihatidan noyob hisoblanishini faxr bilan ta’kidlab o‘tdi. Bu sohada biz har tomonlama hamkorlik qilish tarafdomiz. Bizga meva-sabzavot mahsulotini qayta ishlaydigan, saqlaydigan, tashib beradigan, o‘rash materiallari tayyorlaydigan korxonalar kerak.

Shvetsariyadagi “Forum fond” xalqaro iqtisodiy tashkilotning 4 - sessiyasi (1993 - yil 18 - iyun)da so‘zlangan nutqdan O‘zbekistonning bir qator boshqa boyliklari, imkoniyatlari haqida ham juda qimmatli dalillarni bilib olish mumkin. Chunonchi, O‘zbekistonda transportning rivojlangan ichki ko‘makchi sohalari ham ko‘p. Lekin, xalqaro transport

yo'llarini rivojlantirishga ehtiyoj juda katta. Dunyodagi asosiy transport yo'llariga, shu jumladan, dengiz yo'llariga chiqish nihoyatda zarur. Keyingi vaqtida bu sohada muayyan ishlar qilinmoqda. Chunonchi transport qatnovlarini kengaytirish yuzasidan bir qator chet davlatlar bilan shu jumladan, Afg'oniston, Eron, Pokiston, Turkiya, Xitoy bilan bitimlar tuzildi. Germaniya firmalari bilan faol hamkorlik yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston turizmni rivojlantirish uchun ham ajoyib imkoniyatlarga ega. Samarqand, Buxoro, Xiva kabi qadimiy shaharlar butun dunyoga mashhur. Qadim zamonlarda "Buyuk ipak yo'li" shu shaharlar oralig'idan o'tgan. Respublika hududida to'rt mingdan ortiq monumental me'morchilik yodgorliklari bor, ularning ko'plari YUNESKO muhofazasiga olingan. Tabiat, iqlim sharoitlari sayohatchilarni qishin-yozin qabul qilish imkoniyatini beradi.

O'zbekiston ulkan imkoniyatlar mamlakati ekanligini isbotlovchi dalillar Prezidentning yana bir fundamental asarida (10-227-252). yanada kengroq bayon etilgan. Mazkur asarning "jo'g'rofiy-strategik imkoniyatlari va xomashyo resurslari" ruknida bu to'g'rida batafsil to'xtalib o'tilgan. Ana shu ruknda yozilishicha, O'zbekiston o'z yerosti boyliklari bilan haqli ravishda faxrlanadi. Bizda mashxur Mendeleyev davriy sistemasining deyarli barcha elementlari topilgan. Hozirga qadar 2,7 mingdan ziyod turli foydali qazilma konlari va ma'danlar namoyon bo'lgan istiqbolli joylar aniqlangan. Ular 100ga yaqin mineral-xomashyo turlarini o'z ichiga oladi. Shundan 60 dan ortig'i ishlab chiqarishga jalb etilgan. 900 dan ortiq kon qidirib topilgan bo'lib, ularning tasdiqlangan zaxiralari 970 milliard AQSh dollarini tashkil etadi. Shu bilan birga, umumiylar mineral-xomashyo potensiali 3,3 trillion AQSh dollaridan ortiqroq baholanayotganini ham aytib o'tish kerak (10-230). Juda ko'p boshqa konlar ham mavjud. Xali mavhum strategik manbalar, neft va tabiiy gaz konlari aniqlangan, ya'ni qimmatbaho metallar bo'yicha – 40 dan ortiq rangli, nodir va radioaktiv metallar bo'yicha – 40 ta, konchilik-kimyo xomashyosi bo'yicha 15 ta kon qidirib topilgan. Bu raqamlarni o'qir ekansiz, yaxshilab o'ylab qarasangiz, yurtimiz haqiqatdan ham juda boy imkoniyatlarga ega ekanligidan g'ururlanasiz. Bu konlardan oqilona foydalana olsa, davlatimiz naqadar ravnaq topishi mumkinligiga takror va takror ishonch hosil qilasiz. Shunisi qiziqliki, qidirib topilgan foydali qazilmalarning hozirgi darajasi va u bilan bog'liq holda qimmatbaho, rangli va nodir metallar, barcha turdag'i zaxiralari – neft va gaz

kondensati, tabiiy gaz, ko‘pgina mineral xomashyo va qurilish materiallari turlariga g‘oyat boy konlarini o‘zlashtirish respublikaning kelajagiga ishonch bilan qarash imkoniyatini beradi. Har yili respublika konlaridan taxminan 5,5 milliard dollar miqdorida foydali qazilmalar olinmoqda. Yana ularning yoniga 6-7 milliard dollarlik yangi zaxiralarni qo‘sksak, bu hazilakam boylikmi?!

O‘zbekiston bir qator foydali qazilmalar jihatidan nafaqat MDH davlatlari orasida, shu bilan birga hatto butun dunyoda yetakchi o‘rinni egallashiga ishonch hosil qilasan. Bu yerda oltin, uran, mis, tabiiy gaz, vol’fram, kaliy tuzlari, fosforitlar nazarda tutilmoqda. Takror bo‘lsada aytish kerakki, oltin zaxiralari bo‘yicha respublika dunyoda 4-o‘rinda, uni qazib olish bo‘yicha 7-o‘rinda, mis zaxiralari bo‘yicha 10-11 o‘rinda, uran zaxirasi bo‘yicha 7-8 o‘rinda turibdi.

Prezidentning mazkur asarida yozilishicha, ko‘pchilik mineral xomashyoning tayyorlangan zaxiralari mavjud tog‘-kon sanoati komplekslarining uzoq muddat davomida ishlab turishini ta’minlabgina qolmay, shu bilan birga bir qator strategik foydali qazilmalarni qazib olish quvvatlarini oshirishga ham imkon beradi (10-231). Mavjud imkoniyatlar hozirning o‘zidayoq O‘zbekiston mineral xomashyoni qazib olish va qayta ishlashda yetakchi o‘rinni egallashini ta’minlamoqda.

Respublikada neft va gaz mavjud bo‘lgan beshta asosiy mintaqalar bor. Bular: Ustyurt, Buxoro-Xiva, Janubiy-G‘arbiy Hisor, Surxondaryo va Farg‘ona mintaqalaridir. Qidirib topilgan zaxiralar respublika ehtiyojini tabiiy gaz bo‘yicha 35 yildan ko‘proq, neft bo‘yicha 30 yilgacha qoplaydi. Neftning 40 foizidan ortiqrog‘i arzon favvora usulida olinmoqda. 1992 - yilda Namangan viloyatida istiqbolli Mingbuloq neft koni ochildi. Uni sanoat usulida ishlatish O‘zbekistonning neft mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini to‘la ta’minalashga imkon beradi. O‘zbekistonning neft va gaz konlari quduqlarining mahsuldarligi, qazib olish tannarxi bo‘yicha qo‘shti mintaqalarning konlaridan sezilarli darajada ajralib turadi. Neft zaxiralarining qazib olinganlik darajasi boryo‘g‘i 32 foizni tashkil etadi. Holbuki bu ko‘rsatkich Turkmanistonda 61foizga, Qozog‘istonda 41 foizga, Tojikistonda 60 foizga teng, tabiiy gaz bo‘yicha ham ahvol shunday. Qazib olinayotgan gazlar tarkibida etan, propan, butan va boshqa komponentlar bor. Ular polimer materiallar ishlab chiqarish uchun ishlatiladi.

Keyingi yillarda O‘zbekistonda Farg‘ona va Oltiariq neftni qayta ishlash hamda Sho‘rtan va Muborakda gazni qayta ishlash zavodlari

ishlab turibdi. O‘zbekistonda benzin, aviakerosin, aviabenzin, neft moylarining xilma-xil turlarini, suyultirilgan gaz va boshqalarni olish yo‘lga qo‘yilgan. Hozirda 40 ta qimmatbaho metall konlari qidirib topilgan. Qizilqumdagagi konlar, jumladan, Muruntov koni dunyodagi gigant konlar jumlasiga kiradi. Respublikada kumush konlari ham bor. Jumladan, Navoiy viloyatidagi Vesokovol’noe, O‘qjetpes, Namangan viloyatidagi Oqtepa konlari. O‘zbekistonda 50-60 yil davomida tox‘tovsiz uran qazib olish mumkin. Ruspublikada mis, qo‘rg‘oshin, rux, volfram va shu guruhga kiruvchi boshqa metallarning zaxiralari aniqlangan. Mis rudalari bilan birga rangli metallarning 15dan ortiq turi, chunonchi, oltin va kumushdan tashqari molibden, kadmiy, indiy, billur, selen, reniy, kobalt, nikel va boshqalar ham qazib olinadi. Ishlab turgan konlar asosan ochiq usulda mis va unga yo‘ldosh metallarni 40-50 yil va qo‘rg‘oshinni 100 yildan ko‘proq qazib olishga yetadi.

Prezidentimizning yuqorida ko‘rsatilgan asarlari bilan birma-bir, diqqat bilan tanishib chiqilsa, O‘zbekistonda boshqa ko‘pgina nodir boyliklar zaxiralari borligi va ulardan birma-bir oqilona foydalanila borish Respublikamizni juda ko‘p va xilma-xil xomashyo va metallar bilan uzoq yillar davomida ta’minlab turish mumkinligi ma’lum bo‘ladi.

Qisqasi, jonajon yurtimiz naqadar boy, naqadar ulkan imkoniyatlarga ega ekanligini bilib olish uchun asosan Prezidentimizning bizga yuqorida ko‘rsatib o‘tgan ikki muhim fundamental asari ya’ni “O‘zbekiston ulkan imkoniyatlar mamlakati” hamda “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida. Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” nomli asarlari bilan yaqindan tanishish talabalarga bu masalada to‘liq ma’lumotga ega bo‘lish imkoniyatini beradi.

Ikkinchchi masala. Asrlar davomida ne-ne mashaqqatlarni, azob-uqubatlarni boshidan kechirgan, ne-ne qiyinchiliklar, kamsitishlar, azob-uqubatlarga chidab, barcha to‘siqlar, yetishmovchiliklardan eson-omon chiqsa olgan xalqimiz endilikda, mustaqillik sharofati bilan yurtimizda hukm sura boshlagan tinchlik va barqarorlikdan bahramand bo‘lib, musaffo istiqlol havosidan erkin, miriqib, to‘yib-to‘yib nafas olmoqda. Bizga ana shunday farovon, charog‘on, to‘kin-sochin, muhimi osuda hayot baxsh etgan Allohga shukronalar aytib hur va bekamu-ko‘st turmush kechira boshladik. To‘g‘ri, hali hayotimizda ko‘p narsalar etishmaydi, ko‘p narsalarga hali erisha olganimiz yo‘q, ammo hozirgi hayotdan nolimaymiz, hech kimdan kam emasmiz, qo‘limiz hammayoqqa yetadi. Prezidentimiz aytganidek, halqimiz boshidan kechirayotgan ayrim qiyinchiliklar, turmush darajasining pasaygani,

qimmatchilik, yetishmovchilik, qonunga zid xatti-harakatlar, tartib-intizomning bo'shashi, avvalambor, sobiq ittifoqning parokanda bo'lib ketgani asoratidir. Ko'p yillar davomida yurtimizda bepisandlik va zo'ravonik bilan siyosat o'tkazish natijasida iqtisodiyotimizni, xo'jaliklarimizni qaramlik holiga, nuqlu xomashyo chiqaradigan hudud holiga olib kelib qo'ygani oqibatidir (10-97).

Islom Abdug'aniyevich Toshkentda bo'lib o'tgan turkistonik o'zbeklarning birinchi xalqaro uchrashida (1991 yil 24 sentyabr) so'zlagan nutqida aytgan mana bu so'zlari bejiz emas.

"Biz yaxshi tushunamizki, – degan edi u ana shu nutqida, –hech qaysi tuzum, hech qanday hokimiyat, shunday ulkan, qimmatbaho xomashyoni arzongina yetkazib beradigan, aslida mustamlaka holiga tushib qolgan yurtni o'z xohishicha, osonlikcha qo'lidan chiqarmaydi. Buni biz hammamiz juda yaxshi anglashimiz zarur.

Biz o'z kuchimizni yaxshi bilamiz, o'z xalqimizga ishonamiz. Biz tinchlik va osoyishtalik tarafidamiz va faqatgina tinchlik yo'li bilan, biron ta insonning burnini qonatmasdan o'z maqsadlarimizga erishishga harakat qilamiz va o'z niyatimizga erishamiz, inshoollo!"(12-54). Lekin shuni unutmaslik kerakki, bizning yana kimlargadir qaram bo'lishimizni istaydigan makkor va qo'poruvchi kuchlar, kimsalar tarix sahnasidan ketgan emas.

"Ular yoshlarimizni o'z ig'volari domiga tortish yo'li bilan o'z qora niyatlarini amalga oshirishga intilmoqdalar. Bizning erkinligimiz va mustaqilligimizni ko'rolmaydigan baxil kishilar hatto bazan din ahlini nizo girdobiga tortishga, mazhablar orasida janjal ko'tarib, fojea chiqarishga harakat qilmoqdalar. Bunga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Buning uchun barcha hushyor bo'lishi zarur. Mo'tabar oqila onalarimiz, ulug'larimiz, mahalla oqsoqollarimizning bu ishdagi ko'magi beqiyos bo'ladi" (12-98).

O'zbekiston Prezidenti bu haqda juda ko'p asarlari, suhbatlari, nutqlari, uchrashuvlarida takror va takror aytib, uqtirib kelmoqda. Bu – bejiz emas.

Mustaqillik tufayli erishgan tinchligimiz, barqarorligimiz, osuda-osoyshta hayotimizga qora kuchlar, bizni ko'rolmaydigan, qo'lga kiritayotgan muvaffaqiyatlarimizdan o'zini qayoqqa urishni bilmay yurgan qora niyatli kimsalar rahna solmasligi uchun doimo sergak, ogoh bo'lishimiz shartdir, albatta.

Biz xalqimizga, odamlarimizga ishonamiz. Shuni quvonch bilan ta'kidlash o'rinliki, qisqa muddat mobaynida yurtdoshlarimizning,

halqimizning dunyoqarashida keskin o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Istiqlolning dastlabki yillaridanoq jonajon diyormizda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar odamlarimizga, xalqimizga ishonch va umid bag‘ishlamoqda. Istiqlol odamlarda vatan tuyg‘usini kuchaytirdi. Kishilarimizda Vatanga, ona zaminga mehrli munosabati shakllanmoqda.

“Bugun Vatanning har bir asl farzandi o‘zini ona yerning ajralmas bo‘lagi deb his etyapti va bundan faxrlanyapti. Istiqlol bergen eng katta boyliklardan birinchisi ana shu desak, aslo yanglishmagan bo‘lamiz.

Vatan, vatandoshlik tuyg‘usi eski mafkuraviy qobiqlardan xalos bo‘lib, o‘zining asl qiyofasini topdi. Istiqlol qo‘lga kiritilganidan so‘ng biz o‘z kuchimiz, qudratimizga ko‘proq ishona boshladik. Bugun biz o‘zaro birlashib, tom ma’nodagi xalq bo‘lib, mayda-chuyda ig‘volarga mutlaqo e’tibor bermaydigan kuchga aylandik. Biz bir narsani aniq bilamiz, vaqt kelib O‘zbekiston davlati rosmana kuch-qudrat kasb etadi. O‘z boyligiga, o‘ziga xos va g‘oyat mukammal hamda buyuk davlat tizimiga ega bo‘ladi” (21-104,105).

Milliy istiqlolimizning otashin kurashchilaridan biri Abdurauf Fitrat bir sherida “Vatan-sajdagohimdir” degan fikrni bayon etgan. Chindan ham vatan biz uchun muqaddas dargoh, u biz uchun sajdagohdir. Bugun vatan men uchun nima berdi, deb emas, balki men vatanga nima bera oldim, degan ezgu fikr bilan yashayotganlar, elim deb, yurtim deb, yonib yashayotgan insonlar tobora ko‘payib bormoqda. Holbuki, sobiq ittifoq davrida kishilar ongida yaxshi ishlasam ham, yomon ishlasam ham davlat baribir boqaveradi, degan mafkura singib ketgan edi. Hamma narsa davlat mulki, degan aqida odamlarning miyasida mahkam kishilar mulkka egalik tuyg‘usidan begona bo‘lib qolgan edi.

Istiqlol odamlarimizga mulkka egalik hissini qaytarib berdi. Yaxshi ishlasam avvalo o‘zim, oilam naf ko‘radi, davlat ham naf ko‘radi. Boy bo‘lsam, davlat ham boyiydi, degan kayfiyat shakllana boshladi. Yana bir muhim jihat xalqimiz, kishilarimiz tanlagan yo‘limiz tamomila to‘g‘riligiga, ulug‘ maqsadimizga ishondi. Chunki hukumatimiz, rahbarlarimiz, xalqimizga quruq va’dalar berayotgani yo‘q. Balki aniq rejalar bilan amaliy ish olib bormoqda. Xalqimiz kundalik jo‘sinqin mehnat bilan band. U ayrim sobiq ittifoqdosh respublikalardagidek mitingbozlik, dabdababozlikka berilayotgani yo‘q. Qadamba-qadam yaratuvchanlik faoliyati bilan shug‘ullanayotganini ko‘rib turibmiz. Barcha o‘z ish joyida, ya’ni ishchi dastgoh yonida, dehqon dalada, vrach shifoxonada, muallim darsxonada. Ishning ko‘zini bilgan, kasb-korining

ustasi bo‘lgan kishilarda kelajakka, farovon va to‘kin-sochin hayotga ishonch paydo bo‘lyapti. Mehnatning samarasi va foydasi yaqqol sezilib turipdi.

Osoyishta va quvonchli kunlarda o‘z oilang davrasida, bir piyola choy ustida tinch o‘tirganingda, ba’zan xohlaysanmi-yo‘qmi baribir o‘tgan kunlaring, boshingdan kechirgan og‘ir damlar hayolingga og‘ib kelaveradi. Chindan ham bundan bir necha yil oldin paxta monokulturasidan bezganimizni bir eslab ko‘raylik.

Buning sabablari haqida to‘xtalib, Prezidentimiz O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi 11- sessiyasi (1992 - yil 8-10 dekabr)da so‘zlagan nutqida bu haqda shunday degan edi: “Asosiy sababi shuki, o‘zbek paxtasini kimdir qayoqqadir olib borib, qaysidir narxda, kimgadir sotish payida bo‘lardi. Bir e’tibor bering-a, “kimdir”, “qayoqqadir”, “kimgadir”, “qaysidir” yaqin o‘tmishda biz guvoh bo‘lgan savdolar ana shu so‘zlarda o‘z ifodasini topgan edi. Biz mehnatimiz mevasidan o‘zimiz bahramand bo‘lomasdik.

O‘zbek xalqi o‘z paxtasini o‘zi sotib, foydasini ham o‘zi olyapti va shu tariqa ko‘zi ochilyapti” (21-106). Kishilarimiz mehnatga chanqoq. Hamma yoshu-qari, erkak-ayol ishlashni xohlaydi. Qani menga ish bering, deydi. Hammaning ko‘ngli ko‘tarilgan. Xalqimizning ko‘nglini ko‘tarishda, Prezidentimiz alohida ta’kidlab o‘tganidek, uning qaddini rostlashda ko‘pchilik din vakillari, yuzlab imom-xatiblarimiz bizga yaqindan yordam berayotganliklarini zo‘r mammuniyat bilan ta’kidlash kerak.

Prezidentimiz mazkur asarida o‘zbekchilik haqida gapirib, bu to‘g‘ridagi o‘z fikr-mulohazalarini aytib o‘tdi. “O‘zbekchilik” degan olivjanob tushuncha borki, buni ayrim og‘ziga kuchi yetmaganlar noto‘g‘ri talqin etadilar. O‘zbekchilik – millatchilik degani emas. Ba’zi ig‘vogarlar “Karimov xalqni millatchilik yo‘liga boshlamoqda” degan fisqu-fujurlarni tarqatib yurganidan xabarim bor. Yo‘q, Karimov ham, u suyangan xalq ham millatchilik ko‘chasidan o‘tmagan va o‘tmaydi ham. Bizning oliy maqsadimiz – mustaqillik edi. Bunga erishdik. Mustaqillikning oliy maqsadi –o‘zbek xalqining izzatini joyiga qo‘yish. Biz yaxshi anglaymizki, o‘z izzati va qadrini bilgan inson millat ajratmaydi.O‘z kuchi va kelajagiga ishongan xalqning bag‘ri keng bo‘ladi” (21-106-107).

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq xalqimiz jipslashdi. Bir-biriga mehrli, oqibatli bo‘la boshladi. Bunday ahillik, birdamlik odamlarimizga umid va ishonch bag‘ishladi. Biz o‘tmishni butunlay qoralash bilan

ovora bo‘layotganimiz yo‘q. Unga malomat toshlarini otayotganimiz yo‘q. Xalqimizning o‘tmishiga tosh otish – gunohi azim, degan asl aqidaga amal qildik. Xalqimiz bag‘ri keng, donishmand va halol xalq. U hech qachon o‘zgalarning kmsitilishi, xor bo‘lishiga yo‘l qo‘ymagan va bundan keyin ham bunday qilmaydi. Odamlarimiz buyuk kelajakka katta umidlar bilan yashamoqda. Ular erishilgan va erishilayotgan muvaffaqiyatlar bilan haqli ravishda faxrlanadilar. Ammo ularga kibr-havo, manmanlik, boshqalarga o‘zgacha nazar bilan qarash butunlay yot.

Uchinchi masala. Mustaqillikning dastlabki nihoyatda og‘ir, murakkab, qiyinchiliklarga to‘la yillarini sabr-matonat, chidam bilan yengib bordik. Xalqimiz avvalgi, Sobiq Ittifoq davridagidek bu safar ham barcha g‘ov-to‘sqliarni bartaraf etib, pirovard maqsad sari sobitqadamlilik bilan, dadil harakat qilib bormoqda. Bu yo‘lda ularga Prezidentimizning oqilona, puxta o‘ylab olib borayotgan ichki va tashqi siyosati yo‘lchi yulduz bo‘ldi.

Xalqimiz ham chinakam matonat ko‘rsatdi. Rahbarimiz chizib bergen reja bo‘yicha astoydil, fidokorlik bilan belni mahkam bog‘lab ishladi. G‘oyat mushkul sharoitda o‘sha qiyin muammolar hal qilina bordi. Eng muhimi, uzlusiz ijtimoiy ta‘minot masalasi hal etildi. O‘sha vaqtida yigirma bir million nafardan iborat bo‘lgan xalqni boqish masalasi hal etildi. 1992-1993 va keyingi yillar ta‘minoti tartibga keltirildi.

O‘sha kunlarni eslab, Prezidentimiz islam Karimov o‘z nutqlarining birida shunday dedi: “Tashqi siyosatda, tashqi savdoda mutlaqo tajribasi bo‘lmasdan davlat birinchi kunlardan boshlab qaerda yutqazishi mumkin, qayerda yutishi mumkin, – degan jiddiy masalalarni yechishga to‘g‘ri keldi.

Xorijiy dunyo bozori, dunyo banklari va tijoratchi firmalar bilan aloqa bog‘ladik. Bu juda nozik masala. Qaysi davlat bizga qancha va qanday shart bilan sarmoya va qarz beradi? Birovdan qarz olib, keyin uning ilmog‘iga tushib qolmaymizmi? Ular bizga tazyiq o‘tkazmaydimi? Olgan qarzlarimiz bo‘ynimizda og‘ir yuk bo‘lib qolib ketmaydimi?

Minglab shunday savollarga javob izlashga va topishga to‘g‘ri keldi. Qarz olish oson, bu hammamizga ma’lum, lekin uni bir kun kelib to‘lash ham kerak. Biz faqat bugungi kunni emas, balki ertamizni, kelajak avlodlarni ham o‘ylashimiz kerak. Bugun biz xato qilib qo‘ysak, farzandlarimiz kelajakda qoqilib qolishini hisobga olmasak, bu – katta gunoh bo‘ladi.

Ozodligimizni, iqtisodiy mustaqilligimizni yo‘qotmasdan, kim bilan, qaysi davlat bilan munosabat o‘rnatmaylik, xalqimizning izzatini joyiga qo‘yadigan, uning tengligini ta’minlaydigan yo‘lni tanlashimiz kerak bo‘ladi. SHu bilan bir qatorda, mudofaa, harbiy xizmat masalalarini ham hal etish zarurligini hammamiz yaxshi tushunamiz” (21-4,5).

Prezident mazkur nutqida bir qancha nufuzli xalqaro tashkilotlar, O‘zbekistonni tan olgan davlatlar bilan aloqalar o‘rnatilgani xususida alohida to‘xtalib o‘tdi. O‘zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkilotining teng huquqli a’zosi bo‘ldi. Davlat mustaqilligini 130 mamlakat tan oldi. 1992-1994 yillar davomida ularning 45 tasi bilan diplomatik aloqalar o‘rnatildi. Toshkentda AQSh, Germaniya, Xitoy, Turkiya, Hindiston, Pokiston, Fransiya va boshqa davlatlarning elchixonalari ochildi.

O‘zbekiston Respublikasi Xelsinki shartnomasini imzoladi va shu bilan Yevropaga yo‘l ochdi. U Yevropani tiklanish va taraqqiyot banki, Xalqaro valyuta fondi, Jahon banki, Xalqaro tiklanish va taraqqiyot bankiga a’zo bo‘ldi.

O‘zbekiston Turkiya, Eron, Pokiston tomonidan tashkil etilgan Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (EKO)ga a’zo bo‘ldi. Turkiya, Xitoy, Koreya Respublikasi, Rossiya, Qozog‘iston va boshqa davlatlar bilan o‘zaro iqtisodiy va madaniy hamkorlik haqida bitimlar tuzildi. Shu tariqa O‘zbekistonning xalqaro obro‘sni tobora ortib bormoqda. Mana bu omillar ham xalqimizning O‘zbekistonning kelajagi porloq ekanligiga bo‘lgan ishonchni mustahkamlamoqda.

O‘zbekistonning mustaqillikni dastlabki (1991-1995) yillaridagi chet davlatlar, ayniqsa Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi bilan o‘zaro teng huquqli va manfaatli aloqalarni mustahkamlash yo‘lidagi sa’y harakatlarini yaxshi bilib, tushunib olish uchun “O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li” asarini takror-takror qunt bilan o‘qish, o‘rganish kerak bo‘ladi. Asarda Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligini tashkil qiluvchi mamlakatlar bilan bevosita va ko‘p tomonlama munosabatlarni rivojlantirish tashqi siyosatimizning yo‘nalishlaridan biridir, deyiladi. O‘zbekiston Hamdo‘stlik g‘oyasini qo‘llab-quvvatlab, uning tashkilotchilari tarkibiga kirdi, o‘zaro munosabatlarning teng huquqlilik asosida mustahkamlash va rivojlantirish kerakligini qattiq turib yoqladi. MDH tarkibida bo‘lish bizga asosiy maqsadimizga-mustaqillikka tezroq erishishga yordam beradi. O‘zbekistonning Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligiga a’zoligi biz uchun qanday ahamiyatga ega? degan masalaga Prezident mazkur asarida quyidagi asosli fikrlarni bildirdi. Uning fikricha, yangi mustaqillikka erishgan

respublikalar ilgari yagona davlatning tarkibiy qismlari edi. Ko‘p yillar mobaynida ular o‘rtasida muayyan ijtimoiy-iqtisodiy madaniy munosabatlar tarkib topgan edi. Bu munosabatlarning birdan uzilishi respublikalarning faqat o‘zidagina emas, balki butun mintaqqa va xalqaro maydonda ham vaziyatni chigallashtirib yuborishi mumkin.

Ikkinchidan, respublika iqtisodiyoti yagona transport va energetika tizimiga ega bo‘lgan sobiq umumittifoq iqtisodiy makoni doirasida shakllangan va rivojlangan. U boshqa mintaqalar bilan xo‘jalik aloqalarining chambarchas tuguni bilan bog‘langan bo‘lib, ular o‘rtasidagi o‘zaro hisob-kitoblar rubl makonida amalga oshirilgan. Bu aloqalarning uzilishi ishlab chiqarish hajmlarining pasayishi, iqtisodiy ahvolning yomonlashuviga, bu esa ijtimoiy muammolarning keskinlashuviga olib keladi. Yana bir jihat, bu respublikalarda yaqin qarindosh-urug‘chilik aloqalariga ega bo‘lgan ko‘p millatli aholi yashaydi. Munosabatlar uzsila ularning bordi-keldisi yo‘qoladi, aholi chegaralar ochiq bo‘lmagani sababli, bir joydan ikkinchi joyga borish imkoniyati, axborot uzatish erkinligidan mahrum bo‘ladi.

MDHga a’zolik xorijiy davlatlar bilan o‘zaro manfaatli aloqalar o‘rnatishga keng imkoniyatlar ochib beradi. O‘zbekistonning Hamdo‘stlik doirasida boshqa mustaqil davlatlar bilan faol hamkorlik olib borishi bir qator masalalarda muammolarning hal bo‘lishiga olib keladi. Chunonchi, Birlashgan Qurolli Kuchlar orqali milliy mudofaani muvofiqlashtirish, milliy hudud yaxlitligini va davlat chegarasini himoya qilishni yengillashtiradi. Shuningdek Hamdo‘stlik tarkibidagi davlatlarning fan-texnika taraqqiyoti yutuqlari, telekommunikatsiyalar va kosmik aloqa vositalaridan foydalanish ulkan istiqbol eshiklarini ochadi.

Ular bilan mustahkam ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni chuqurlashtirish va yanada rivojlantirish O‘zbekiston uchun suv va havodek zarur edi. Shuning uchun bu masala O‘zbekiston tashqi siyosatining muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Hammaga ma’lumki, mazkur respublikalarning iqtisodiyoti azaldan o‘zaro chambarchas bog‘langan va bir-biriga ta’sir etib keladi. Ularni yaxlit energetika, transport, irrigatsiya tarmoqlari, suv va gaz ta’minoti tizimi birlashtirgan. Meneral xomashyo resurslari va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sohasida ichki mintaqaviy kooperatsiya amal qilgan. Xalqimizda “qo‘sning tinch, sen tinch”, degan oliyjanob naql bor. Biz qo‘sni davlatlar bilan o‘zaro teng huquqli hamkorlik munosabatlarini o‘rnatsak, ko‘p masalalar osongina hal bo‘ladi.

Shunday ekan, do'stlik va o'zaro manfaatli aloqalarni yanada mustahkamlash hammamiz uchun muhimdir.

Mamlakatimiz rahbarining O'zbekiston televideniesi muxbirining savollariga javoblarida (1995 - yil 27 - oktyabr) aytganidek, bizning ajdodlarimiz bitta, biz azal-azaldan qarindosh-qondosh, qismatdosh bo'lib kelganmiz.

"Hammamizni Allohning o'zi yaratgan. Uning o'zi in'om etgan kuch, salohiyat, boylikka ega bo'la turib, nima uchun chetdan posbon chaqirishimiz kerak? Axir biz hamma vaqt bir-birimizning yutug'imizdan quvonib, kamchiligidan kyunib kelganmizku! Nima uchun biz xudo bergen aqlni yaxshilik tomon ishlatmaymiz, bir-birimiz bilan ahil og'a-ini bo'lolmaymiz?!"

Agar biz birlashsak, bizdan zo'r kuch topilmaydi" (12-248). Chindan ham qo'ni-qo'shnilarining ahilligi va birdamligida gap ko'p. Qo'ni-qo'shni juda qadim zamonlardan buyon bir-biriga suyanchiq bo'lib kelgan. Uzoq yillar, balki asrlar davomida ne-ne azob-uqubatlarni, qiyinchilik-mashaqqatlarni birgalikda yengib kelgan. Shu tufayli Markaziy Osiyo va Qozog'iston xalqlarining bir-biriga bo'lgan hurmati juda baland. Buni O'zbekiston vakillarining Qozog'iston, Turkmaniston, Qirg'izistonda bo'lib o'tgan do'stlik va hamkorlik uchrashuvlari vaqtida aytilgan dil so'zlaridan ham bilsa bo'ladi.

Prezidentmizning 1995 - yil 20 - may kuni Qozog'istonda O'zbekiston kunlarining tantanali ochilish marosimida so'zlagan nutqida shunday samimiyl va do'stona so'zlar yangradi. "Munosabatlarimiz yanada rivojlanishi va turmushning yangi-yangi qirralarini qamrab olaverishiga shak-shubha yo'q. Hozir Qozog'istonda o'tayotgan O'zbekiston Respublikasi kunlari ham O'zbekistonda o'tgan sizlarni respublikangiz kunlari singari hamkorligimizni yanada chuqurlashtirish sari tashlangan yangi qadamdir.

Biz bundan faqat yutamiz va agar biz yaxshi qo'shni va do'st, teng sherik sifatida savdo, sarmoyalar, ayrboshlashlar, hukumat darajasida va boshqa darajalardagi aloqalarni kengaytirishga o'zaro yaxshi sharoit yaratib berish tamoyilini amalga oshirishga erishsak, ular hozirgi islohotlarni amalga oshirish natijasida to'g'ri ma'noda boy bo'lishadi.

...Qiyinchiliklarni boshimizdan birgalikda kechirishimiz osonroq bo'ladi, bunyodkorlik bilan shug'ullanishimiz, har qanday siyosiy va iqtisodiy tazyiqlarga bardosh berib, oldimizga qo'ygan maqsadga erishishimiz osonroq bo'ladi" (12-238, 239).

Buyuk turkman shoiri Maxtumqulining Xiva shahrida (1996 yil 28 noyabr) haykali ochildi. Ana shu tantanada qatnashgan Prezidentimiz so‘zga chiqib, turkman birodarlarga bo‘lgan mehr-oqibatimizni yorqin so‘zlar bilan ifoda etib, jumladan shunday dedi: “Yangicha mazmun bilan boyib borayotgan qadimiy qardoshligimiz va do‘stligimiz bugungi hayotimizda bir-birimizga qo‘l berib, boshimizdan o‘tayotgan sinovlarga birgalikda mardonavor bardosh berib, kelajagimizni birga qurish yo‘lida bizga ulkan ishonch va kuch-quvvat baxsh etadi. Ana shu ishonch barqaror ekan, o‘zbek va turkman halqlarining yorug‘ keljakka yetishi shubhasiz” (12-294).

1995 - yil 28 - avgustda Bishkekda qirg‘iz xalqining azaliy va abadiy qomusi “Manas”ning ming yilligi zo‘r tantanalar bilan nishonlandi. Tantanada ko‘pgina nufuzli davlatlar va xalqaro delegatsiyalar qatnashdi. O‘zbekiston delegatsiyasi ham qo‘snilarimizning shodligiga sherik bo‘ldi.

Tantanada Prezidentimiz Islom Karimovning sermazmun nutqini tantana qatnashchilari zo‘r qiziqish bilan qarshi oldilar.

“Qadrli do‘stlar!

Men so‘zimning boshida xalqlarimizning yaqin qarindoshligi to‘g‘risida gapirdim.

O‘sha go‘zal ayol, Xonikeyning singlisi Aruka, Manasning tutingan inisining – xotini ekan, Buxoro xonining yana bir qizi esa Sari Arkadagi qozoq xoni Ko‘kcha botirning ayoli bo‘lgan.

Bunday qarindoshlik o‘sha zamonlarda Buxoro, Talas va Sari Arka xonliklari orasida tinchlik, osoyishtalikka xizmat qilgan ekan.

Men nima demoqchiman?

Men shuni aytmoqchimanki, Yaratganning o‘zi siz bilan bizga, yurtimizga nasl-nasabimizni asraydigan, davom ettiradigan go‘zal ayollarni – ajoyib mo‘jizani ham ato etgan!

Shuning uchun, birodarlar, Alloh Taolo bizni, qirg‘izni, qozoqni, turkmanni, tojikni, o‘zbekni va boshqa qardoshlarimizni hech qachon qiz olib, qiz berishdan, bordi-keldi qilishdan ayirmasin».

5-mavzu: Istiqlol mafkurasi

Reja:

1. Milliy qadriyatlarni tiklash va o‘zlikni anglash.
2. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q.
3. Alloh qalbimizda, yuragimizda.

Birinchi masala. Azal-azaldan o‘zbek xalqi o‘z qadrini yaxshi biladigan xalq. U nafaqat o‘z qadrini biladi, ayni vaqtda o‘zgalarning ham qadriga etadi. Bu ajoyib fazilat ajdodlardan avlodlarga o‘tib, qon-qonimizga, suyak-suyagimizga singib ketgan. Asrlar davomida sayqal topib umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashib kelayotgan fazilat. Shu fazilat o‘laroq u, boshiga dunyo keza boshlagan do‘ppisini kiyib, bu yorug‘ dunyoda mag‘rur yuradi. Ajablanarlisi shundaki, u o‘zini mag‘rur tutsada, nihoyatda kamtarin, andishali xalq. U hech kimga ozor bermaydi, o‘ziga ham ozor yetkazishlariga yo‘l qo‘ymaydi. Qadr-qimmati baland bu xalqning qadriyatlari serob. U bu qadriyatlarni zamonlar, davrlar osha misqollab yig‘ib, doimiy boyitib kelmoqda.

Ozodlik qo‘lga kiritilgandan keyin xalqimizning milliy-ma’naviy merosi va qadriyatlarni qayta tiklash, yanada mustahkamlash va rivojlantirish yo‘lida chinakam ulkan ishlar qilindi. Chunki, Prezidentimiz aytganidek, biron-bir jamiyat ma’naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma’naviy va ahloqiy qadriyatlarni mustahkamlamay hamda rivojlantirmay turib, o‘z istiqbolini tasavvur eta olmaydi. Zero, xalqning madaniy qadriyatlari, ma’naviy merosi qadim zamonlardan buyon, butun hayoti davomida qudratli ma’naviy manba bo‘lib xizmat qilgan. Shu bois ham bu masala nihoyatda dolzarb masala darajasiga ko‘tarildi.

“Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq, – deb, yozgan edi Islom Abdug‘aniyevich o‘zining fundamental asarlaridan birida, – ajdodlarimiz tomonidan ko‘p asrlar mobaynida yaratib kelungan g‘oyat ulkan, beباho ma’naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo‘lib qoldi. Biz ma’naviy qadriyatlarni tiklashni milliy o‘zlikni anglashning o‘sishidan, xalqning ma’naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy, tabiiy jarayon, deb hisoblaymiz.

Xalqimiz siyosiy mustaqillik va ozodlikni qo‘lga kiritgach, o‘z taqdirining chinakam egasi, o‘z tarixining ijodkori, o‘ziga xos milliy madaniyatning sohibiga aylandi” (10-137, 138).

Islom Karimov o‘zining “O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li” kitobida mustaqil O‘zbekistonning kuch-qudrat manbai nimada? degan savolga javob berib, xalqimizning umuminsoniy qadriyatlariga sodiqligidir, deb ta’kidladi (12-12). Prezidentimiz bu fikrini yanada kengaytirib, yanada chuqurlashtirib, takror-takror ta’kidlab keldi. U O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining bir yilligiga bag‘ishlangan tantanalari (1992 - yil 31 - avgust)da so‘zlagan nutqida ham ana shu fikrni yana takrorladi: “... O‘zbekistonning kuch-qudrat manbai – xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligi, ulug‘ ajdodlarimizdan avlodlarga o‘tayotgan ma’naviy merosning kuchliligida, fuqarolarning el-yurtga, ona-zaminga bitmas-tuganmas mehrida, milliy g‘ururimizda.

Insonparvarlik - o‘zbek xalqi milliy ongining o‘zak fazilatidir. Shafqatsizlik va zo‘ravonlik uning tabiatiga yot. Xalqimiz ming-ming yillik tarixi davomida ko‘p narsalarni boshdan kechirdi. Madaniyat, ilm-fan, yagona davlatchilik zafarlari nash’asini surdi, o‘zaro nizolar, begonalar asorati alamini tortdi, eng yaxshi o‘g‘il-qizlaridan judo bo‘ldi. Lekin, tarixning o‘yinlari ham, tabiiy ofatlar ham xalqimizning insoniy tabiatiga dog‘ tushira olmadi” (12-54). Ana shu beba ho fazilatlariga tayangan holda mustaqillikning dastlabki yillardanoq odamlarimizda sho‘rolar zamonidan o‘rnashib qolgan mutelik, qaramlik, o‘z mulkiga ega bo‘lomaslik kayfiyatlaridan imkon darajada tezroq qutulib, mustaqil yangicha fikrlashga o‘rgatish, o‘ziga ishonchni kuchaytirish nihoyatda muhim edi. Milliy istiqlol mafkurasi tezroq yaratish va hayotga tatbiq etish zarur edi.

Istiqlol mafkurasi xalqimizning azaliy an’analari, uduumlari, tili, va ruhiyatiga tayanib odamlarimizda kelajakka ishonch, mehr-oqibat, insof, sabr-toqat,adolat, ma’rifat tuyg‘ularini singdirishi lozim edi. Shu sababli ham iqtisodiy o‘nglanish, iqtisodiy tiklanish, iqtisodiy rivojlanishga astoydil bel bog‘lash bilan birga ma’naviy o‘nglanish, ma’naviy poklanish, ma’naviy yuksalish muammolarini hal etish masalalariga zo‘r berildi.

Mustaqillik qo‘lga kiritilganidan keyin xalqimizning o‘z yurti, tili, madaniyati, qadriyatlari tarixini bilishga, o‘zligini anglashga intilishi ortdi. Bu istiqlol mafkurasining shakllana boshlaganidan dalolat edi.

Xo‘sh mafkura nima? Mafkura deganda nima tushuniladi?

Bu masalada Prezidentimizning fikr-mulohazalarini bilish uchun uning mafkura muammofiga bag‘ishlab yozilgan qator asarlari, nutqlari va boshqa chiqishlari bilan tanishib chiqish zarur. Masalan, uning

“Tafakkur” jurnali bosh muharririning savollariga javoblarini sinchkovlik bilan o‘qib ko‘rish juda foydali bo‘ladi. U bosh muharrirning “Siz mafkura deganda nimani tushunasiz? Jamiyat faoliyatida, xususan, O‘zbekistonning bugungi hayotida mafkura qanday o‘rin tutadi?”, degan savoliga mafkura har qanday jamiyat hayotida zarur. Mafkura bo‘lmasa odam, jamiyat, davlat o‘z yo‘lini yo‘qotishi mumkin deb javob beradi.

Jamiyat mafkurasi masalasida so‘z ketganda, Prezident fikricha, odamlarning ming yillar davomida shakllangan dunyoqarashi va mentalitetiga asoslangan, ayni vaqtida shu xalq, shu millatning kelajagini ko‘zlagan va uning dunyodagi o‘rnini aniq-ravshan belgilab berishga xizmat qiladigan, kechagi va ertangi kun o‘rtasida o‘ziga xos ko‘prik bo‘lishga qodir g‘oyani jamiyat mafkurasi, deb bilmoq lozim” (12-420). Ammo sho‘rolar davridagi mafkura, kommunistik dunyoqarash mohiyat e’tiboriga ko‘ra, bizning turmush tarzimizga, xalqimizning tabiatiga tamoman begona edi. Shunday bo‘lsada, u kishilarimiz ongiga majburan singdirib kelindi. Afsuski bu soxta ta’limning salbiy ta’siri hanuzgacha sezilib turibdi. Shu sababdan ham milliy mafkurani yaratish va hayotimizga joriy etish, O‘zbekiston jamiyatining milliy g‘oyasini rivojlantirish masalasi hamon dolzarbligicha qolib ketmoqda.

Bunday mafkura nimalarga asoslanishi kerak?

“Avvalo, ta’kidlaydi Prezident mafkurani shakllantirish jarayonida, avvalambor, mamlakatning bugungi hayoti, o‘tmishi, kelajagi, butun taqdiri uchun qayg‘uradigan, Vatan qismatini o‘z qismati, deb biladigan keng jamoatchilikning ilg‘or dunyoqarashi va tafakkuriga asoslanish lozim” (12-420). Shu bilan birga, deb qo‘srimcha qiladi Prezident, milliy tariximiz va umumbashariy taraqqiyot rivojiga unutilmas hissa qo‘sghan olimu-fuzalolarning mafkuraning jamiyat hayotidagi ahamiyati haqida qoldirgan ilmiy merosi, falsafiy qarashlarini har tomonlama o‘rganish darkor. Sodda qilib aytganda, jamiyatimizning mafkurasi, shu jamiyatning tayanchi bo‘lmish oddiy inson va uning manfaatlarini ifoda etishi, xalqimizning bexatar, tinch-omon, farovon, badavlat turmushga erishishi uchun kuch-g‘ayrat manbai bo‘lishi lozim. (12-425). Har qanday mafkura singari milliy istiqlol mafkurasi muayyan talablarga javob berishi, umumiy maqsad va vazifalarni o‘zida mujassamlashtirgan bo‘lishi kerak.

Xo‘sh, bu talablar nimalardan iborat? Bu savolga ham aniq, mukammal javob berib o‘tilgan.

Birinchidan, Milliy mafkura avvalambor, o‘zligimizni, muqaddas an’analaramizni anglash tuyg‘ularini, xalqimizning ko‘p asrlar davomida shakllangan ezgu-orzularini, jamiyatimiz oldiga qo‘yilgan oliy maqsad va vazifalarni qamrab olishi kerak.

Ikkinchidan, jamiyatimizda bugungi kunda mavjud bo‘lgan xilmalik fikrlar, g‘oyalar va erkin qarashlardan, har qanday toifalar va guruhlarning orzu-intilishlari va umidlaridan, har qanday insonning e’tiqodi va dunyoqarashidan qat’iy nazar, ularning barchasini yagona milliy bayroq atrofida birlashtiradigan, xalqimiz va davlatimizning daxlsizligini asraydigan, el-yurtimizni eng buyuk maqsadlar sari chorlaydigan yagona g‘oya-mafkura bo‘lishi kerak.

Uchinchidan, milliy mafkuramiz har qanday buzg‘unchi g‘oyalardan, boshqa elat va xalqlarni mensimaslik, ularni kamsitish kayfiyati va qarashlaridan mutlaqo holi bo‘lib, qo‘shni davlat va xalqlar, umuman jahon hamjamiyatida, xalqaro maydonda o‘zimizga munosib hurmat va izzat qozonishda poydevor bo‘lishi darkor.

To‘rtinchidan, milliy g‘oya birinchi navbatda yosh avlodimizni vatanparvarlik, el yurtiga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbiga insonparvarlik va odamiylik fazilatlarini payvand qilishdek oliyjanob ishlarimizda madadkor bo‘lishi zarur.

Beshinchidan, u Vatanimizning shonli o‘tmishi va buyuk kelajagini uzviy bog‘lab turishga, o‘zimizni ulug‘ ajdodlarimiz boqiy merosining munosib vorislari deb xis qilish, shu bilan birga, jahon va zamonning umumbashariy yutuqlariga erishmoqqa yo‘l ochib beradigan va shu maqsadlarga muttasil da’vat qiladigan g‘oya bo‘lishi kerak (12-421,422).

Shuni unutmaslik kerakki, eski, kommunistik mafkuraning kuni bitgan, ammo yangi milliy istiqlol mafkurasi hali shakllanib hayotimizga joriy etilib ulgurmagan bir sharoitda orada bo‘shliq –vakuum paydo bo‘lishi mumkin. Ammo tabiatda ham, jamiyatda ham vakuum – bo‘shliq bo‘lishi mumkin bo‘lmaganidek, mafkura sohasida ham bo‘shliq vujudga kelishiga aslo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Agar bo‘shliq paydo bo‘lsa, u erga biz uchun mutlaqo begona, yot bo‘lgan g‘oya va mafkuralar suqilib kirishga urinadi. Har bir fuqaro buni yaxshilab tushunib yetishi lozim. Buni doim xotirada saqlash kerak, chunki madaniy-ma’naviy qadriyatlar, udumlar va an’analaramizni qaytarish va tiklash, o‘zligimizni anglash ancha murakkab sharoitlarda – eski imperiya tuzumi barbod bo‘lgan va yangi ijtimoiy munosabatlar endigina qaror topayotgan bir sharoitda yuz berdi.

Moddiy islohotlar, iqtisodiy islohotlar o‘z yo‘liga. Ular vaqt(soati bilan hal etiladi. Ammo ulardan tashqari ma’naviy islohotlar ham borki, bu islohotlarni amalga oshirish eng muhim vazifalardan hisoblanadi. Shuni nazarda tutgan holda bu sohada katta ishlar qilishga muvaffaq bo‘ldik. Ma’naviy hayotimizda uyg‘onish yuz berdi. Tariximizni tikladik. Ona tilimiz, udumlarimiz va qadriyatlarimizni qaytarib oldik. qaytdik. El-yurtimizga Navro‘z kirib keldi. Ramazaon, Qurbon hayitlarimiz keng nishonlanmoqda. Dinga munosabatimiz o‘zgardi. O‘zligimizga qaytdik. Milliy ruhimiz mustahkamlanmoqda va rivojlanmoqda.

Ma’naviyat insonga – ona suti, ota namunasi, ajdodlar o‘giti bilan birga singadi. Ma’naviyat haqida gapirganda beixtiyor Prezidentimizning mustaqil O‘zbekistonni rivojlantirishning ma’naviy-ahloqiy negizlari haqida aytganlari esga tushadi. “Ma’naviyat insonga havodek, suvdek zarur. Yer, oila, ota-onas, bolalar, qarindosh-urug‘lar, qo‘ni-qo‘shnilar, xalq, mustaqil davlatimizga sadoqat, insonlarga hurmat, ishonch, xotira, vijdon, erkinlik-ma’naviyatning ma’nosini ana shunday keng” (12-13).

Yurtboshimiz yozganidek, ma’naviyat – insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratidir. U yo‘q joyda hech qachon baxt-saodat bo‘lmaydi. Ma’naviyat taqdирning ehsoni emas. Ma’naviyat inson qalbida kamol topishi uchun u qalban va vijdonan, aql va qo‘l bilan mehnat qilishi kerak. Ma’naviyatli inson hayotda barqaror bo‘ladi. Ma’naviyatli odam shunchaki boylik orttirish yo‘lida kun ko‘rmaydi. Moddiy qiyinchiliklar vaqtida mustahkam iroda bilan sabr-qanoat qiladi.

Ikkinci masala. Bu masala mustaqillikka erishilgan dastlabki davrdan buyon ko‘pchilikni qiziqtirib keladi. Shu kungacha, ya’ni mustaqillikka erishilgan kungacha tariximizning ahvoli qanday edi? Tariximizni yaxshi bilarmidik? Tariximiz maktablarda, o‘quv yurtlarida qanday o‘qitilar edi. Tariximizni o‘qitishga keng o‘rin berilganmi? Bu kabi ko‘p savollar o‘z javobini kutmoqda edi.

Mustaqillik odamlarimizga ota-bobolarimizning asrlar davomida to‘plagan hayotiy tajribalari, tarixiy haqiqatni bilishga yaqindan va har tomonlama qiziqishlariga keng yo‘l ochib berdi. Xalqimiz va davlatimizning tarixiy ildizlari g‘oyat chuqur. Ularni xolisona va sinchikovlik bilan, mukammal o‘rganish, tahlil qilish shu kunlarda nihoyatda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki, Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, o‘zlikni anglash tarixdan boshlanadi.

Islom Karimovning tarixchi olimlar bilan o'tkazgan suhbatida bu masalaning davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi zarurligi behuda aytilmagan, albatta (12) Yurtboshimiz respublikamizning bir guruh yetakchi tarixchi olimlari, taniqli adiblar bilan o'tkazgan bu suhbatida tariximizga oid bir qator chigal, shu vaqtgacha yechimi uzil-kesil topilmay kelinayotgan muammolarni o'rtaga tashlab, shu haqida o'z fikr-mulohazalarini aytди va suhbat qatnashchilariga o'z fikrlari bilan o'rtoqlashishni taklif etdi. U o'z suhbatining boshida respublikamizning kutubxonalari, muzeylari, ilmiy dargohlarida saqlanayotgan 20 mingdan ortiq qo'lyozma, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, ahloq, falsafa, tibbiyat, matematika, fizika, kimyo, astronomiya, me'morchilik, dehqonchilikka oid o'n minglab asarlar haqida, ularni jiddiy o'rganish davri kelganligini ta'kidladi.

Sir emas sho'rolar zamonida tarixiy haqiqatni bilishga intilish rag'batlantirilmas edi. O'zbek xalqi, O'zbekiston tarixini haqqoni yoritishga yo'l qo'ymas edi. O'zbeklarning haqqoni yoritadigan asarlar, boshqacha aytganda hukmron mafkura manfaatlariga mos kelmaydigan asarlar, manbalar xalq ko'zidan iloji boricha yiroq saqlanardi.

O'z tariximizni o'zimiz yozishimizga ijozat berishmas edi. "SSSR tarixi" deb atalgan darslikda O'zbekistonday mamlakatga bor-yo'g'i 3-4 sahifa o'rin berilar edi. Tarixiy voqealar va shaxslar haqida noxolis fikrlar aytilar yoki umuman lom-lim deyilmasdi (12-429). Ana shunday ahvolga chek qo'yib, tariximizga jiddiy e'tibor berish vaqtি keldi. Olimlarimiz, adiblar, noshirlar, tarixchilarimiz ko'pchilikni qiziqtirib kelayotgan bir qator juda muhim savollarga javob topib berishlari kerak bo'lgan payt keldi.

Xo'sh, o'zimizning zamon va makondagi o'rnimiz, qanday nasl-nasabimiz, kimligimizni bilishimiz kerakmi-yo'qmi?

Tariximizning ko'hna va yaqin davr sahifalarini yaxshi bilmasdan, chuqur tahlil, mantiqqa asoslanmagan bироqlama fikr bildirish odamlarni, eng avvalo tarix o'qituvchilarini chalg'itadi. Shunday ekan, biror tarixiy voqeа-hodisalar xususida so'z yuritayotganda, faqat bahs, munozara, tahlil mevasi bo'lgan xulosalargina bizga to'g'ri yo'l ko'rsatishi mumkin. Bu-birinchidan. Ikkinchidan, komil inson masalasi. Komil inson deganda qanday inson tasavvur qilinadi?

Komil inson, Prezidentimiz fikricha ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, ma'rifatli, kishilar tushuniladi. Ongli, bilimli odamni oldi-qochdi gaplar bilan aldab

bo‘lmaydi U har bir narsani aql, mantiq tarozisiga solib ko‘radi. O‘z fikr-o‘yi, xulosasini mantiq asosida qurban kishi yetuk odam bo‘ladi (12-430).

Bizga har qanday vaziyatda, barcha sohalarda bemalol bahslasha oladigan, bilimdon, zukko, ma’rifatli odamlar kerak.

Jamiyat taraqqiyotining asosi - ma’rifatdir.

Prezident Islom Karimov ma’naviyat, ma’rifat, uni targ‘ib qilish ma’rifatga fidoyi bo‘lish kerakligi haqida fikr yuritib, inson tug‘ilib o‘sgan yurtida o‘zini boshqalardan kam sezmay, boshini baland ko‘tarib yurish uchun unga albatta, tarixiy xotira kerakligini ta’kidladi. Suhbat chog‘ida tarixiy xotira, o‘tmishini yaxshi bilish, tarix saboqlari, tarixdan judo bo‘lish hayotdan judo bo‘lish ekanligi xususida gap bordi.

Mustaqillik yillarigacha tariximizni o‘zgalar yozib yurishdi. Aniqrog‘i yuqoridan, Markazdan turib yozishdi. Umrida bu yerlarda na avlodi, na o‘zi yashamagan, bu yerlarda, Turonzaminda ro‘y bergen tarixiy voqeа-hodisalarda faqat qaysidir rus olimlari qachonlardir yozgan o‘lda-jo‘lda ma’lumotlar bo‘yicha chala ma’lumotga ega bo‘lgan “tarixchi” olimlar qalamiga mansub “tarix” shubhasiz, o‘z o‘tmishimiz xususida to‘la tasavvur bera olmadi, albatta. Shu bois tariximizga oid ko‘p muammolar hamon muammoligicha qolib kelavergan edi. Buning ustiga mustamlakachi o‘ziga qaram xalq haqida qachon xolis, adolatli fikr aytgan?

Shuning uchun ham ular “yaratgan” tariximiz tarixni soxtalashtirish, kamsitish, mensimaslik, buzib ko‘rsatish hollaridan xoli emas edi. Bu ham kam. Sir emas, sovet davrida rus olimlariga sajda qilib kelgan mahalliy tarixchilarining yozgan asarlari-chi?! Bu asarlar, avvalo, rus olimlarining tadqiqotlariga tayanib bitilgan, binobarin, sovet tarixchiligi talab-me’yorlariga moslab, bilib yo bilmay turib ko‘r-ko‘rona ularga ergashib, taqlid qilib yozilgani, ajablanarli.

Islom Karimovning suhbat chog‘ida “qachongacha biz tariximizni birovlarining nuqtai nazari, qarashi bilan baholaymiz”, deb aytgan e’tirozi behuda emas. Shu munosabat bilan u tarixchi olimlarimiz oldiga bir qator juda muhim, o‘ta mas’uliyatli, qachonlardan buyon yechimini kutayotgan bir qator savollarni qo‘ydi.

“Mutaxassislar nima bilan mashg‘ul, qayoqqa qarashyapti? O‘zbek davlatchiligi qachon paydo bo‘lgan? ...O‘zbek davlatchiligi qaysi asrda paydo bo‘ldi? Qanday tarixiy bosqichlarni bosib o‘tdi? Mutaxassislar balki, tushuntirib berarlar, balki aniq javoblari bordir? Targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borayotgan olimlar, balki, allaqachon bir fikrga

kelishgandir? Lekin hozircha na matbuotdan, na darsliklardan men ana shu savollarga javob topolmadim” (12-433).

Davlatimiz rahbari suhbat vaqtida davlatchilik bugungi kunda o‘ta siyosiy masala bo‘lib turganini aytib, uning sababini qisqacha tushuntirib berdi.

Uning aytishicha, O‘zbekistonda davlatchilik bo‘lmagan, deb orqavarotdan tashviqot yurgizayotgan, shu fikrni ongimizga singdirmoqchi bo‘layotgan, xalqaro jamoatchilikni shunga ishontirishga urinayotgan kuchlar hali bor. Bizni yana sobiq SSSRga qaytarish niyatida yurganlar ham yo‘q emas.

Bunday tuturuqsiz da’voga qanday javob berish kerak? Bunday da’vo puch da’vo ekanligini isbotlash, davlatchiligidimizning – ilmiy nuqtai – nazardan asoslangan tarixini yaratish – o‘zbek tarixchilarining bugungi kundagi asosiy vazifasi bo‘lishi kerak.

Prezident suhbat qatnashchilari diqqat –e’tiborini yana bir qancha juda muhim masalalarga qaratdi. Jumladan, chor Rossiyasi yurtimizni bosib olgandan keyin xalqimiz boshiga ne-ne kulfatlar, baloyu-ofatlar yog‘ilganini eslatib, har tomonlama mudhish, madaniyatimiz, milliy tafakkurimiz, urf-odatlarimiz, turmush-tarzimiz, nasl-nasabimiz yo‘q bo‘lib ketishi kerak bo‘lgan sharoitda millatimiz qanday qilib o‘zligini saqlab qololganini nimalar bilan izohlasa bo‘ladi, nima hisobidan qaysi tarixiy, tabiiy qonuniyatlar tufayli omon chiqdi?

Xalqimiz azal-azaldan, ba’zi bir noshud “tarixchilar” aytmoqchi bo‘layotganidek, ko‘chmanchi emas, balki o‘troq hayot kechirgan xalq. Uning madaniyati, ildizi, tomiri o‘troq bo‘lgan. Bu isbot talab qilmaydigan haqiqat. Har bir xalq o‘z tarixini har xil ta’sir va tajovuzlardan asrashi kerak. Beparvolik qilinsa, turli soxta kuchlar tarixni buzib ko‘rsatadigan kitoblarni yozaveradi, nashr ettiraveradi.

Prezidentimizning uqtirishicha, xoh o‘tmishda, xoh bugun bo‘lsin, boshqa millat, davlatni o‘ziga qaram qilish niyatida, harakat qilgan, qilayotgan kuchlar doimo bir siyosatni yuritganlar va yuritadilar: ya’ni qaram xalqning ma’naviy, madaniy, tarixiy merosini yo‘q qilish, undan judo etish. Shu yerda u Chor Rossiyasining generali Skobelev o‘z imperatoriga murojaat qilib, unga nima deb, yozganini eslatib o‘tdi:

“Mahalliy halq biz o‘ylagandan ko‘ra madaniyatli ekan. Ularni bo‘ysundira olmayapmiz... Bu xalqning o‘tmishda yaratilgan barcha osori-atiqalarini, masjidu-madrasalarini, diniy kitoblarini yer bilan yakson qilibgina, ularning ma’naviyatini so‘ndiribgina o‘z qanotimiz ostiga olishimiz mumkin”. Xulosa shuki, biz haqqoniy tariximizni

tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur.

Prezidentimiz suhbat davomida bu sohadagi kamchiliklarni ko'rsatib, fan davlatga, xalqqa, jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishi kerakligini ta'kidladi. Ammo tarixchilarimiz orasida ularni taroziga solsak, bugungi kun nuqtai nazaridan baholasak, talabga javob beradiganlari juda kamchilikni tashkil etadi. Buning ustiga dovyurak, zamonaviy fikrlaydigan olimlar yetishmaydi. Bu sohadagi kamomadni to'ldirish uchun, Prezidentimiz tarixga ixtisoslashgan maktablarni ochish, mukammal darsliklar yaratish, domlalarmi qaytadan o'qitish, yoshlar orasiga kirib, ularning ichidan qobiliyatli, fidoyilarni topishni taklif etdi.

Davlatimiz tarixini yoritishda g'oya hukmronlik qilishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Bu masalada, uzoq o'tmishimiz, tarixiy tomirlarimiz bo'yicha o'z mustaqil fikrimizga , chuqur ilmiy asosga ega bo'lishimiz kerak.

Haqqoniy tarixni bilmasdan turib, o'zlikni anglash mumkin emas.

Tarix xalq ma'naviyatining asosidir. Tarixiy xotirasi bor inson – irodali inson. Tarix saboqlari insonni xushyorlikka o'rgatadi. Odamzod borki, avlod-ajdodi, Vatani tarixini bilishni istaydi. Yana takror-takror aytish kerak: har bir xalq o'z tarixini har xil o'zga ta'sir va tajovuzlardan asrashi kerak. Har bir inson o'z o'tmishini yaxshi bilsa, bunday odamlarni yo'ldan urish, har xil aqidalar ta'siriga olish mumkin emas.

Uchinchi masala. Xalqimiz eng azaliy va asrlar davomida avlodlardan-avlodlarga o'tib kelayotgan, nihoyatda boy, o'ziga xos, o'ziga mos milliy qadriyatlari orasida har bir inson, har bir fuqaro qalbining to'ridan joy olgan, qon-qoniga, suyak-suyagiga singib ketgan diniy qadriyatlari alohida ahamiyatga ega.

Shu haqda gap ketganda Prezidentimizning quyidagi so'zlari esga tushadi. "Ma'lumki, din va din ahli ijtimoiy hayotimizda muhim o'rinn tutadi. Bizning bu xususdagi siyosatimiz aniq. Islom dini-ota-bobolarimizning muqaddas e'tiqodi. U tufayli xalqimiz ming yillar mobaynida ma'naviyati, boy merosi va o'zligini omon saqlab kelgan. Din xalq tabiatini pok asrashda, insonlar o'rtasida mehr-oqibat o'rnatishda katta xizmat qilgan. Odamlarni doimo yaxshilikka, ezgu ishlarga chorlab kelgan" (12-70). Yana fikrini davom ettirib aytadiki, "din odamzodni hech qachon yomon yo'lga boshlamaydi. Din bu dunyoning o'tkinchi ekanini, oxiratni eslatib turadi, odam bolasini xushyor bo'lishga, harom yo'llardan uzoq yurishga, yaxshi bo'lishga, yaxshi iz qoldirishga undab turadi" (21-26, 27).

Din masalasi juda nozik, shu bilan birga juda murakkab masala. Shu boisdan ham Islom Abdug‘aniyevich o‘zining bir qator asarlari, suhbatlari, nutqlarida bu masala xususida to‘xtalib, uning ahamiyatini takror-takror uqtirib kelmoqda. Uning mana bu so‘zlari juda qimmatlidir: “Agar mendan, nega milliy qadriyatlarimiz, shuncha zamonlar osha bezavol kelyapti, deb so‘rashsa, bu – avvalo, muqaddas dinimiz hisobidan, deb javob bergen bo‘lur edim. Shu zaminda o‘tgan necha-necha avlodlar diniy e’tiqodni yurakda saqlamasa, Islom falsafasini rivojlantirib kelmasa, biz bebahoh va betakror ma’naviy-ruhiy merosdan mahrum bo‘lib qolardik”

Islom Karimov O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasi (1995 - yil 23 - fevral)da so‘zlagan nutqida ta’kidlaganidek, islom dini- bu ota-bobolarimiz dini, u biz uchun ham imon, ham ahloq, ham diyonat, ham ma’rifat ekanligini unutmaylik. U quruq aqidalar yig‘indisi emas. Ana shu ma’rifatni kishilarimiz jon-jon deb qabul qiladilar va yaxshi o‘gitlarga amal qiladilar. Mehr-oqibatli, nomusli, oriyatli bo‘lishga izzat-ehtirom tushunchalariga rioya etishga harakat qiladilar.

... Ko‘hna tariximizning qaysi davrini eslamaylik, din har doim odamlarni o‘z-o‘zini idora etishga, yaxshi xislatlarini ko‘paytirib, yomonlaridan xalos bo‘lishga chorlagen. Har bir alohida insonga, oila, jamoa, mintqa, bir so‘z bilan aytganda umumxalqqa rahnamo bo‘lgan. Uni og‘ir-og‘ir sinovlarga bardosh berishga, yorug‘ kunlarga intilib yashashga da’vat qilgan, ishontirgan. Bunday da’vat o‘z navbatida odamlarga kuch-quvvat bag‘ishlagan, irodasini mustahkam qilgan, bir-biriga mehru oqibatini oshirgan (12-279).

“O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” asarida din, islom dini haqida uning jamiyat hayotidagi o‘rni va ahamiyati, din masalasi atrofida XX asr oxiri va keyingi damlarda bayon etilayotgan xilma-xil fikrlar, ro‘y berayotgan harakatlar xususida to‘xtalib, bu masalalarni imkon darajada batafsil tahlil qilib berdi. Bu yerda ham odamlarning diniy e’tiqodlari bilan bog‘liq har qanday muammo g‘oyat muhim ekanligiga yana bir bor e’tibor qaratish bilan dinning ma’naviy qadriyatlari shiorlardan, xususan, islomni qayta tiklash shioridan foydalanayotgan muayyan kuchlar ko‘zlayotgan, dinga aloqasi bo‘lmagan siyosiy va boshqa tajovuzkor maqsadlar o‘rtasidagi farqni tushunib olishlariga erishish zarurligiga qaratdi.

Din ming yillar davomida barqaror mavjud bo‘lib kelgan, shu jumladan, islom dini ham, u inson tabiatida chuqur ildiz otgan, inson qalbining, inson yuragining eng to‘ridan joy olib, uning ongi, shuuriga chuqur singib ketgan. Din o‘ziga xos bo‘lgan bir qancha vazifalarni ado etishga da’vat qilgan. Unda umuminsoniy ahloq me’yorlari mujassamlashgan, xulq-atvor qoidalariga aylangan. Din madaniyatga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatib kelgan. Shu bilan birga din odamlarni poklab, yuksakka ko‘targan. Din odamlarda ishonch, umid hissini rivojlantirgan, mustahkamlagan. Kundalik hayoti, turmushida, madadkor, ilhom manbai bo‘lib, odamlarga kuch-quvvat bag‘ishlab turgan. Din tufayli umuminsoniy madaniy-ma’naviy qadriyatlar avloddan-avlodlarga esonomon etib kelgan. Islom Karimov ta’biri bilan aytganda, din insonning ishonchli hamrohi, odamzot hayotining bir qismi bo‘lib kelgan va hozirda ham aynan shunday bo‘lib kelmoqda. Ammo, so‘nggi o‘n yilliklar davomida dunyoda din omili faollasha boshladi. 80-yillarning oxiri, 90-yillarning boshlari, bir tomondan, ana shu asosda mojarolar chiqishi uchun sabablar shakllangan bir davr bo‘ldi. Prezidentimiz bu asarida islom omili va uning hilma-xil ko‘rinishlari, faollashuvi sabablari haqida mufassal to‘xtalib, bu sabablarni aniq-ravshan tushuntirib berdi.

Hukmron kommunistik partianing jilovbardorlari diniy jamoalarni xalqlarning aql-idrokini egallash uchun kurashda o‘zlarining raqibi, deb hisoblar edi. Dinni kamsitish, ruhoniylarni yo‘qotish, omon qolganlarini o‘zlariga bo‘ysundirish uchun eng keskin choralarini ko‘rdilar. Islom dining o‘n minglab mo’tabar vakillari qatag‘on qilindi. Minglab masjid va yuzlab madrasalar vayron qilindi.

Dinga bo‘layotgan bu vaxshiyona munosabat tufayli dindorlarning ko‘pchiligi 90-yillarning o‘rtalariga qadar Qur’oni Karimdan bahramand bo‘lolmadilar. Oqibatda chin ma’nodagi bilimdon islom murabbiylari kamayib ketdi. Buning natijasida har xil xurofiy irim-sirimlar, ba’zan jaholatparast udumlar rivoj topdi. Mazkur asarning qimmati ham shundaki, unda islom omilining bu qadar kuchayishiga olib kelgan boshqa bir qator sabablar aniq va ravshan qilib tushuntirib o‘tilgan. Ana shunday bir sharoitda islom omili kuchayib ketdi. Islom dinining asl mohiyatini to‘g‘ri anglamasdan yondashish hollari ro‘y bera boshladi.

Prezident Islom Karimovning “Turkiston-Press” axborot agentligi muxbirining savollariga bergan javoblarida ham aynan shu masala xususida gap bordi. Muxbirning 1999 - yil 16 - fevral kuni Toshkentda ro‘y bergen voqealar, ularning sabablari va ishtirokchilari xususida

mamlakatimiz va chet-el matbuotida turlicha fikr-mulohazalar, faraz va talqinlar bildirishmoqda. Ular borasida mutaasib terrorchi kuchlarga baho berganda islom dinining asl mohiyatini to‘g‘ri anglamasdan yondashish hollari ham uchramoqda. Muhtaram Prezident, shu masala yuzasidan sizning fikrlaringizni bilmoqchi edik, degan savoliga javob berib, Islom Abdug‘aniyevich quyidagi so‘zlarni aytdi: “Darhaqiqat, mazkur voqealar haqida nafaqat bizning matbuotimizda, balki xorijiy mamlakatlarda ham ko‘p-qo‘p chiqishlar bo‘lmoqda. Ularda turli xil ehtimollar, tusmol va gumonlar bayon etilmoqda. Qabih niyatlar bilan qilingan bu mudhish ishlar orqasida turgan kuchlarning aqlga sig‘maydigan qilmishlari to‘g‘risida, xolis, vazmin mulohazalar bilan bir qatorda ayrim ommaviy axborot vositalarida asossiz fikrlar, bir yoqlama qarashlar, yengil-elpi xulosalar ham ko‘zga tashlanmoqda. Bunga shovshuv gaplarga o‘ch ba’zi “chaqqon” jurnalistlarning, muayyan siyosiy va moddiy manfaatlar nuqtai nazaridan ish ko‘radigan mutaxassis va sharhlovchilarining xatti-harakatlari ham sabab bo‘lmoqda”.

Islom Karimov aytganidek, biz o‘z el-yurtimiz, mamlakatimizni mana shu muqaddas islom dinidan ayri holda aslo tasavvur qilolmaymiz. Diniy qadriyatlar, islomiy tushunchalar, hayotimizga shu qadar singib ketganki, ularsiz biz o‘zligimizni yo‘qotamiz. Chindan ham islom dini har bir inson, vatanimizning har bir fuqarosi qalbiga mustahkam o‘rnashib qolgan. Shu sababdan ham xoh yosh bo‘lsin, xoh keksa bo‘lsin, har bir o‘zbek farzandi nimagaki munosabat bildirmasin, albatta uni beixtiyor yaratuvchining nomi bilan bog‘laydi. Hatto har bir so‘zimizni, har bir ishimizni albatta bismilloh aytib boshlashga o‘rganganmiz. Kundalik hayotimizning har qaysi damlarida xudoga shukronalar aytamiz.

Islom diniga ko‘ra, tug‘ilganda qulog‘imizga bekorga azon aytilmaydi, uylanayotganda sha’riy nikoh o‘qitiladi, olamdan o‘tganda janoza o‘qiladi. Musulmon dinimiz har bir insonga tirikligida ham, qazo qilganida ham izzat-hurmat ko‘rsatishni taqozo etadi, musulmonlarning bir-birlariga mehr-oqibatli, mehr-muhabbatli, shafqatli, bo‘lishga da’vat etadi. Shuning uchun ham o‘zini musulmon deb hisoblaydigan har bir fuqaro insonga chin ko‘ngildan, samimiyl munosabatda bo‘ladi. Shu bois ko‘chadan tobut ko‘tarib borishayotgan bo‘lsa, duch kelgan yo‘lovchi – u piyodami, mashinadami yoki otliqmi-darhol yugurib kelib tobutga yelkasini tutadi. Kamida yetti qadam uni ko‘tarishib boradi. Marhumni taniydimi-tanimaydimi, bundan qat’iy nazar, Xudo rahmat qilsin, deya yuziga fotiha tortadi. Ko‘rinib turibdiki, din bizning qalbimiz,

yuragimizga shu qadar chuqur joylashganki, uni hech qanday kuch, hech qanday tashviqot bilan chiqarib bo‘lmaydi.

O‘zbekiston mustaqillikni qo‘lga kiritib, uni saqlab qolish, mustahkamlash va rivojlantirish bilan bog‘liq o‘ta muhim, dolzarb masalalar bilan birgalikda din va dinga munosabat muammolarini ham oqilona, puxta o‘ylagan holda hal etila borildi. Din va din munosabatlari masalasi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ochiq-oydin ifoda etilgan. Respublikamizda din davlatdan rasman ajratilgan. Davlatning ishi – davlatniki, dinding ishi – dinniki bo‘lishi lozim, deb hisoblaydi Prezidentimiz. Ammo din davlatdan ajratilgani bilan jamiyatdan ajratilgan emas. Ma’naviy hayotimiz bilan diniy munosabatlarimiz uyg‘un holda olib boriladi. Mustaqillik dindorlarga erkinlik berdi. Dinga, diniy tashkilotlarga keng yo‘l ochib berildi. Amazon va qurban hayitlari yana tiklandi. Odamlarimiz hajga bemalol borib kelmoqdalar. Diniy rasm-rusumlarga, bayramlarga, diniy tarbiya va ta’limga yanada jiddiy e’tibor berilmoqda. Yangi masjidlar qurilmoqda, eskilarini ta’mirlanmoqda, dinga oid minglab kitoblar nashr qilinmoqda. Malakali kadrlar tayyorlanmoqda. Buyuk allomalarimizning tavallud sanalari dunyo miqyosida nishonlanmoqda. Ularning eski zamonda oyoq osti bo‘lib qolgan abadiy maskanlari chinakam ziyyaratgohlarga aylantirilmoqda. Bularning hammasi, xalqimizning dini islomga mehr-muhabbati, hurmat-ehtiromining yaqqol tasdig‘idir.

O‘zbekistonda e’tiqod erkinligi to‘g‘risidagi Qonunning amal qilishi dindorlar, diniy tashkilotlarga juda ko‘p yengilliklar tug‘dirib bermoqda. Davlatimiz, hukumatimiz din bilan munosabatlari qabul qilingan qonunlar, me’yoriy hujjatlarga binoan, ularning haq-huquqlarini hurmat va himoya qilish asosida olib borilmoqda. Ayni vaqtida din va dindorlar, diniy tashkilotlardan qonun oldidagi burch va majburiyatlarini bajarish talab qilinmoqda.

Islom Karimovning ta’kidlashicha, Prezident ham shu xalqning bir farzandi, shu millatning bir o‘g‘li. Alhamdulilloh, bir musulmon farzandi sifatida o‘z xalqiga xos tushuncha va tuyg‘ular uning ham qalbida, yuragida barqaror va u bu dunyoyu u dunyo o‘z e’tiqodidan qaytmaydi. Prezidentimizning aytishicha, islom dinidan foydalanib, o‘z qora niyatlarini amalga oshirishga urinayotgan qora kuchlar, yovuz kimsalarning hali ongi shakllanib ulgurmagan, tajribasiz, g‘o‘r yoshlarni o‘z tuzog‘iga ilintirib, ulardan o‘zlarining iflos maqsadlarini amalga oshirishlariga hech vaqt yo‘l qo‘ymaymiz.

“Yurtimizda, – deb uqtiradi mamlakatimiz rahbari – bugungi bunyodkorlik ishlarimizda faol qatnashayotgan, davlatimiz siyosatini qo‘llab-quvvatlayotgan, har ibodatida Vatanimiz tinchligi, xalqimiz omonligini yaratgandan iltijo qilib yashaydigan millionlab sof niyatli musulmonlar bor. Ularning o‘z diniy ehtiyojlarini bundan buyon ham emin-erkin ado etishlari uchun hech qanday monelik qilinmaydi. Men bunga aslo yo‘l qo‘ymayman.

...Takror aytaman: biz o‘z muqaddas dinimiz va e’tiqodimizdan hech qachon voz kechmaymiz. Shu bilan birga muqaddas dinimiz sha’niga dog‘ tushrimoqchi bo‘lgan kimsalar bilan hech qachon murosa qilolmaymiz” (14-29).

Moskvada nashr etiladigan “Vremya MN” gazetasiga bergan bayonotiida O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimov din masalasiga bo‘lgan o‘z munosabatini yanada oydinroq izohlab berdi. Jangarilarning aynan O‘zbekistonga kirishga intilishlari to‘g‘risidagi savoliga javoban Prezident ularning diniy moyillik qayerda kuchliroq bo‘lsa, o‘sha yerga intilishlarini qayd etdi.

“Biz otalarimiz diniga e’tiqod qilamiz va hech qachon undan qaytmaymiz. O‘z nomimdan aytamanki: ha men musulmonman “Alloh mening qalbimda.. Ha, O‘zbekiston – 82 foiz aholisi islam diniga e’tiqod qiladigan mamlakat va o‘z dini ahkomlarini jiddiy bilmaydigan, birinchi navbatda yoshlar aqlini aynitish uchun bu yerda ajoyib imkoniyatlar mavjud. Lekin islam hech qachon ekstremistik oqimlar tomonidan bunchalik jiddiy tahdidga duchor bo‘lmasan. Shuning uchun joriy yilning sentyabr oyida biz Toshkentda Islom universitetini ochdik, uning huzurida abituriyentlar uchun litsey tashkil etiladi.

...O‘zbekiston hukumati dinimizdan butun o‘zbek xalqi bahramand bo‘lishi uchun bor kuch-g‘ayratini sarflamoqda. Sovet hokimiyyati davrida bizga islam diniga targ‘ib etishga ruxsat berishmagan, lekin u, yana bir bor aytaman, qalbimizda bo‘lgan! Lekin bu yerga kelib islam ilohiyotining ilmiy asoslarini ishlab chiqqan Qohira va Damashqda, Bog‘dod va Madinayu-Munavvarada e’tirof etilayotgan, buyuk mutafakkirlar avlodiga “sof” islomdan saboq berish mantiqdanmi!

“Sof” islam yoki “sof” musulmon tushunchasining o‘zi yo‘q. Buni faqat Allah belgilaydi” (15-21).

6-mavzu: Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir

Reja:

1. Parlament – jamiyat hayotining ko‘zgusi.
2. O‘zbekistonni modernizatsiya va isloh etish.
3. Barkamol avlod – taraqqiyot poydevori.

Birinchi masala. Mustaqillik qo‘lga kiritilgach xalqimiz, hukumatimiz oldida qator keskin muammolar ko‘ndalang bo‘ldi. Yangi davlatchilikni barpo etish, demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurish uchun ularni hal etish juda zarur edi.

Bizga meros bo‘lib qolgan mafkuraviy totalitar tuzumni tubdan buzib tashlash, o‘tmishning bizning maqsad va rejalarimizga to‘g‘ri kelmaydigan odatlaridan vos kechish eng muhim vazifalardan edi. Islom Karimov o‘zining fundamental asarlaridan birida bu vazifalar xususida aniq-ravshan so‘zlab berdi (Islom Karimovning “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida. Xavfsizlikka tahdid barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” asari nazarda tutilmoqda).

Mazkur asarda aytilganidek, eski ma’muriy-buyruqbozlik tizimlarini va unga mos hokimiyat va boshqaruv organlarini tugatib, yangi demokratik huquqiy davlatga xos hokimiyat va boshqaruv organlarini tuzish zarur edi. Buning uchun yangi davlatchilikning siyosiy, huquqiy, konstitutsiyaviy asoslarini yaratish va shu bilan birga konstitutsiya hamda qonunlarda ijtimoiy munosabatlarning, shuningdek markazdag‘i va joylardagi davlat hokimiysi organlarining yangi tizimini joriy etib, mustahkamlash talab etilar edi. Prezident ko‘rsatib o‘tganidek, ichki siyosatda yangi davlatchilikni barpo etish hamda keng ko‘lamli siyosiy va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishdek nihoyatda muhim dolzarb muammolar o‘z yechimini kutmoqda edi. Shunday qilib, dastlabki yillarda milliy davlatchilikka poydevor qo‘yila bordi. Eski ma’muriy-buyruqbozlik tizimi, hokimiyat va boshqaruv organlari tugatildi. Siyosiy va iqtisodiy boshqarish hamda tartibga solishning ko‘pgina tuzilmalari hamda organlari yo‘qotildi.

1992 - yil dekabrda O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi qabul qilindi. Unga muvofiq hokimiyatlarning uchga bo‘linish prinsipi amalgalashdi, ya’ni qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, va sud hokimiyatlari tuzildi. Rejalash-taqsimlash tartibiga barham berildi. Ko‘plab vazirliklar o‘rniga o‘zimizga mos xo‘jalik birlashmalari, uyushmalari, konsernlar,

korporatsiyalar, xolding kompaniyalar tashkil qilindi. Davlat hokimiyati mahalliy organlarining yangi tizimi – hokimliklar instituti tashkil qilindi. Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari tuzildi. Mahallalarga keng ahamiyat berila boshladи.

Ilk bor Respublika parlamenti – Oliy Majlis hamda vakillik hokimiyatining mahalliy organlariga ko‘ppartiyaviylik asosida muqobil saylovlар o‘tkazildi.

Sud tizimi mustaqil va boshqa tarmoqlarga bog‘liq bo‘lmagan hokimiyat sifatida qaror toptirildi.

Milliy xavfsizlik organlarining yangi tizimi amalga oshirildi. Milliy armiya tuzildi. Tashqi aloqalar tuzilmalari tashkil etildi: Tashqi ishlar vazirligi, tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi, tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki, turli ixtisoslashtirilgan muassasalar faoliyat ko‘rsata boshladи.

Mamlakatimizda birinchi bor Respublika Prezidenti lavozimi joriy etildi. Prezident ayni bir vaqtning o‘zida ham davlat boshlig‘i va ijro etuvchi hokimiyat boshlig‘i bo‘ldi.

Davlatning mohiyati tubdan o‘zgardi. U islohotlarning bosh tashabbuskori, yo‘naltiruvchisi, yangi g‘oyalarning asosiy amalga oshiruvchisi sifatida ish olib boradigan bo‘ldi. Keyinchalik hokimiyat vakolatlarining bir qismini markazdan mintaqalarga, mahalliy hokimiyat organlariga olib berish yo‘llari izlab topildi. Fuqarolarning mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlariga topshirildi. Ammo asosiy vakolatlar davlatning, eng avvalo, ijro etuvchi hokimiyatning ixtiyorida qoldirildi.

Nodavlat tuzilmalarining keng tarmog‘i tashkil topa bordi.

Shu yillari demokratik institutlarni va fuqarolik jamiyatni asoslarini shakllantirish sohasida ham muhim ishlar amalga oshirildi. Davlatni boshqarishda fuqarolarning ko‘proq ishtirok etishi tartib choralar ko‘rildi. Siyosiy partiyalar va jamoatchilik harakatlarining rivojlanib borishiga keng imkoniyatlar yaratila borildi. Ommaviy axborot vositalari (OAV) xaqiqiy “to‘rtinchi hokimiyat”ga aylantirish jarayonini jadallashtirishga kata ahamiyat berildi.

Demokratiya masalalariga jiddiy ahamiyat berib kelindi. Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, “demokratiya – faqat nazariy yoki siyosiy jarayongina bo‘lib qolmay, shu bilan birga xalqning turmush tarzi va uning butun ruhiyati, an’analari, madaniyati, pisixologiyasining xususiyatlari hamdir” (10-185). Eski tuzimni tugatish sohasida zarur tartib-choralarini amalga oshirish yillarida yurtboshimizning bu sohadagi fikr-mulohazalariga qat’iy amal qilindi.

“Biz, – degan edi u, – eski tizim o‘z o‘rnini osonlikcha bo‘shatib bermasligini, uning zaharli mafkurasi odamlar ongini tez va yengil o‘z ta’siridan, iskanjasidan chiqarmasligini yetarli darajada tasavvur qilishimiz va hisobga olishimiz zarur edi.

Eng muhimi, yangi ijtimoiy munosabatlarning zarur asosini, zaminini, kerak bo‘lsa, poydevorini qurib olish uchun ma’lum vaqt kerak edi. Ya’ni, demokratik tashkilotlarni shakllantirish, yangi qonunlarni, demokratik tushunchalar, mustaqil davlatni boshqaruv va erkin iqtisodiy tizim normalarini ishlab chiqish, tayyorlash va kundalik hayotga tatbiq etish zarur edi. Eng asosiysi, jamiyatni isloh qilish va yangilash jarayonini boshqaradigan va ta’minlaydigan, yangicha fikrlaydigan odamlarni tarbiyalash uchun ham muayyan fursat kerak edi.

Eng muhimi, odamlarning eski tafakkur qoliplaridan voz kechishlariga erishish kerak edi” (16-6). Prezidentning ana shu qimmatli ko‘rsatmalariga amal qilib, mamlakatimizda siyosiy, iqtisodiy hayotni, davlat va jamiyat qurilishini yanada erkinlashtirishga jiddiy kirishildi.

Islom Karimov mustaqillikning besh yilligi davomida qilingan ishlar, erishilgan yutuqlar xususida gapirib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining VI sessiyasi (1996 - yil, 31 - avgust)da so‘zlagan nutqida biz o‘tmish va bugungi kunimizni to‘g‘ri, xolisona baholay oldik, qiyinchiliklarga bardosh berib, o‘tish davrining murakkab muammolariga oqilona yechimlar topdik, deb aytdi.

O‘tgan besh yilda erishilgan muvaffaqiyatlar haqida gap ketganda, nimalarga erishilganini bir eslab ko‘raylik. Prezidentimizning uqtirishicha, birinchi va eng muhim yutug‘imiz shu bo‘ldiki, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni, tinchlikni, millatlararo totuvlikni ta’minladik, jamiyatni ko‘p millatlilik asosida shakllanishiga sharoit yaratdik. Odamlar O‘zbekiston o‘zlarining umumiyligi uyi ekanini tobora teran anglay boshladilar.

Hokimiyatni tarmoqlarga ajratish asosida milliy davlatchilik poydevorini barpo etish borasida tinimsiz mehnat qilish davri bo‘ldi. Eski ma’muriy buyruqbozlik tizimi hamda uning hokimiyat va boshqaruv organlari barham topdi. Davlat hayotining yangi demokratik, huquqiy asoslari yaratildi. Davlat tushunchasi, uning ma’no-mohiyati tubdan o‘zgardi. U islohotlarning bosh tashabbuskori hamda ularni muvofiqlashtiruvchi asosiy kuchga aylandi.

Xalqimizning o‘z hoxish irodasini erkin ifoda etishni ta’minlovchi saylov tizimini mutlaqo yangilash asoslari yaratildi. Respublikada bu

vaqtga kelib 4 ta siyosiy partiya va ijtimoiy harakat faoliyat ko'rsatmoqda. 200 ga yaqin jamoatilik birlashmalari ro'yxatdan o'tgan.

Xulosa qilib aytganda, islohotlar jarayonida respublikada yangi demokratik asosiy tuzumning asoslari yaratildi. Siyosiy tashkilotlarning, mafkura va fikrlarning turli-tumanligi asosiga qurilgan bu tuzum davlat va jamiyatni boshqarishda fuqarolarning keng ishtirok etishiga imkon beradi. Bundan keyingi vazifa islohotlarni yanada chuqurlashtira borishdan iborat. Avvalo, barpo etilgan siyosiy institutlar shaklan demokratik mezonlar va g'arb andozalariga o'xshasada, mazmun-mohiyatiga ko'ra, hali zamon talablari darajasida emas. Bu tuzilmalar milliy xususiyatlаримиз va tafakkur tarzимизга mos bo'lishi kerak.

Inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning samarali mexanizmini ta'minlash yuzasidan muayyan tadbirlar amalga oshirilmog'i zarur. Respublikaning qonun hujjatlari inson huquqlari sohasidagi xalqaro me'yorlar va standartlarga muvofiq holga keltirilishi lozim. Monitoring va nazorat tuzilmalarini tuzish talab etiladi.

Yangi huquqiy ongni shakllantirish, aholining siyosiy faolligini oshirish muhim. Siyosiy madaniyatni rivojlantirmoq darkor. Jamoat nodavlat tuzilmalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Siyosiy muholifat ham juda zarur. Mahalliy matbuot, axborot vositalarining faolligini oshirish kerak.

Prezidentimizning mazkur nutqida davlat boshqaruvi, demokratiyani chuqurlashtirish, aholini huquqiy madaniyatini oshirish kabi bir qator muhim masalalar xususida juda ko'p qimmatli fikr-mulohazalar aytilgan. Ularni puxta o'rganish shu yillardagi islohotlar mazmun-mohiyatini chuqur anglashga katta yordam beradi. Shuni aytish joizki, keyingi yillarda ham davlat qurilishi masalasi, boshqaruvi organlari faoliyatini erkinlashtirish, ixchamlashtirish sohasidagi muammolar asta-sekin, bosqichma-bosqich, shunga zarur shart-sharoitlar, zamin yaratib berilganiga qarab izchil amalga oshirila bordi.

2000 - yillarda ham davlat va jamiyat qurilishi jarayonlarini yanada erkinlashtirish ustuvor yo'nalishlarning barchasini o'ziga qamrab olgan muhim vazifa bo'lib qoldi. Shunga ko'ra davlat qurilishida boshqarish ishlari va ma'lum darajada vakolatlarni asta-sekin markazdan pastdagi boshqarish bo'g'inlariga berishni davom ettirish zarur, deb hisoblanadi. Pastki boshqarish bo'g'inlar faolligini oshirishga erishish zarur edi. Xalq deputatlari mahalliy kengashlari va hokimliklar, fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlari, avvalo, mahalla va jamoat tuzilmalari vakolatlarini bosqichma-bosqich amalga oshirish, ko'proq ishonch

bildirish masalalariga jiddiy e'tibor berildi. Lekin, markaziy davlat tuzilmalari, hukumat, tegishli vazirliklar tasarrufida o'ziga xos muhim vazifalar qoldirildi, albatta.

Prezidentimiz Islom Karimov ikkinchi chaqiriq xalq deputatlari Farg'ona viloyati Kengashining birinchi sessiyasi (2000 - yil 15 - yanvar)da so'zlagan nutqida qaysi vazifalar qolishini aniq aytib o'tdi. "Shu jumladan, – dedi u, – konstitutsion tuzumni, mamlakatning mustaqillik va hududiy yaxlitligini, uning sarhadlarini himoya qilish, yurt havfsizligini saqlash, huquq-tartibot va mudofaa qobiliyatini, moliya-bank, pul muomalasini ta'minlash, inson huquqlari va erkinliklariga, mulk egalarining huquqlariga, iqtisodiy faoliyat erkinligiga va bir qator strategik ahamiyatga molik masalalar qolishi tabiiydir" (17-19).

Islom Karimov mazkur nutqida mahalla jamoalariga, uning muammo va tashvishlariga yaqin bo'lgan idora va tashkilotlarga ko'proq suyanish va tayanish kerakligini alohida ta'kidladi. O'zbekistonda hayotimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish borasida parlament va hukumat oldiga qo'yiladigan vazifalar Oliy Majlis birinchi sessiyasining birinchi yig'ilishida aniq belgilab berildi.

2005 yili mamlakatda muvafaqqiyatli o'tgan parlament saylovlaridan keyin parlament nufuzi, obro'-e'tiborini yanada oshirish, uning mamlakatda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishdagi o'rni va rolini kuchaytirish uchun yanada keng vakolatlar berildi.

Parlamentning Qonunchilik palatasiga o'tkazilgan saylovlar qonunlarni ishlab chiqish va ularni hayotga tatbiq etish, qonun ustuvorligini ta'minlash yuzasidan juda muhim choralar ko'rildi. Xususan, Oliy Majlis ikki palatali qilib qayta tuzilganidan so'ng bu ishlar ko'lami yanada kengaydi va chuqurlashdi. Ushbu saylovlar chinakam demokratik tamoyillar, sayloving me'yor va mexanizmlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda yaxshi maktab vazifasini o'tadi.

Respublikamizda faoliyat yurgizayotgan siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlarining faolligi keskin oshdi. Saylovchilarining kelajagini demokratik qadriyatlar asosida, ular o'z hayotlarini o'zlari qurishga qodir ekanliklarini namoyon qildilar. Bu masalalar haqidagi muhim fikr-mulohazalar bilan Islom Karimovning "Bizning bosh maqsadimiz-jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir" nomli asarini o'qib yaxshi tushunib olish mumkin. Umuman Islom Karimovning bir qator asarlarida davlat hokimlari va

davlatni boshqarish sohasida izchillik bilan bosqichma-bosqich hal etib kelingan vazifalar yorqin dalil va misolar bilan aniq ravshan ko'rsatib berilgan.

Ikkinchি masala. Mustaqillik qo'lga kiritilgan dastlabki yillarda siyosiy mustaqillikni ta'minlash sohasidagi eng dolzarb va o'ta muhim muammolarni hal etishga alohida e'tibor berib kelingandi. Bu sohadagi zarur chora-tadbirlar ro'yobga chiqarilgach, iqtisodiy mustaqillik masalalariga ham e'tibor berila boshlandi. Bundan siyosiy mutaqillikni ta'minlash vaqtida iqtisodiy muammolarga e'tibor berilmadi, degan ma'no chiqmaydi, albatta. Bu ikki muhim masalalar doimo o'zaro uyg'unlikda hal etila borilgan.

Faqat siyosiy mustaqillikni ta'minlashning hech kechiktirib bo'lmaydigan masalalari hal etilgach, taraqqiyotning ustuvor yo'nalishi asosan iqtisodiyotga qaratildi. Avvalgi boblarda aytilganidek, iqtisodiyotga doir vazifalarni hal etishda dastlabki yillari iqtisodiyot tizimini tubdan o'zgartirish, mulk, mulkchilik masalalarini amalgalash, xususiylashtirish, iqtisodiyotni bosqichma-bosqich erkinlashtirish yuzasidan bir qator muhim ishlar bajarildi.

Iqtisodiyotni rivojlantirishning birinchi bosqichida xususiylashtirish jarayoni asosan tugatildi. Iqtisodiyotning ko'p sohalari erkinlashtirildi, mulkdorlar sinfini shakllantirish, bozor infrastrukturasini yaratish, umuman iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish ishlarini izchillik bilan davom ettirishga ahamiyat berildi.

Iqtisodiy islohotlarning ikkinchi bosqichida yirik korxonalar, savdo, xizmat ko'rsatish tarmoqlarini xususiylashtirish, davlatning boshqaruvi rolini chegaralash, xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy erkinliklarini hamda iqtisodiyotning barcha sohalarida xususiy mulk miqyoslarini kengaytirish, mulkdorlarning mavqeい va huquqlarini mustahkamlash kabi vazifalar mamlakat rahbariyatining diqqat-markazida bo'ldi. Bu davrdagi vazifalar, xo'jaligimizning ustuvor yo'nalishlari, islohotlarni yanada chuqurlashtirish sohasida qilinadigan ishlar haqida bat afsil ma'lumotga ega bo'lish uchun Prezidentimizning bir qator fundamental asarlarini sinchiklab o'rganish talab etiladi. Chunonchi, uning "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari", "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda", "Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir", bir qator nutqlari, chunonchi, "Hozirgi bosqichda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning muhim vazifalari. Prezident Islom

Karimovning Oliy Majlis VI sessiyasida so‘zlagan nutqi”ni qunt bilan o‘qib o’rganish katta foyda beradi.

Islom Karimov O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan VI sessiyasida so‘zlagan nutqida mustaqillik yillari mobaynida iqtisodiyot sohasida ro‘y bergan teran o‘zgarishlar haqida bat afsil so‘zlab berdi.

Shu davrdagi ishlarning asosiy yakunlariga to‘xtalib o‘tib, avvalo iqtisodiy munosabatlarda, ayniqsa mulk masalalarida tub o‘zgarishlar amalga oshirilganini mammuniyat bilan ta’kidladi. Uning uqtirishicha, mulkni xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish dasturini amalga oshirish natijasida mamlakatimizda haqiqiy ko‘p tarmoqli iqtisodiyot shakllantirildi, nodavlat sektor mustahkamlandi va u iqtisodiyotimizda faol rol o‘ynay boshladi.

Xo‘jalik yuritishning ma’muriy-buyrqobozlik usuli, rejali boshqarish va taqsimlashning markazlashgan tizimiga barham berildi, iqtisodiy rag‘batlantirishga, korxonalarning iqtisodiy erkinligiga va raqobat tamoyillariga asoslangan bozor mexanizmlari tobora keng joriy etildi.

Hozirgi zamon talablariga javob beradigan bozor infrastrukturasi shakllantirildi, yangi bank, moliya, soliq tizimlari, fond va tovar xomashyo birjalari, sug‘urta, auditorlik, lizing kompaniyalari va boshqa bozor tuzilmalari tarmog‘i barpo etildi. Qimmatli qog‘ozlar bozori faoliyatini ko‘paytirish chora-tadbirlari ko‘rildi. O‘zimizning milliy pul tizimimiz yaratildi. So‘m mamlakatimizda yagona to‘lov vositasi bo‘lib qoldi.

O‘z vaqtida ko‘rilgan qat’iy chora-tadbirlar iqtisodiy va moliyaviy barqarorlikni ta’minladi, inflyatsiya darajasi keskin pasaydi, ishlab chiqarishning pasayishi to‘xtatildi. Investitsiya faoliyati rivojlantira borildi. 1996 - yilning birinchi yarmidan boshlab iqtisodiyotimiz barqaror yuksaldi va aholining turmush darajasi sekin-asta yaxshilana boshladi.

Iqtisodiyotning tuzilma jihatidan yangilanishi ta’minlandi. Respublikamizning yonilg‘i-energetika mustaqilligiga erishilganligi eng kata yutuqlarimizdan biri bo‘ldi. O‘zimizning tashqi bozorda raqobat qilishga qodir bo‘lgan tayyor mahsulotimiz ulushi osha bordi, sanoat va qishloq xo‘jaligining butunlay yangi, avtomobilsozlik, mikrobiologiya, g‘allachilik sohalari barpo etildi. Import o‘rnini bosadigan mahsulotlarning 500 dan ortiq xili o‘zlashtirildi, xorijiy sarmoyadorlar ishtirokida iqtisodiyotimiz tuzilmasini tubdan o‘zgartiradigan yirik sarmoya loyihalari muvafaqqiyat bilan amalga oshirib kelindi. Eng

muhim yakun-odamlarimizda mulkka egalik, mulkdorlik tuyg‘usi uyg‘ondi, daromad keltiradigan mulk shakllandı.

Iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichi tugab, ikkinchi bosqichga o‘tish davri mobaynida qilingan ishlar va yechimini kutayotgan vazifalar haqida to‘liq tasavvurga ega bo‘lish uchun Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi Akademiyasining ochilish marosimi (1995-yil 3-oktyabr)da so‘zlagan nutqiga murojaat qilish foydali bo‘ladi.

Islom Karimov o‘zining mazkur nutqida jamiyatimiz va iqtisodiyotimizni isloh etishdagi mavjud muammolar hamda vazifalar xususida o‘z fikr-mulohazalarini bayon etdi.

Bu davrdagi eng katta muammo inflyatsiyani bartaraf etishdan iborat edi. Inflyasiyani pasayishini kutib o‘tirmasdan uni tubdan qisqartirish choralarini ko‘rish lozim edi. Bu muammoni ko‘ngildagidek hal etmasdan iqtisodiy tanazzuldagи barcha nuqsonlarni yengish, iqtisodiyotni barqarorlashtirish, korxonalarni ishlab chiqarish va sarmoya jalb etish borasidagi faolligini ko‘tarish, aholining real daromadlarini oshirish mumkin emas edi. Islom Karimov bu yo‘nalishda anchagina ishlar qilinganligini ta’kidladi: bank va moliya tizimi, tijorat banklarining yaxlit tarmog‘i tashkil topdi, emissiyaga qarshi tartibga solish bo‘yicha kuchli tadbir-choralar amalga oshirildi. Narxlarni yanada erkinlashtirishda inflyatsiya darajasi birmuncha qisqardi.

Keyingi muhim vazifa, Prezidentimiz fikricha, davlat mulkini xususiylashtirish va mulkdorlarning haqiqiy sinfini shakllantirish bo‘yicha boshlagan ishni oxirigacha yetkazishdan iborat bo‘ldi. “Xususiylashtirish masalalarida, – deydi Islom Karimov, – biz sifat jihatidan yangi bosqichga qadam qo‘ydik. “Kichik xususiylashtirish”ni, ya’ni mahalliy sanoat, savdo va xizmat ko‘rsatish sohalari korxonalarini davlat tasarrufidan chiqarishni amalga oshira borib, biz muayyan tajriba orttirdik, mutaxassislar tayyorladik. Bular bugungi kundayoq sezilarli natijalarga olib keldi. Hozir milliy daromadning yarmidan ko‘prog‘ini, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi, savdoning deyarli butun hajmini davlatga qarashli bo‘lmagan sektor bermoqda. Mazkur sektor uzlusiz rivojlanmoqda” (12-206).

Davlatimiz rahbarining uqdirishicha, yaqin kelgusidagi muhim vazifa, – bu davlat korxonalarini keng ko‘lamda aksiyalashtirish orqali xususiylashtirish. Buning uchun fond birjasini, qimmatli qog‘ozlar birjalarini keng rivojlantirish va erkinlashtirish, ularni nafaqat

O‘zbekistonda, balki undan tashqarida ham ochish va har tomonlama kengaytirish zarur.

Mulk o‘zining haqiqiy egasini topishi kerak. Shundagina mulk egasi o‘z mulkini saqlash va ko‘paytirish uchun kurashadi. Mulkdorlar sinfi mamlakatning iqtisodiyotini mustahkamlashdan chinakam manfaatdor bo‘ladi.

O‘rta va xususiy tadbirkorlar toifasi yaqin kelajakda davlatimizning ishonchli va mutahkam tayanchiga aylanadi. Shunda ichki bozorimiz tovarlar bilan to‘ldiriladi. Xorijiy sarmoya va eng yangi texnologiyalar jalg etiladi, aholining avvalo, ishlab chiqaruvchilarning daromadlari ko‘payadi, aholimiz aksariyat qatlamining turmush darajasi ko‘tariladi. Milliy valyutani mustahkamlash choralar ko‘rilishi zarur. Tub tuzilma o‘zgarishlariga erishmoq uchun ichki sarmoyalarni safarbar qilish va xorijiy sarmoyalarni keng jalg etish nihoyatda muhim ahamiyatga ega.

2000 - yil va undan keyingi davrlar mobaynida ham respublikamizda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, erishilgan marralarni mustahkamlab, islohotlarning izchil borishi asosiy vazifa qilib belgilandi. Bu bosqichda qilingan ishlar va vazifalarni tushunib olish uchun Prezident Islom Karimovning 2003 - yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2004 - yilda islohotlarni chuqurlashtirishning asosiy yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma’ruzasiga murojaat qilish o‘rinli bo‘ladi.

Mazkur nutqda aytib o‘tilgan ma’lumotlarga ko‘ra, mamlakatimizda makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o‘sish sur’atlarining izchilligi ta’minlanadi. Liberallashtirish siyosati, byudjet va soliq sohalarini erkinlashtirish jarayoni iqtisodiyotimizning barqaror rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Bu yillari qat’iy pul-kredit siyosatini o‘tkazish, pulni bankdan tashqarida aylantirishni va yalpi pul hajmini qisqartirish bo‘yicha muhim tadbir-choralar amalga oshirildi. Investitsiya siyosati iqtisodiyotimizdagi barqarorlik, tarkibiy va sifat o‘zgarishlarini belgilovchi muhim omil bo‘ldi.

Iqtisodiyotdagagi islohotlar siyosiy soha, davlat qurilishi, sud-huquq tizimidagi chuqur islohotlar bilan uyg‘un holda amalga oshirildi. Mazkur nutqida Islom Karimov xususiy lashtirish jarayonlari sur’atini yanada tezlashtirish, iqtisodiyotda xususiy sektorning ko‘lami va hajmini oshirish masalalari bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirdi. 2004 - yilda bajarilishi lozim bo‘lgan asosiy vazifalarni birma-bir ko‘rsatib berdi.

Uning ko'rsatmasi bo'yicha bu yilda zarar ko'rib kelayotgan, iqtisodiy nochor pudratchi qurilish tashkilotlarini xususiy lashtirish va tugatish jarayonlarini to'liq yakunlash, loyiha tashkilotlarini davlat tasarrufidan chiqarish, pudrat va loyiha ishlarining tom ma'nodagi bozorini yaratish zarur. Qurilish va loyiha ishlariga doir buyurtmalarni bajarish bo'yicha tanlov, tender savdolari o'tkazish sifatini oshirish, bu masalada turli ma'muriy aralashuvlarga chek qo'yish talab etiladi. Ayni vaqtda qurilishda loyiha, smeta va texnologiya intizomini mustahkamlash yuzasidan zarur chora-tadbirlarni ko'rish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, mamlakatimiz korxonalarida yuqori texnologik qurilish – pardozlash materiallari ishlab chiqarishini rivojlantirishga qaratilgan yangi dasturni ishlab chiqish va uning ijrosi ustidan qat'iy nazorat o'rnatish lozim.

Yana bir muhim masala – bu fermerlik harakatini rivojlantirish masalasi. Yurtboshimiz ana shu nutqida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yuzasidan bir qator muhim fikr mulohazalarni aytib o'tdi (18-10).

O'zbekistogn islohotlarni yanada chuqurlashtirish, mamlakatni modernizatsiya va isloh etish yuzasidan 2000-2011 yillar davomida qilingan ishlar, erishilgan natijalar, navbatdagi vaziyatlar haqidagi tegishli ma'lumotlarni olish uchun Prezidentimiz Islom Karimovning ana shu yillar davomida nashr etilgan asarlari, so'zlagan nutqlari, suhbatlari, Vazirlar Mahkamasining yig'ilishlari materiallaridan foydalanish kerak bo'ladi. Prezidentimizning O'zbekiston konstitutsiyasining 16 yilligiga bag'ishlangan qo'shma majlisidagi ma'rzasasi, shuningdek, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va keyingi yillarga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'naliishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzalari, hukumatimizning so'nggi yillardagi muhim qarorlari, me'yoriy hujjatlarni o'rganish, mamlakatimizning 2000-2011 yillarda islohotlarni yanada chuqurlashtirish, mamlakatni modernizatsiya va isloh etish sohasidagi amalga oshirilgan ishlar va navbatdagi vazifalarni aniq-ravshan tasavvur etishga yordam beradi.

Uchinchi masala. Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq prezidentimiz Islom Karimov maqsadimizga erishishimiz, yangi jamiyat qurishimiz, siyosatda ham, iqtisodda ham, ma'naviyat sohasida ham barcha islohotlarning taqdiri o'sib kelayotgan yosh avlodga bog'liq, deb ta'kidlagan edi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasi (1997 - yil 20 - avgust)da so‘zlagan nutqida Yurtboshimiz barkamol avlod-O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori, deb ta’rif berdi. Darhaqiqat, yangicha fikrlaydigan, elim deb, yurtim deb yonib yashaydigan, bilimdon, tinib-tinchimas, oq-qorani yaxshi taniydigan, tashabbuskor, tadbirkor o‘g‘il-qizlarimiz bor ekan, mamlakatimizda chinakam demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatni barpo etishdek oliy maqsadni amalga oshirish qo‘limizdan keladi. Davlatning nechog‘lik baquvvat, taraqqiy etgan, buyuk davlat bo‘lishi ko‘p jihatdan aholimizning aksariyat qismini tashkil etadigan yoshlarimizga bog‘liq. va, aksincha, yoshlarimizning yuqori saviyali, bilimi o‘tkir, zehni baland, chin ma’noda barkamol, tashabbuskor, mehnatsevar oljanob bo‘lib yetishishi davlatimiz, jamiyatimiz nechog‘lik bu xususda astoydil g‘amxo‘rlik qilishi, yosh yigit-qizlarimizga o‘zlarining ota-onalari, avlod-ajdodlaridan o‘tgan iste’dod, qobiliyatlarini namoyon qila olishlari uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratib bera olishlariga bog‘liq. Binobarin, farzandlarimizni O‘zbekistonning munosib o‘g‘il-qizlari etib tarbiyalash masalasi ma’naviyat sohasidagi ishlarimizning asosiy yo‘nalishlarini tashkil etmog‘i kerak.

Mustaqillikka erishilgani hamono davlatimiz, rahbariyatimiz, shaxsan Prezidentimiz Islom Karimov bu masalaga davlat ahamiyatiga molik juda katta va o‘ta mas’uliyatli vazifa sifatida qarab keldi va buning uchun barcha kuch va imkoniyatlarni ishga solib, izchillik bilan harakat qilinmoqda. Bu muhim davlat, jamiyat ishini amalga oshira borishda xalqimiz, farzandlarimizning ota-onalari, butun jamoatchilik muntazam qatnashib keldi va hozirda ham faol qatnashmoqda.

O‘zbek xalqi bolajon xalq. O‘zbeklar hayotimizning, umrimizning mazmunini farzandlarsiz tasavvur eta olmaydi. Hur o‘lkamizda umrguzaronlik qilayotgan har bir inson farzandining baxtu saodati, fazlu kamolini ko‘rish uchun, butun umri davomida jon fido etib kurashadi, mehnat qiladi, tinib-tinchimaydi.

“... ota-onaning farzand oldidagi burchlari, – degan edi Islom Karimov O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida so‘zlagan nutqida, – o‘zlarining oxiratini obod etuvchi qarzlari bor. Dinu diyonatli xonodon oqsoqollaridan so‘rasangiz, ularni lo‘nda qilib sanab beradi: yaxshi nom qo‘yish, yaxshi muallim qo‘liga topshirib, savodini chiqarish, ilmlli, kasb-hunarli qilish, boshini ikki qilish, uyli-joyli qilish.

Bugun ana shunday oljanob an'analar qaytadan mustahkam qaror topishi va rivojlanishi uchun istiqlol sharofati tufayli, eng qulay muhit

yaratildi. Bu shubhasiz, biz ota-onalar va mustaqil, buyuk kelajakka intilayotgan davlatmiz zimmasiga juda katta vazifalar va mas'uliyat yuklaydi” (11-30). Shu bois mamlakatimizning istiqlol yo‘lidagi dastlabki qadamlaridanoq miliiy ta’lim-tarbiya tizimimizni takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg‘unlashtirish asosida jahon andozalari va ko‘nikmalari darajasiga chiqarish masalasiga katta ahamiyat berib kelinmoqda.

“Har bir o‘g‘il-qizimiz dastlabki qamdamlardan boshlab madaniy boyliklarimizdan baxramand bo‘lishi kerak.

Iste’dodli yoshlarimizning o‘zлari qiziqqan sohalarida yetuk insonlar bo‘lib yetishishlari uchun tegishli shart-sharoitlar hali to‘la yaratilgani yo‘q.

O‘zimizni ma’naviy burchimizni oqlashni istasak ularga otalarcha g‘amxo‘rlik qilishimiz kerak. Ana shu maqsadda biz ularning mamlakatimiz va chet ellardagi ilmiy markazlarda ta’lim olishlari uchun mablag‘lar ajratdik. Bu ishlar uchun hech narsani, shu jumladan valyutani ham ayamaymiz” (12-28).

Islom Abdug‘aniyevich aytganidek, avvalgi yillarda ta’lim tizimimiz jahon sivilizatsiyasining ilg‘or yutuqlaridan va xalqimizning tarixiy ildizlaridan ajralib qolgan edi (12-44).

Bu ahvolni tubdan yangilash nihoyatda zarur edi.

Kadrlar tayyorlash, tarbiya masalalarida izchil siyosat olib borishni talab etmoqda edi.

“Buyuk davlat, buyuk kelajagimizga erishish uchun oqil, ma’rifatli, ayni paytda o‘zini o‘tmishi, ulug‘ qadriyatları, millati bilan faxrlanadigan va kelajakka ishonadigan insonlarni tarbiyalashimiz kerak.

O‘z ishini aql bilan, tushunib bajaradigan kishida mehnatidan faxrlanish, hayotidan zavqlanish tuyg‘usi kuchli bo‘ladi. Ana shunday odamlarni tarbiyalashimiz, mamlakatimizning har bir fuqarosi ana shunday tuyg‘u bilan yashashga erishmog‘imiz kerak” (12-162). Shu olivjanob maqsad yo‘lida o‘tgan yillar mobaynida talaygina ishlar qilindi. Yechimini kutayotgan bir qator muammo hal etildi.

1996-1997 o‘quv yilidan boshlab maktablarning birini sinflarida o‘qish yangi alifboda olib borildi. Buning uchun zarur dastur, qo‘llanma va darsliklar yaratildi. 300 ga yaqin yangi turdagи ta’lim muassasalari ochildi. Oliy o‘quv yurtlari qoshida 46 ta litsey tashkil etildi. O‘qituvchi va o‘quvchilarni xorijiy davlatlarga yuborib o‘qitish amaliyoti joriy qilindi. 800 ga yaqin o‘quvchi chet ellarda ta’lim oldi. Ko‘pgina

o‘qituvchilar ilg‘or tajribalarni o‘rganish maqsadida chet mamlakatlarga borib keldilar. O‘qituvchi va murabbiylarga joylarda yordam kuchaytirildi. Biznes maktablari, kasb-hunar kurslari ochildi. Fermer, soliq va bojxona xodimi, audit kabi yangi mutaxassisiklar bo‘yicha kadrlar tayyorlashga kirishildi. Bank kollejlari, Toshkent ayollar kolleji tashkil qilindi. Oliy maktablarda test usuli joriy etildi. Viloyatlar markazlarida pedagogika institutlari universitetlarga aylantirildi. Davlat va jamiyat qurilish akademiyasi, Bank va Moliya akademiyalari tashkil qilindi.

“Mahalla”, “Kamolot”, “Sog‘lom avlod uchun”, “Nuroniy”, “Ulug‘bek”, “Umid” jamg‘armalari yoshlarni barkamol qilib tarbiyalash ishlariga katta hissa qo‘shib kelmoqda. Ammo, bu sohada hali muammolar, kamchiliklar ko‘p.

Eski sho‘rolar zamonidan qolgan ta’lim-tarbiya tizimini tashkil qilish muammolarini yechib berolmayapti. Bizning amaldagi ta’lim-tarbiya tizimimiz bugungi talablarga javob berolmayapti. Tarbiyachi, o‘qituvchilarimizga tashabbuskorlik, yangilikka intilish, o‘qish-o‘qitishning yangi samarali yo‘l-yo‘riqlarini izlab topish va joriy etishga harakat yetishmayapti. O‘quv jarayoni ham uni tubdan o‘zgartirishni talab qiladi. Ne sababdan sovet davrining 11 yillikka o‘tilganini ko‘pchilik hamon tushungani yo‘q.

Islom Karimov mazkur nutqida boshlang‘ich ta’limga ikkinchi darajali ish deb qaralayotgani, ba’zi hollarda birinchi sinflarda bilimi sayoz muallimlar o‘qitayotgani, o‘quv jarayonida bolalarimizga qachondan boshlab, qanday qilib, qanday usulda va uslubda milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimizni o‘rgatishimiz, chuqur anglatishimiz kerakligi, shuningdek nima uchun o‘quv rejalarida yoshlarga ahloq va odob, ijtimoiy, huquqiy bilimlar asoslarini o‘rgatadigan fanlarga yetarli o‘rin berilmagani xususida gapirib o‘tdi.

Islom Karimov sessiya qatnashchilariga ta’lim-tarbiya tizimining yana qanday kamchiliklari ustida to‘xtalib o‘tganini aniq bilib olish uchun uning mazkur nutqini shoshilmasdan, bafurja, diqqat bilan takror-takror o‘qib ko‘rish kerak bo‘ladi. U o‘z so‘zida eski qolipda, mustabid davrda yozilgan darsliklardan foydalanib, eski mafkuradan xalos bo‘lmasdan bolalarimizni yangicha fikrlarga o‘rgataolmasligimiz haqida achinib gapirdi. SHuningdek, umumta’lim maktablarining 9-sinfini bitirgan bolalar taqdiri haqida alohida ta’kidladi. Maktabni bitirgandan keyin oliy o‘quv yurtlariga o‘qishga kira olmayotgan o‘g‘il-qizlarimiz qobiliyati, havasi, intilishiga mos, hayotda o‘ziga munosib o‘rin

topolmayotganiga nima deyish kerak?! Bu va boshqa bir qator kamchiliklarning hammasi ta’lim-tarbiya tizimimizni tubdan isloh qilish zarurligini yaqqol ko‘rsatib turibdi. Ana shularni nazarda tutib, kadrlar tayyorlashning milliy dasturi va ta’lim-tarbiya bo‘yicha yangi qonun qabul qilindi. Sessiya qatnashchilari mazkur Dastur va Qonun bilan mufassil tanishtirib chiqildi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga ko‘ra, oliy ta’lim sohasida islohotlarni o‘tkazish ko‘zda tutilgan. Bu islohot, jumladan, shunday vazifalarni hal etib berishi kerak. Avvalo oliy o‘quv yurtini bitirayotganlar qanday talablarga javob berishi lozim. Iste’dodli bolalarni topish, tanlash, qabul qilishda obyektiv adolatli tizim va tartib o‘rnatish zarur. Har bir oliy o‘quv yurtida qanday va necha xil mutaxassislik bo‘yicha ta’lim berilishi aniqlab olinishi shart. O‘quv yurtlarimizning shakli, qiyofasi va tarkibi, moddiy bazasi zamonaviy bo‘lishi shart.

Ta’lim-tarbiya tizimini bosqichma-bosqich isloh qilish kutilgan.

Birinchi bosqich (1997-2001 yillarda) huquqiy-me’yoriy, ilmiy-metodik, moliyaviy-moddiy, shart-sharoitlar yaratilishi kerak.

Ikkinci bosqich 2001-2005 yillarga mo‘ljallangan bo‘lib, bu davrda Milliy dastur keng miqyosda to‘liq amalga oshirilishi zarur.

Uchinchi bosqich, 2005 - yil va keyingi yillarga mo‘ljallangan. Bu yillarda to‘plangan tajribalarni, tahlil etish va umumlashtirish asosida tizimni takomillashtirish va yanada rivojlantirish ko‘zda tutilgan. Nutqda umumta’lim dasturlarini maktabgacha tarbiya, boshlang‘ich, umumiyligi ta’lim va maktabdan tashqari ta’lim tarzida tuzish maqsadga muvofiq bo‘lishi alohida ta’kidlab o‘tildi. Shundan keyin oliy mutaxassislik ta’limi va u qanday ta’limlarga bo‘linishi haqida aytildi. Islom Karimovning mazkur nutqini har bir talaba yaxshi o‘zlashtirib olishi kerak.

Islom Karimov ta’kidlaganidek, Oliy Majlis IX sessiyasida qabul qilingan Kadrlar tayyorlash bo‘yicha Milliy dasturni amalga oshirish, hayotga tatbiq etish, hech mubolag‘asiz, strategik maqsadlarimiz – farovon, qudratli, demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyatni barpo etishimizning asosi bo‘lmog‘i lozim (16-18).

Keyingi yillarda bu sohada qo‘lga kiritilgan samaralar Prezidentimizning bu gaplari mutlaqo to‘g‘ri ekanligini isbotlab kelmoqda. Milliy dasturning bosqichma-bosqich izchil amalga oshirilishi, Milliy ta’lim-tarbiya tizimida chinakamiga katta o‘zgarishlar ro‘y berdi: o‘qish-o‘qitish samaradorligidaadolat mezoni o‘rnatildi,

o‘qituvchilar maoshi oshdi, ta’lim-tarbiya tizimida yangidan-yangi pedagogik texnologiyalar keng qo‘llanila boshlandi. Qisqasi, ta’lim-tarbiya tizimimiz zamon talablari darajasiga ko‘tarildi.

Davlatimiz, shaxsan, Islom Karimov tashabbusi bilan yoshlarning kundalik rang-barang va jo‘shqin hayotimizning barcha jabhalarida keng va faol qatnashishlari uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratib berdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan 1996 - yil 17 - aprelda O‘zbekiston Respublikasi yoshlaringning “Kamolot” jamg‘armasi tuzildi. Bu jamg‘arma yosh avlodning har tomonlama kamol topishi, chuqur bilim, kasb egallashi, o‘zlarida yuksak ma’naviyat, vatanparvarlik, mehnatsevarlik fazilatlarini hosil qilishi, ularni istiqlol ishining izchil davomchilari bo‘lib yetishishlarda ko‘p qirrali yordam ko‘rsatish vazifasi yuklandi.

1997 - yil 7 - yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti “Iqtidorli yoshlarning chet elda ta’lim olishlarini qo‘llab-qo‘vvatlash “Umid” jamg‘armasini tuzish to‘g‘risida”gi farmoniga imzo chekdi. Shuningdek yoshlarni jismoniy tarbiya va sport ishlariga keng jalb qilish maqsadida bir qator muhim qarorlar qabul qilindi. Respublikaning barcha viloyatlari, tumanlari, shaharlari, ayniqsa, qishloqlarida farzandlarimiz uchun turli sport inshootlari qurila boshlandi: stadionlar, suv inshootlari, tatami, kort va boshqa xil sport inshootlarida o‘g‘il-qizlarimiz sportning o‘zлari yoqtirgan turlari bilan muntazam shug‘ullana boshladilar. O‘zbekiston dovrug‘ini butun dunyoga tanitayotgan ajoyib championlar, sport musobaqalarining sovrindorlari yetishib chiqa boshladi.

Keyingi yillarda yoshlar masalasi bo‘yicha olib borilayotgan oqilona ishlar Prezidentimiz xohlaganidek, farzandalrimiz o‘g‘il-qizlarimizning bizdan ko‘ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo‘lishlari uchun barcha zarur shart-sharoitlar yaratib berayotganining guvohi bo‘lib turibmiz.

Prezident I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan va 2010 - yilning 12 - noyabrida *O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Qonunchilik palatasi va Senating qo‘shma majlisida e’lon qilingan* «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi»sida yangi jamiyat qurishga doir o‘z konseptual nazariy qarashlarida bu sohadagi milliy merosga muhim ahamiyat beriladi. Unda quyidagi ustuvor vazifalar belgilab olindi:

- **Davlat hokimiyyati va boshqaruvini demokratlashtirish;**
- **Sud-huquq tizimini isloh qilish;**

- Axborot va so‘z erkinligini ta’minlash;
- O‘zbekistonda saylov huquqi erkinligini ta’minlash va saylov qonunchiligini rivojlantirish;
- Fuqarolik jamiyatni institutlarini shakllantirish va rivojlantirish;
- Demokratik bozor islohotlarini va iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish (38-15).

Har qaysi jamiyat konsepsiya da ta’kidlangan, demokratlashtirish jarayonida dolzarb xarakterga ega bo‘lgan sud-huquq tizimini isloh etish mamlakatni demokratik yangilashning bugungi bosqichdagi eng muhim yo‘nalish sifatida qonun ustuvorligi va qonuniylikni mustahkamlash, shaxs huquqi va manfaatlarini himoya qilish, ya’ni huquqiy davlat asoslarini yanada takomillashtirish va liberallashtirish, aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, sud tizimini ijro etuvchi hokimiyat organlari nazorati va ta’siridan chiqarish imkonini bergani, prokurorlik va advokatura institutlarini takomillashishi, ayniqsa, ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Axborot sohasini isloh qilish, axborot va so‘z erkinligini ta’minlash yo‘nalishida «Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida» qonun qabul qilish zaruriyati masalasining qo‘yilishi, avvalo, fuqarolarning axborot sohasidagi konstitutsiyaviy huquqini yanada kengaytirish, boshqaruv organlari qabul qilayotgan qarorlar sifatini oshirish borasidagi mas’uliyatini oshirish hamda davlat hokimiyati organlari faoliyati haqida jamoatchilikni xabardor qilish tartiblarini belgilash, ijro hokimiyati organlari faoliyatining, yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni, davlat ichki va tashqi siyosatining ochiqligi hamda oshkorraligini, mamlakatimiz va xorijda kechayotgan voqeя va hodisalar xususida fikrlar xilma-xilligi va siyosiy plyuralizmni hisobga olgan holda ta’minlanishi masalalarining alohida ta’kidlab o‘tilishi boshqaruvni demokratlashtirishning yangi xususiyatlari tarkib topishiga xizmat qiladi.

Insoniyat taraqqiyotida davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish masalasi, uni amalga oshirishning turli xil shakllari bilan bog‘liq holda har xil yechim topib kelgan. Davlat jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichida ijtimoiy-siyosiy ehtiyojlar tufayli shakllangan siyosiy institutdir. U jamiyatda turli insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solishda, ularni farovon, baxtli hayot kechirishlarini ta’minlashda muhim o‘rin tutgan. Ammo bu osonlikcha amalga oshmagan. Jamiyat tarixida davlat manfaati inson manfaatiga

xizmat qilgan holatlar bilan birga, aksincha, “davlat hukmronligi”, boshqaruvda “ma’muriy buyruqbozlik” amal qilgan davrlar ham ko‘p bo‘lgan, mustabid Sovet davri bunga tipik misoldir. “Hokimiyat” tushunchasi eng universal bo‘lib, “davlat hokimiyati”, “siyosiy hokimiyat” uning o‘ziga xos ko‘rinishidir. O‘zbekistonda, mustaqillik tufayli, bu tushunchalar yangicha ma’no-mazmun kasb eta boshladi. Mamlakatimizda davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirishga ustuvor ahamiyat berildi. “Inson – jamiyat – davlat” tizimi huquqiy asosda yechim topdi. “Xalq davlat hokimiyatning birdan-bir manbaidir” (1-4). (O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 7-modda) degan norma konstitutsiyada belgilab qo‘yildi. Demak xalqning xohish-irodasi, maqsad va manfaatlarini davlat hokimiyati va boshqaruvini amalga oshirishda belgilovchi ahamiyat kasb etadi. Bugun bu – o‘ziga xos ijtimoiy-siyosiy makondir.

Mamlakatimizda, davlat hokimiyatini demokratlashtirishda, “bosqichma-bosqichlik” tamoyiliga tayangan holda amalga oshirish hayotiyligi, buning uchun zarur bo‘lgan barcha shart-sharoitlarni, shuningdek omillarni hisobga olgan holda amalga oshirilayotganligi, davlatni bosh islohotchi sifatida mamlakatda barqaror, siyosiy hayotni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

“Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari” konsepsiyasining qabul qilinib, asoslanganligi uning o‘ziga xos siyosiy mantiqidir. Demak, davlat hokimiyatini nomarkazlashtirish, markaziy davlat hokimiyatining ayrim vakolatlarini mahalliy davlat hokimiyatiga berib borish, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining rolini oshirish, jamoat birlashmalari, fuqarolarning NNTda faol ishtirok etishi va ular sonining ko‘payib borishi, fuqarolarning siyosiy ong va madaniyatini yuksalib borayotganligi o‘ziga xos demokratik muhit yaratib bermoqda. Bu bilan bog‘liq konstitutsion o‘zgarishlar, yangi qonunlar qabul qilinmoqdaki, bu davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashib borayotganligi orqali o‘zining ifodasini topmoqda. Mustaqillik tufayli, O‘zbekistonda davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashuvi bilan bog‘liq o‘zgarishlar buni tasdig‘idir. “Buning tasdig‘ini, - deb ta’kidlaydi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov, - mamlakatimizni isloh etish va demokratlashtirish jarayoni hech qachon ortga qaytmaydigan, qat’iy va izchil tus olgani, odamlarimiz o‘zgarib, ularning siyosiy va fuqarolik faolligi oshayotgani, ongu tafakkuri yuksalib, yon-atrofda bo‘layotgan barcha voqealarda dahldorlik

tuyg‘usi, ertangi kunga ishonchi ortib borayotgani misolida ko‘rish, anglash qiyin emas”. (38-7).

Bu “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi”da ham aniq ifodasini topdi. Uning asosiy yo‘nalishlari belgilab berildi. “Davlat hokimiyatini va boshqaruvini demokratlashtirish” uning yo‘nalishlaridan biridir. Bu pirovard maqsadni – fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga qaratilganligini anglatadi. Natijada fuqarolar o‘zaro huquq va erkinliklarini, manfaatlarini anglab, tegishli fuqarolik institatlari orqali davlat va jamiyat boshqaruvida faol ishtirok etib bormoqdalar. Fuqarolik mas’uliyati va madaniyati ortmoqda. Bu “demokratik jamiyatning – huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati” uyg‘unligini, amalda ta’minlashga xizmat qilmoqda.

Konstitutsiyamizning 56-moddasida quyidagicha belgilab qo‘yilgan: “O‘zbekiston Respublikasida qonunda belgilangan tartibda ro‘yhatdan o‘tkaziladigan kasaba uyushmalari, siyosiy partiylar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalari jamoat birlashmalari sifatida e’tirof etiladi” (1-11).

Bugungi kunda mamlakatimizda 5100 dan ziyod nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyat yuritayotganini va bu ko‘rsatkich 2000 - yilga qaraganda 2,5 barobar ko‘pligini, fuqarolar yig‘inlari va o‘zini o‘zi boshqarish organlari - mahallalar soni 10 mingdan ortiqni tashkil etishini hisobga olsak, ularning jamiyat hayotida o‘z o‘rnini topayotgani va, albatta, milliy g‘oya maqsadlarini keng jamoatchilikka yetkazishda o‘rni oshayotganini guvohi bo‘lamiz. Shuni hisobga olgan holda yurtimizda fuqarolik institutlariga doir 200 dan ortiq qonun hujjatlari mavjud bo‘lib, “Jamoat fondlari to‘g‘risida”gi, “Homiylid to‘g‘risida”gi qonunlar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institatlari rivojlanishiga ko‘maklashishi chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati Kengashlarining “Nodavlat notijorat tashkilotlarini, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qo‘shma qarori, “Ijtimoiy sherikchilik to‘g‘risida”gi Qonun, “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni shular jumlasidandir.

Davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish: mustaqillik; inson erkinligi va manfaatlarining ustuvorligi; davlatni bosh islohotchi

ekanligi; davlat hokimiyatining bo‘linish prinsipiga amal qilishi; qonun ustuvorligi; huquqiy davlat; fuqarolik jamiyatni intitutining rivojlanishi; fuqarolar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshishi; fuqarolarning siyosiy ong va madaniyatning yuksalishi; siyosiy plyuralizm; demokratik saylov tizimi; parlament institutining rivojlanishi va boshqa omillar bilan bog‘liq.

Mamlakatimzda “demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi”ni ishlab chiqilishi ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy hayotimzda muhim tarixiy ahamiyatga molik voqeа bo‘ldi. Uni atroflicha o‘rganish, mohiyatini bilishga yaqin istiqboldagi ustuvor vazifalarni belgilab olishga imkoniyat beradi.

1. “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi” demokratiya va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning yangicha falsafiy konsepsiyasidir. Unda yaqin istiqbolda amalga oshirilishi ustuvor ahamiyatiga ega bo‘lgan yo‘nalishlar o‘zining ifodasini topganligi bilan xarakterlanadi. Shuningdek, tizimlilik va tarkibiy funksional yondashuv aniq ifodasini topgan.

2. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirishdan maqsad hayot o‘zgarishlariga, ong va tafakkurning yangilanishlariga javob berish, undan orqada qolmaslikdir. Bu huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatni qurilishi bilan bog‘liq dolzarb masalalarga javob topish imkoniyatini beradi.

3. Fuqarolik jamiyatini qurish maqsadlariga erishishga demokratik islohotlar, ya’ni insonni faol ishtirokini ta’minlaydigan va kafolatlab beradigan qonunlarni amalda ta’minlanishi orqali qadriyat darajasiga ko‘tarilishini taqazo etadi.

4. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasining mohiyati milliy g‘oya maqsadlari bilan mushtarakdir. Unga milliy g‘oyaning milliy – madaniy hamda umuminsoniy tamoyillariga tayangan holda erishiladi.

5. Konsepsiada belgilab berilgan yo‘nalishlar va ustuvor vazifalar, dunyoni demokratiya va demokratik tamoyillarning xilma-xilligi bilan bog‘liq qarashlarni yanada boyitadi. O‘zbekistonni bu yo‘lda tadrijiy bosqichma-bosqich tarzda demokratik islohotlarni amalga oshirib berayotganligini hamda unga real yondashib, siyosiy hayotda amaliy – konstruktiv barqaror muhit yaratishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, birinchidan, mustaqillik, jamiyat rivojlanishida yangi nazariy, ilmiy asoslar I.A.Karimov asarlarida o‘zining aniq ifodasini

topdi. Ikkinchidan, davlat hokimiyati, davlat boshqaruvini demokratlashtirish uchun bosqichma-bosqich zarur shart-sharoit, omillar yaratib berilmoqda. Jamiyat hayotida davlatning bosh islohotchilik roli belgilanganligi o‘zining natijasini bermoqda. Uchinchidan, mamlakatda, davlat hokimiyatini nomarkazlashtirish amalga oshmoqda. Demokratik prinsiplarning ustuvorligi amalda o‘zining natijalarini bermoqda. Fuqarolik institatlari va jamiyati rivojlanmoqda. To‘rtinchidan, O‘zbekiston, davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish orqali taraqqiyotning “O‘zbek modeli” demokratik taraqqiyotning o‘ziga xos yo‘lidan biri sifatida dunyoning e’tirof etishi erishdi, bu O‘zbekiston xalqining eng katta yutug‘idir.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: O‘zbekiston, 2012.
2. O‘zbekiston Respublikasining "Talim to‘g‘risida"gi Qonuni. -T.: 1997.
3. O‘zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi". -T.: 1997.
4. Karimov I.A. Iqtisodiy islohot: ma’suliyatli bosqich. -T.: O‘zbekiston, 1994.
5. Karimov I.A. Dehqonchilik taraqqiyoti – farovonlik manbai. -T.: O‘zbekiston, 1994.
6. Karimov I.A. Yo‘limiz – mustaqil davlatchilik va taraqqiyot yo‘li. -T., O‘zbekiston, 1994.
7. Karimov I.A. Halollik va fidoyilik – faoliyatimizning mezoni bo‘lsin. -T.: O‘zbekiston, 1994.
8. Karimov I.A. To‘la iqtisodiy erkinlik sharoitida qat’iy tarkib. O‘zKP birinchi kotibi, O‘zbekiston Prezidenti I.Karimov bilan «AiF» muxbiri D.Makarov suhbat. “Аргументы и факты” gazetasining 1995 yil №15 soni.
9. Karimov I.A. Biz o‘z kuch va imkoniyatlarimizga ishonamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O‘zbekiston milliy axborot agentligi muxbiri savollariga javoblari // Xalq so‘zi gazetasi, 1996 yil 17 oktyabr soni.
10. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida. Xavfsizlikka taxdid barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: O‘zbekiston, 1997.
11. Karimov I.A. Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. Prezident Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida so‘zlagan nutqi // Xalq so‘zi gazetasi, 1997, 30 avgust soni.
12. Karimov I.A. Ma’naviy yuksalish yo‘lida. -T.: O‘zbekiston, 1998.
13. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. -T.: Ma’rifat, 1998 yil 19 avgust soni.
14. Karimov I.A. Olloh qalbimizda, yuragimizda. Prezident Islom Karimovning «Turkiston-Press» axborot agentligi muxbirining savollariga javoblari. -T.: “O‘zbekiston”-1999.
15. Biz o‘z hududimizni xalqaro me’yorlar doirasida bizda mavjud barcha usullar bilan himoya qilamiz. O‘zbekistonda Prezident I.A.Karimovning Moskvada nashr etiladigan «Vremya MN» gazetasiga bergen bayonoti. // Vatanparvar gazetasining 1999 yil 21 oktyabrdagi soni.
16. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda. -T.: O‘zbekiston, 1999.
17. Xalq dardi bilan yashaylik. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning ikkinchi chaqiriq xalq deputatlari, Farg‘ona viloyati Kengashining birinchi sessiyasida so‘zlagan nutqi. // Ma’rifat gazetasi, 2000 yil, 19 yanvar.
18. Erishgan marralarimizni mustahkamlab, islohotlar yo‘lidan izchil borish asosiy vazifamiz. Prezident Islom Karimovning 2003 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanтиrish yakunlari va 2004 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning asosiy yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasidagi ma’ruzasi //O‘zbekiston ovozi gazetasi 2004 yil, 10 fevral soni.

19. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. -T.: Ma'naviyat, 2008.
20. Karimov I.A. O'zbekiston mutaqillikka erishish ostonasida. -T.: O'zbekiston, 2011.
21. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. -T.: O'zbekiston, 1996.
22. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-jild. -T.: O'zbekiston, 1996.
23. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-jild. -T.: O'zbekiston, 1996.
24. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. 4-jild. -T.: O'zbekiston, 1996.
25. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. 5-jild. -T.: O'zbekiston, 1997.
26. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lidan. 6-jild. -T.: O'zbekiston, 1998.
27. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'llimiz bilan quramiz. 7-jild. -T.: O'zbekiston, 1999.
28. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. 8-jild. -T.: O'zbekiston, 2000.
29. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. 9-jild. -T.: O'zbekiston, 2001.
30. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. 10-jild. -T.: O'zbekiston, 2002.
31. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. 11-jild. -T.: O'zbekiston, 2003.
32. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. 12-jild. -T.: O'zbekiston, 2004.
33. Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. 13-jild. -T.: O'zbekiston, 2005.
34. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari – oliy qadriyat. 14-jild. -T.: O'zbekiston, 2006.
35. Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. 15-jild. -T.: O'zbekiston, 2007.
36. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida. 16-jild. -T.: O'zbekiston, 2008.
37. Karimov I.A. Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta'minlash – bizning oliy maqsadimiz. 17-jild. -T.: O'zbekiston, 2009.
38. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi.// Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatning 2010 yil 12 noyabrda bo'lib o'tgan qo'shma majlisidagi ma'ruza.

39. Karimov I.A. Jahon inqirozining oqibatlarini engish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va taraqqiy topgan davlatlar darajasiga ko‘tarilishi sari. 18-jild. -T.: O‘zbekiston, 2011.

40. Karimov I.A. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish – mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir. 19-jild. - T.: O‘zbekiston, 2011.

41. Karimov I.A. Bizning yo‘limiz – demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo‘lidir. 20-jild. -T.: O‘zbekiston, 2011.

42. Karimov I.A. O‘zbekiston xalqiga tinchlik va omonlik kerak. 21-jild. -T.: O‘zbekiston, 2013.

Mundarija

Kirish.....	3
1-Mavzu. Mustaqillik va O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li	6
2-Mavzu. Yangilanish va taraqqiyot sari.....	22
3-Mavzu. Islohotlarning yangi bosqichi.....	39
4-Mavzu. Biz o‘z kuch va imkoniyatlarimizga tayanamiz.....	53
5-Mavzu. Istiqlol mafkurası.....	66
6-Mavzu. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir.....	80
Adabiyotlar.....	100

Mas’ul muharrir: tarix fanlari doktori, professor Shodmon Voxidov
Texnik muxarrir: Boymurodova Z.Q.

Muharrir: Sidiqova K.A.

Musahhih: Adilxodjayeva Sh.